


14-90
G.M. SHARIPOVA, G.T. TOJIYEVA

MUSIQA METODIKASI



742.
1-90

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

G.M. SHARIPOVA, G.T. TOJIYEVA

MUSIQA METODIKASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan kasb-hunar kollejlarining 3141000 – musiqa ta'limi
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan

TERMIZ "XALQOBOD"
PEDAGOGIK-IJTIMOIY
KASB-HUNAR KOLLEJLARI
KIR M № 30325

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2012

UDK: 78(075)

KBK: 74.268.53

M90

G.M. Sharipova

Musiqa metodikasi: o'рта maxsus kasb-hunar ta'limi talabalari uchun o'quv qo'llanma/ G.M. Sharipova, G.T. Tojiyeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. — 248 b.

1. G.T. Tojiyeva

UDK: 78(075)

KBK: 74.268.53

M90

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi o'рта maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Unda bo'lg'usi boshlang'ich musiqa fani o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning minimumi berilgan.

O'quv qo'llanma ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ish mavzulari, talabaning ijodiy faolligini oshirish uchun yangicha yondashuvlarini hisobga olib tuzilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma 3141000 — musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.M. Najmiddinov, Qo'qon davlat pedagogika instituti dots, p.f.n.

R. R. Fayzullayeva, I-Toshkent pedagogika kolleji oliy toifali o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-391-58-1

KIRISH

Respublikamizda turli sohalarga mansub bo'lgan, minglab mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish ta'lim jarayonining asosiy maqsadidir. Xalqimiz kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning salohiyati, kasbiy tayyorgarligi va yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bog'liq. «Musika metodikasi» fanidan yaratilgan ushbu o'quv qo'llanma boshlang'ich maktab musika o'qituvchisi mutaxassisligiga tayyorlash uchun tavsiya etiladi. Fanning mazmuni bo'lajak boshlang'ich sinf musika o'qituvchisi o'rganishi lozim bo'lgan musika metodikasi, musika nazariyasi, musika tarixi, kompozitorlar hayoti va ijodi kabi bo'limlardan tashkil topgan.

«Musika metodikasi» fanining asosiy maqsadi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quvchi-talabalarini boshlang'ich maktabda musika o'qituvchisi mutaxassisligiga tayyorlashdir.

Qo'llanmada musika o'qituvchisi musika darslarini metodik jihatdan to'g'ri olib borishiga, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkillashtirishiga qaratilgan mavzular jamlangan. Bu bo'lajak o'qituvchidan qobiliyat, iste'dod, mahorat va o'z ustida muntazam ishlashni talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashaqqatli va juda mas'uliyatli sohadir.

Musika madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar—kompyuter, slayd, multimedialardan foydalanib olib borish dars samaradorligini oshiradi. Chunki, musika — nafosat tarbiyasining muhim omili bo'lib, yosh avlodni ma'naviy boy, axloqan pok, barkamol inson bo'lib yetishishida asosiy vositalardan bo'lib xizmat qiladi. Mazkur o'quv qo'llanma o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun bo'lajak boshlang'ich sinf musika o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan. Bildirilgan xolisona fikr va mulohazalar uchun o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

I BOB. MUSIQA NAZARIYASI

Musiqa nazariyasi musiqa madaniyati darslarining asosiy faoliyatlaridan biri bo'lib, musiqaning mazmunini, ifoda vositalarini ongli ravishda o'zlashtirishda katta yordam beradi. Eng muhimi esa, musiqa nazariyasi notaga qarab kuylash va qo'shiq kuylash jarayonida garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa qo'shiq so'zlarini aniq talaffuz etishga, sof intonatsiyada kuylashga va badiiy ijro etishga ko'mak beradi. Musiqa savodi dastlab boshlang'ich maktabda o'rgatiladi va musiqa ta'limiga poydevor qo'yiladi. Musiqa savodi faoliyatiga, musiqa darslariga juda kam vaqt ajratilishiga qaramay, qo'shiq kuylash va musiqa tinglash faoliyatini ongli ravishda o'zlashtirishga benazir ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar mustaqil ravishda qo'shiq kuylash va notanish kuylarni notaga qarab kuylay oladigan bo'lgandagina, maqsadga erishilgan deb hisoblasak bo'ladi. Musiqa savodini o'quvchilarga o'rgatish jarayonida, oldingi olingan nazariy bilimlarga ma'lum darajada tayanib o'rgatish lozim. Musiqa nazariyasini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich — o'quvchilarning musiqiy uquvini o'stirish. Bu bosqichda asosan tovushlarning turlari (shovqinli va musiqiy ma'lum balandlikka ega tovushlar) va ularning farqi registr, skripka kaliti, nota yo'llari, notalarning nomlari, baland-pastligi, pauzalar, kuchli va kuchsiz hissalar, repriza va boshqalar o'rgatiladi.

2-bosqich — musiqa savodi biroz murakkablashadi, bundan maqsad musiqiy asarlarni ongli o'zlashtirib, tahlil qila olishga o'rgatiladi. Bunda musiqa ifoda vositalari kuy, lad, o'lchov, temp, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, intervallar va boshqalar haqidagi bilimlar o'rgatiladi.

Musiqa savodi darsning barcha faoliyatlari bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Bunda ko'rgazmali qurollar, grafik chiziqlar, multimedia, slayd, CD va DVD disklar, tarqatma materiallar, turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Musiqa darsida o'qituvchi maxsus tayyorlangan ko'rgazmali qurollar vositasida vazifani o'quvchilarga tushuntirib, so'ng notalarning nomi bilan qanday kuylashni oldin o'zi ko'rsatib beradi, so'ngra o'quvchilar o'zlari nota nomini aytib kuylaydilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga dirijorlik qilib, goh ovozi bilan goh musiqiy asbob yordamida jo'r bo'lib turadi. O'quvchilar kuyni solfedjio qilib

mustahkam o'rganganidan so'ng, qo'shiqni so'zlari bilan ohista, sekin tempda kuylaydilar. Shu tariqa, qo'shiq ongli ravishda asta-sekin o'rgatilib, mustahkamlab boriladi. Musiqa savodining vazifasi o'quvchilar tomonidan musiqani ongli idrok etib, uning o'ziga xos xususiyatlarini tushunib olishga qaratilgan. Musiqa nazariyasi tarkibida musiqa haqidagi bilim va tushunchalar tizimi: nota savodi, musiqa elementlari, musiqaning ifoda vositalari, musiqaning tuzilishi, musiqa cholg'u asboblari turlari va musiqaning yaratilishi (ijrochi, tinglovchi, kompozitor) haqidagi ma'lumotlardan iboratdir.

1.1. Tovush va tovushqator

Musiqa darsi san'at darsi sifatida o'qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Dars unumi esa o'quvchilarda hosil bo'lgan musiqiy taassurotlar, badiiy kechinmalar, musiqaning tuzilishi, ifoda vositalari haqidagi bilimlarining boyishi va malakalarining takomillashuvi bilan o'lchanadi. Musiqa darsida o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan har bir faoliyat turi musiqaning mazmunini ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Eng muhimi esa notaga qarab o'rgatiladi. Musiqa savodi faoliyati amaliy tajribalarga asoslanib olib borilishi kerak. Musiqa savodxonligini tarkib toptirishning muhim omillaridan biri kuyning harakat yo'nalishini tasavvur eta olishdir. Kuyning grafik tasvirini nota yozuvi misolida ifodalash muhimdir. Tovushlarning «Baland» yoki «Past» yangrashi, yuqoriga yoki pastga harakatlanishini izohlab berishda tabiatga va hayotimizdagi maishiy turmushga xos bo'lgan tasavvurlarga suyanib misollar keltirish mumkin. Masalan, tovushlar har xil bo'ladi. Shovqinli tovushlar va yoqimli, ma'lum balandlikka ega bo'lgan jarangdor musiqiy tovushlar. Biz juda ko'p xilma-xil tovushlarni eshitamiz.

Tovush — elastik jismlarning to'liqinsimon juda tez tebranishidan hosil bo'lgan fizik hodisadir. Balandligi noaniq bo'lgan tovushlar shovqinli tovushlar deb ataladi.


Shovqinli tovushlarga: shamolning shovullashi, momaqaldiroq, yerdagi barglarning shitirlashi, suvlarning ariqlarda shildirab oqishi, qushlarning sayrashi, qo'ng'iroqchalar ovozi va shunga o'xshash tovushlar kiradi.

Aniq balandlikka ega bo'lgan tovushlarga musiqiy tovushlar deyiladi. Musiqiy tovushlarga esa fizik xususiyatlar (tebranish) ma'lum balandlikka, tembrga, kuchga ega bo'lgan tovushlar kiradi.

Tovush balandligining tebranishi ko'p yoki oz bo'lishi mumkin. Tebranish qancha tez bo'lsa, tovush to'liqlari shuncha baland bo'ladi. Tovush to'liqlari qancha sust bo'lsa, ular shuncha past bo'ladi. Tovush kuchi (balandlik darajasi) amplituda ya'ni tovush chiqaradigan jismdagi tebranishning larzalanishiga bog'liq. Tovush larzasi qancha uzun bo'lsa, tovush shuncha kuchli bo'lib, tovush larzasi qancha kalta bo'lsa, tovush shuncha kuchsiz bo'ladi.

O'quvchilarni tovushlarning baland-pastligini eshitib farqlash emas, balki kuylab ham farqlay olishga o'rgatish kerak. Tanish bo'lgan qo'shiqlardan kichik-kichik parchalarni kuylatib, so'ngra notanish, ammo ko'rinishi juda oddiy kichik kuylarni farqlay olishga o'rgatish kerak.

Shunday qilib, musiqada yettita asosiy tovush bo'ladi. Ularning nomi do, re mi, fa, so, lya, si deb nomlanadi. Tovushqatordagi yettita asosiy pog'onaning nomi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi. Tovushlarning o'z balandligiga qarab, joylashuvi tovushqator deyiladi. Har bir tovush tovushqatorning pog'onasi hisoblanadi. Tovushqator yetti pog'onadan iborat. I, II, III, IV, V, VI, VII. Birinchi pog'ona asosiy tayanch pog'ona deb ataladi. Tovushqatorning har bir pog'onasini ko'tarish yoki pasaytirish mumkin. Shuning uchun bu pog'onalar nomi asosiy pog'onalar deyiladi. Tovushqatordagi yettita asosiy pog'onaning nomi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi va shunday yo'l bilan barcha asosiy pog'onalarning tovushlarini o'z ichiga oladi. Bu asosiy pog'onalar fortepyanoning klavishlarida joylashgan bo'ladi.




Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Tovush deb nimaga aytiladi?*
2. *Qanday tovushlar bo'ladi?*
3. *Shovqinli tovushlar deb nimaga aytiladi?*
4. *Musiqiy tovushlar deb nimaga aytiladi?*
5. *Tovushqator deb nimaga aytiladi?*
6. *Tovushqatorda nechta pog'ona bo'ladi?*
7. *Asosiy pog'ona nima deb ataladi?*
8. *Musiqada yettita asosiy pog'ona qanday nomlar bilan ataladi?*

1.2. Registr, oktava, diapazon

Musiqqa tizimida tovushqatorning asosiy pog'onalariga 7 ta mustaqil nom berilgan: do, re, mi, fa, sol, lya, si. Bu asosiy pog'onalar fortepyanoda sakson sakkizta xilma xil tovushlarni o'z ichiga oladi. Bu pog'onalar xilma-xil oq va qora klavishlarda joylashgan bo'ladi. Tovushqatoridagi yettita asosiy pog'onaning nomi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi. Bir xil pog'onadagi tovushlar oralig'iga oktava deyiladi. Har bir oktava do pog'onasi bilan boshlanadi. Dastlabki «Do» tovushidan «do» tovushigacha bo'lgan masofa oktava deyiladi. Har bir notadan ham oktava tovushqatorini tuzish mumkin. Fortepyano cholg'u sozining klaviaturasining o'rtasida joylashgan oktava birinchi oktava deyiladi. Birinchi oktavadan o'ng tomonda joylashgan oktavalardan tovushlar yuqori tomonga harakatlansa, ingichka baland tovushlar deyiladi. Bu oktavalari quyidagicha nomlanadi: I, II, III, IV, V. Birinchi oktavadan tovush harakati asta-sekin pastga harakat qilib yo'g'onlashadi va quyidagicha nomlanadi: kichik oktava, katta oktava, kontroktava, subkontroktava. Birinchi oktavadan chap tomonda joylashgan oktavalari ovoz yo'g'onligi deyiladi. Shuningdek, tovushlarni to'g'ri terminlardan foydalanib, «baland» va «past» tovushlar deb atashga o'rgatish lozim. Balandligi jihatidan turli tartibda joylashgan tovushlar guruhi registr deyiladi. Birinchi oktavadan o'ng tomondagi tovushlar guruhi yuqori registr deyiladi. Birinchi oktavadan chap tomonda joylashgan tovushlar guruhi quyi registr deyiladi. Birinchi va ikkinchi oktavalari esa o'rta registr deyiladi. Shunday qilib, musiqada uchta registr mavjud bo'ladi: quyi, o'rta, yuqori. Registrlar haqidagi mavzuni mustahkamlash uchun o'qituvchi turli o'yinlar, treninglar, multimedialardan

foydalanishi kerak. Masalan, biror kuyni uchta registrda pianinoda chalib ko'rsatib ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ma'lum ovoz balandligida, yoqimli tembrda, sof intonatsiyada kuylash qobiliyatiga ega bo'lgan ovoz kengligiga diapazon deyiladi. Har bir insonning ovoz diapazoni bo'lganday, har bir qo'shiqning, musiqiy asarning diapazoni mavjud bo'ladi. Diapazon deganda oraliq ma'nosini tushunamiz, bu oraliq tovushlar orasidagi masofa kengligi hisoblanadi. Musiqiy asar diapazoni deganda, musiqiy asarning eng pastki tovushdan eng yuqori tovushgacha bo'lgan oralig'i tushuniladi. Tovush temбри o'ziga xos rangi, qo'chimcha tovushlarning miqdori va nisbiy kuchiga bog'liq bo'ladi. Tembr deb, tovushlarning sifat xususiyati va ularning rang-barangligiga aytiladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Oktava deb nimaga aytiladi?
2. Oktavada nechta tovush bo'ladi?
3. Barcha oktavalarning nomini aytib bering?
4. Registr nima?
5. Registrning nechta turi bo'ladi?
6. Diapazon nima?
7. Tembr nima?

1.3. Nota yozuvi, kalit, 1-oktava tovushlarining joylashishi

Tovush balandligini o'rganib bo'lgach, tovushlar izchilligi haqidagi bilimlarni va tovushlar to'g'risidagi tasavvurni mustahkamlash uchun mashqlar va qo'shiqlardan parchalar kuylatiladi. O'qituvchi o'quvchilar qo'shiq kuylaganda zo'riqmasdan yengil kuylashlarini kuzatishi lozim. O'qituvchi nutqimizni harflar bilan yozish mumkin bo'lgani kabi, musiqani ham o'ziga xos harflar-notalar deb ataladigan belgilar bilan yozilishi mumkinligini

tushuntirishi kerak. Nota so'zi lotincha so'z bo'lib, belgi degan ma'noni anglatadi. Nota yozuvi deb tarixan yuzaga kelgan maxsus belgilar notalar vositasida tovushlarni yozish tizimiga aytiladi. Nota—musiqani yozish belgisi. Notalar nota yo'llariga yoziladi. Beshta nota chiziqlaridan iborat bo'lgan yo'llar nota yo'llari deyiladi. Nota yo'llari pastdan yuqoriga qarab sanaladi.

Notalar nota yo'llarining ustiga, orasiga va ostiga yoziladi. Nota yozuvida asosiy chiziqlardan tashqari ayrim notalar uchun qo'shimcha qisqa chiziqlar ishlatiladi. Ular nota yo'lining ostiga va ustiga yoziladi. Nota yo'lining yuqorisida joylashgan qo'shimcha qisqa chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yo'lining pastida joylashgan nota chiziqlari yuqoridan pastga qarab sanaladi. Notalar nomini aniqlash maqsadida nota chiziqlarining boshiga maxsus belgi — skripka kaliti qo'yiladi. Skripka kaliti sol kaliti deb ham atalishi mumkin. Nota yo'llarining ikkinchi chizig'ida «sol» notasi joylashganligi sababli, skripka kalitini, sol kaliti deyish mumkin. Skripka kaliti nota yo'llarining boshida asosiy chiziqlardan ikkinchi chiziqning ustida yoziladi. Skripka kaliti notalarning nomlarini aniqlashga yordam beradi. Bas kaliti ham asosiy musiqiy kalitlarning biri bo'lib hisoblanadi. Skripka kaliti yuqori registrdagi notalar nomlarini bildirsa, bas kaliti esa quyi registrdagi notalarning nomini aniqlaydi. Skripka kaliti birinchi oktavaning «sol» notasi chizig'ida joylashgan bo'lsa (ya'ni 2-chiziqda), Bas kaliti esa kichik oktavaning 4-chizig'ida «fa» notasi turgan chiziqqa joylashadi va fa kaliti deb ham ataladi.

O'qituvchi notalarning nomlarini bir darsning o'zida hammasini tushuntirib bera olmaydi. O'quvchilarning o'zlashtirish jarayoniga qarab har darsda chiziq ustidagi, chiziqlar orasidagi va qo'shimcha chiziqdagi yangi-yangi notalar bilan tanishtirib borish lozim. Har bir notaning joylashishi bilan birga eshutilishini ham musiqa cholg'u asbobida ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari, har bir yangi o'rgatilgan notani ko'rgazmali qurollar vositasida tushuntirib, qanday yangrashini cholg'u asbobida ko'rsatib, kuylatib ko'riladi. O'quvchilarning o'zlashtirganligiga ishonch hosil qilinganidan so'ng, keyingi darslarda yangi notalar bilan tanishtirishda davom etiladi. O'qituvchi rebuslar tuzib, slaydlar, multimedialardan foydalanib mavzuni mustahkamlaydi. So'ngra birinchi oktava notalarining joylashishi va nomlarini, tovush balandligini mustahkamlaydi.


Nota chiziqlari



Skripka kaliti yoki sol kalitining joylashuvi



Notalarning joylashuvi va nomlanishi




Nota chiziqlari ustida va orasida joylashgan notalar



Qo'shimcha chiziqlar ustida joylashgan notalar



Bas kaliti 4-chiziq ustida joylashgan bo'lib kichik va katta oktava notalarning nomlarini bildiradi



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Nota chiziqlariga qanday belgi bilan yoziladi?
2. Nota so'zi qanday ma'noni anglatadi?
3. Bas kaliti qayerda joylashadi va nima uchun Fa kaliti deb ataladi?
4. Nota yo'llari nechta bo'ladi va qanday tartibda sanaladi?
5. Asosiy nota chiziqlarida yana qanday chiziqlar bo'ladi va ularning sanalish tartibi qanday?
6. Skripka kaliti qayerda yoziladi, nima uchun sol kaliti deyiladi?
7. Birinchi oktava notalarini aytib bering?

1.4. Tovushlar cho'zimi

O'rganilayotgan qo'shiqlar har xil xarakterda quvnoq, sho'x, g'amgin, tantanavor yangrashida notalar cho'ziminin ahamiyati katta. Qo'shiqlarning kuyi va ohanglari, ya'ni, cho'zimi qisqa va uzun tovushlardan iborat bo'lishi har bir notaning yangrash vaqti miqdorini bildiradi. Masalan, quvnoq, sho'x qo'shiqlar notalar cho'zimi qisqa tovushlardan, og'ir, g'amgin, qo'shiqlarda mayin tovushlardan tuziladi. Notalar cho'zimini bir-biridan farqlab kuylash uchun notalar yoniga vertikal tayoqchalar qo'yiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, har bir nota ma'lum vaqt yangrash miqdoriga ega. Agar ushbu tartib buzilsa qo'shiq, kuy xakteri, tempi, mazmuni ham buziladi. Qo'shiq va kuy mazmunini aniq ochib berish uchun biz har bir nota cho'zimini aniq va ravshan o'rganib, so'ngra tartibni buzmay kuylashimiz lozim. Tovushlar cho'zimini chapak chalib, oyoqlarimiz bilan usulga moslab qadam tashlab asta-sekin o'rganishimiz lozim. Nota belgisi o'rtasi bo'sh yoki bo'yalgan doirachalardan iborat bo'ladi. Tovushlarning xilma-xil cho'zimini turli belgilar bilan ko'rsatish uchun doirachalarga vertikal tayoqchalar, dumchalar, qisqa cho'zim tovushlarni bir guruhga birlashtirish uchun esa qo'shimcha gorizontaal chiziqlar qo'shib yoziladi. Eng katta cho'zimli tovush butun nota 1i, 2i, 3i, 4i ga sanaladi.

Butun cho'zimli tovushning ikki marta qisqargani yarimtalik nota deyiladi, yoniga tayoqcha qo'yilib 1i, 2i ga sanaladi.

Yarimtalik notaning ikki marta qisqargani chorak nota deyiladi. Uning ichi bo'yalib 1i sanaladi. Chorak notaning ikki marta qisqargani nimchorak nota deyiladi. Bir yoki i ga sanaladi. Dumaloq shaklning ichi bo'yalib, bayroqcha qo'yiladi. Nimchorak notaning ikki marta qisqarishi o'n oltitalik nota deyiladi. Bo'yalgan dumaloq shakl tayoqchasi yoniga ikkita bayroqcha qo'yiladi.

1 ga -2 ta nota i ga -2 ta nota qo'yiladi. Notalar cho'zimini o'zlashtirish uchun o'qituvchi ko'rgazmali qurollardan SD-R disklardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Notalar cho'zimi

 Butun nota — 1i, 2i, 3i, 4i ga sanaladi.

 Yarim nota — 1i, 2i ga sanaladi.

 Chorak nota — 1i ga sanaladi.

 Nimchorak nota 1 ga 1 ta i ga 1 ta sanaladi.

 O'n oltilalik nota 1 ga 2 ta i ga 2 ta sanaladi.



O'quvchilar ritm tuyg'usini hosil qilishi uchun, o'qituvchi cho'zimlarni solishtirib va taqqoslab ko'rish jarayonini tavsifa etadi. Masalan, marsh tempidagi kuyni o'quvchilar birorta bo'g'inga kuylab, qalam bilan partalariga chertib chaladilar. Bunda ular chorak va nimchorak notalarni his etib o'rganadilar. So'ngra qadam tashlab yurib, chorak va nimchorakni his etadilar.



O'n oltilalik notani his etish uchun oldin chapak chalib, so'ng musiqaga mos qilib yugurib ko'radilar. Turli cho'zimdagi notalarni shu tariqa his etib asta-sekin o'zlashtirib boradilar.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Musiqada nima uchun notalar cho'zimidan foydalaniladi?
2. Nota cho'zimi bir-biridan qanday farqlanadi?
3. Tovushlarning xilma-xil cho'zimi nota yordami bilan qanday ifodalanadi?
4. Tovushlarning cho'zimlarini ifodalovchi belgilarini ayting?
5. Tovushlar cho'zimini qanday o'zlashtirish mumkin?
6. Notalar cho'zimi kuy va qo'shiqlarni kuylashda qanday ahamiyatga ega?
7. Nimchorak va o'n oltitalik notalar nechaga sanaladi?

1.5. Kuchli va kuchsiz hissalar: metr, ritm, zarb

Har bir kuy ma'lum darajada kuchli va kuchsiz hissalaridan iborat bo'lib, ma'lum bir ritmda ijro etiladi. Buning uchun kuyning ritmik ko'rinishini avvalo sanab o'tish, ya'ni cho'zim va raqam mutanosibligini aniq o'rganish shart. Musiqada tovushlar ma'lum vaqt davomida eshitiladi. Tovushlarning bir vaqtda teng hissalariga bo'linib almashinib turishi musiqada bir tekis harakatni hosil qiladi. Tovushlarning ana shu harakati vaqtida ayrim hissalar urg'usi ajralib turadi, bu urg'ularga zarb deyiladi. Zarb tushadigan hissalar kuchli hissalar, zarb tushmaydigan hissalar esa kuchsiz hissalar deyiladi. Kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashinib turishi metr deyiladi. O'zaro bog'lanib izchil kelgan tovushlar cho'zimi ritm deyiladi. Musiqada tovushlar cho'zimining ketma-ket kelishi natijasida ularning ma'lum vaqt ichida almashinib turishini ko'ramiz. Tovushlarning muayyan tartibda bog'langan cho'zimlari birlashib ritmik turkumlar hosil qiladi. Musiqasi asarining umumiy ritmi ana shu ritmik turkumning yig'indisidan tarkib topadi. Zarbdagi har bir hissadan keyin bir tekisda takrorlanib turadigan metrlar ikki hissali metrlar deyiladi. Zarblari har ikki hissadan keyin takrorlanib turadigan metrlar uch hissali metrlar deyiladi. Ularning o'lchovlari ham shu xilda bo'lsa, oddiy o'lchovlar deyiladi. Oddiy o'lchovlarga quyidagilar kiradi:

a) ikki hissali o'lchovlar $4/4$;

b) uch hissali o'lchovlar $3/4$.

Kuyni yuqoriga va pastga tomon hamda bir joyda davomli harakatlarni sezib eshitish malakasi, kuy harakatini qo'l harakatlari bilan ifodalab mustahkamlanadi.

Mazkur ish davrida ikkinchi muhim vazifa metroritm hissiyotlarini rivojlantirishda quyidagilarga amal qilish kerak:

- a) tovushlarning uzun qisqaligini ajrata olish;
- b) kuylarni, ritmik chiziqlarni bo'g'inli so'zlar (Iya, du, da) bilan kuylash;
- d) kuchli va kuchsiz hissalarini aniqlash va ularni his etib kuylash;
- e) chapak va bolalar cholg'u asboblari cholib, kuchli va kuchsiz hissalarini aytib, kuyga jo'r bo'lish;
- f) marsh va raqs xarakterlarini harakatlarda ifodalab farqlay bilish;
- j) qo'shiqning ritmik tuzilishini avval qo'shiqning ritmda taktning metriga hissalarini chapak cholib his etish;

Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab mertlar hosil bo'ladi. Murakkab metr ikki va undan ortiq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin. Murakkab metrlarni ifodalovchi eng ko'p qo'llanadigan o'lchovlar quyidagi murakkab o'lchovlardir.

- a) to'rt hissali o'lchovlar $4/4$;
- b)olti hissali o'lchovlar $6/4$;
- d) to'qqiz hissali o'lchovlar $9/8$.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Ritm nima?*
2. *Metr nima?*
3. *Metrning zarb tushadigan hissalarini qanday ataladi?*
4. *Metrning zarb tushmaydigan hissalarini qanday ataladi?*
5. *Zarb nima?*
6. *Kuchli va kuchsiz hissalar deganda nimani tushunasiz?*

1.6. O'lchov, takt va takt chizig'i

Ritm tuyg'usini o'stirish va nota tizimini mustahkamlash ustida olib boriladigan mashqlar jarayonida o'quvchilarni o'lchov, takt va takt chizig'i bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Musiqada kuchli va kuchsiz hissalarining almashinib turishi metr deyiladi. Metr hissasining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi o'lchov deyiladi. Agar bir kuchli hissa bir kuchsiz hissa bilan almashinayotgan bo'lsa, bu ikki hissali o'lchov deyiladi va kasrga o'xshash $2/4$ bo'lib belgilanadi. Agar bir kuchli hissa ikki kuchsiz hissa bilan

almashinayotgan bo'lsa, uch hissali o'lchov deyiladi va $3/4$ bilan belgilanadi. O'lchov nota yo'llarini boshida skripka kalitini yoniga qo'yiladi. Ikki hissali o'lchov $2/4$ 2i ga sanaladi. Uch hissali o'lchov $3/4$ 3i ga sanaladi. O'lchovning ustki raqami hissalar sonining pastki raqami qanday cho'zimda ekanligini bildiradi. O'lchovlarning ifodaviy ahamiyati asarlar xarakterini belgilashda yaqqol namoyon bo'ladi. O'lchovlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri asarning badiiy mazmunini belgilab beradi. $2/4$ o'lchovida ko'pincha raqs musiqasi quvnoq, sho'x asarlar yoziladi. «Jonon», «Andijon polkasi» kabi asarlar bunga misol bo'ladi. $3/4$ o'lchovida yozilgan raqs musiqiy asar harakatlarining tekisligi bilan ajralib turadi. Bularga vals, polonezlar, bahor valse, qo'g'irchoqlar valse kabi asarlar kiradi. $4/4$ o'lchovida esa tantanavor bayram asarlari, marsh, madhiyalar yoziladi. O'lchovlar quyidagi ko'rinishda belgilanadi:


Chap qo'l




O'ng qo'l




Chap qo'l



O'ng qo'l




Chap qo'l



O'ng qo'l



Kuchli hissalarini bir-biridan takt chizig'i ajratib turadi. Kuchli hissa oldiga maxsus belgi nota yo'li ustiga yuqoridan pastga qarab ko'ndalang chiziq tortiladi. Bu vertikal chiziq takt chizig'i deyiladi. Musiqiy asarlarda bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo'lgan oraliq takt deyiladi. Qo'shiqlar va musiqiy asarlarni ijro etish jarayonida taktlar hamma cho'zimlar soniga teng bo'lishi kerakligini ko'rsatib turadi. Agar musiqiy asar kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to'liq bo'lmagan takt hosil bo'ladi. Bunga takt oldi yoki zatakt deyiladi. Takt oldi (zatakt) to'liqsiz takt bo'lib, musiqiy asarning boshida, o'rtasida yoki asarning istalgan biror qismida bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda takt oldi bilan boshlangan asar yoki uni biror qismi to'liq bo'lgan takt bilan tugallanadi va u takt oldini to'ldiradi. Agar asar oxirida vertikal ko'ndalang chiziqlar yonma-yon kelsa asarning yakunlanganligini bildiradi. Shu asosida takt chizig'ining musiqiy asarda o'rni katta. O'lchovlar oddiy 2/4, 3/4; murakkab 4/4, 3/8, 6/8 turlarga bo'linadi.



R
olib b
va tak
kuchli
Metr h
Agar b
bo'lsa,
belgilat

Mayzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Metr nima?
2. O'chov nima?
3. Takt va takt chizig'i nima?
4. Takt oldi nima?
5. Oddiy o'chovlarga qaysi o'chovlar kiradi?
6. O'chovlar nota chiziqLARining qayerida joylashadi?
7. Nota chiziqLARI oxirida qo'yiladigan ikkita yonma-yon ko'ndalang chiziq nimani bildiradi?

1.7. Tovush cho'zimlarini uzaytiradigan belgilar





Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini egallash ustida olib boriladigan ish jarayonida ularning cho'zimi ham o'zgarishi, tovushlar faqat muayyan balandlikkagina emas, balki muayyan cho'zimga ega ekanligiga, qisqa va uzun tovushlarning borligiga o'quvchilar diqqatini jalb etamiz. Nota yoniga nuqta qo'yilsa, uning miqdori yarim barobar uzayadi. Masalan, yarim nota 1i, 2i ga sanalsa, uning yoniga nuqta qo'yilsa, uning cho'zimi barobar cho'ziladi va 1i, 2i, 3i ga sanaladi. Uzun tovushlarni cho'zib kuylash kerak. Nuqtali notalar esa, undan ham ko'proq cho'zib kuylanadi. O'qituvchi ko'rsatilgan notalarning cho'zimiga qarab, oldin o'zi kuylab ko'rsatib berishi kerak, so'ngra o'quvchilar bilan birgalikda sanoqni to'g'ri sanab, kuylab mustahkamlashi lozim.

$$\begin{aligned} \circ & \text{ (4 chorak)} - \circ & \text{ (6 chorak)} = 4+2=6 \text{ li } 2i \ 3i \ 4i \ 5i \ 6i \\ \text{♩} & \text{ (2 chorak)} - \text{♩} & \text{ (3 chorak)} = 2+1=3 \text{ li } 2i \ 3i \\ \text{♩} & \text{ (1 chorak)} - \text{♩} & \text{ (3 nimchorak)} = 1+0,5=1,5 \text{ li } 2 \end{aligned}$$

$$\text{♩} = \text{♩} + \text{♩} = \text{♩} \text{ — } \text{♩}$$


$$\text{♩} = \text{♩} + \text{♩} = \text{♩} \text{ — } \text{♩}$$

$$\text{♩} = \text{♩} + \text{♩} = \text{♩} \text{ — } \text{♩}$$

Tovush cho'zilishini uzaytiradigan belgilarga fermata ham kiradi. Tovush cho'zilishining vaqt bilan cheklanmagan uzayishini ko'rsatuvchi belgiga **fermata** deyiladi  . Fermata nota ustiga va ostiga qo'yiladi. Tovushlar cho'zilishini uzaytiradigan belgilarga liga ham kiradi  . Yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi nota cho'zimlarini birlashtiruvchi yoysimon chiziq **liga** deyiladi.



fermata



REPRIZA — MUSIQA ASARINING O'ZGARMAS QAYTARILISHI

Qo'shiq yoki kuyning ma'lum bir qismini takrorlab ijro etish lozim bo'lganda repriza, ya'ni qaytariq belgisi qo'yiladi. Bu belgi takror ijro etiladigan asar bo'lagining har ikki tomonidan qo'yiladi.






Repriza yordamida takrorlanadigan kuy yoki qo'shiqning bo'lagiga musiqa asarining o'zgarmas qaytarilishi deyiladi.



1.8. Pauzalar

Notalar cho'zimini o'rganish bilan birga pauzalar bilan ham tanishtiriladi. Musiqada tinish belgisiga pauza deyiladi. Pauzalar notalar kabi sanaladi, lekin chalinmaydi. Turli cho'zimga ega bo'ladi. Pauzalar notalar kabi bo'linadi va yoniga nuqta qo'yilsa, miqdori yarim barobar oshadi. Masalan: yarim pauza 1i 2i ga sanaladi, yoniga nuqta qo'yilsa, yarim barobar cho'ziladi 1i 2i 3i.

Pauzalar notalar kabi quyidagicha bo‘linadi:


butun nota	o	ga teng butun pauza	
yarim nota	♪	ga teng yarim pauza	
chorak nota	♪	ga teng chorak pauza	
nimchorak nota	♪	ga teng nimchorak pauza	
16 talik nota	♪	ga teng 16 talik pauza	


Musiqiy asarlar va qo‘shiqlar misolida pauzalar o‘ziga xos xususiyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Pauza musiqiy asarlarning turli qismlarida uchraydi, qo‘shiq kuylashda uchraydigan pauzalar yordamida nafas olish oson bo‘ladi. O‘qituvchi kuylash uchun mo‘ljallangan mashqlardagi turlicha cho‘zimdagi kuylarni ijro etishda o‘quvchilar bilan birga kuylab, pauzalarga ahamiyat berib, birgalikda ijro etib mavzuni mustahkamlaydi.

NOTA CHIZIQLARIDA PAUZALARNING YOZILISHI

Tovush yangrashining vaqtincha to‘xtalishi pauza deyiladi.

Masalan:


 — butun notaga teng miqdorda pauza;

 — yarim notaga teng miqdorda pauza;

 va hokazo...

chorak nimchorak 16 talik

Pauzalarga ham uzaytirish belgilaridan (.) nuqta qo‘yilishi mumkin.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Cho'zimlarni o'zgartiruvchi belgilar qanday yoziladi va sanaladi?*
2. *Liga nima?*
3. *Fermata nima?*
4. *Pauza nima?*
5. *Pauzalar qanday yoziladi va sanaladi?*
6. *Notalar va pauzalar o'rtasidagi farq nimada, o'xshash jihatlari-chi?*
7. *Repriza deb nimaga aytiladi?*


1.9. Alteratsiya belgilari: ton va yarim ton

Musiqi atrofdagi narsalarni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Kuy va qo'shiqda doimo samimiyat mavjlanadi. U inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Musiqani chuqur idrok etish uchun qo'shiqdagi mazmun, xarakter, tempning tuzilishini puxta anglash lozim. Qo'shiq va kuylardagi notalar yanada chiroyli, serjilo chiqishi uchun zarur bo'lgan paytda yarim tonga ko'tariladi yoki yarim tonga pasayadi, tovushqator oq va qora klavishlardan iborat bo'lib, ma'lum masofaga ega bo'ladi. Agar yonma-yon kelgan ikki oq klavish orasida qora klavish bo'lmasa, bu klavishlardan hosil bo'ladigan tovush oralig'i yarim tonni tashkil etadi. Tovushqatorida bunday yarim tonlar 3-4 va 7-1-pog'onalar oralig'ida uchraydi. Agar yonma-yon kelgan ikki oq klavish orasida qora klavish bo'lsa, butun ton — bir ton deyiladi. Yarim tonlarni oq va qora klavishlardan tuzish mumkin. Ton va yarim tonlikni yaqqol tasavvur etish uchun pianino klavishlariga qarab aniq ko'rishimiz mumkin. Kalit oldida qo'yiladigan alteratsiya belgilari musiqiy asarning boshidan oxirigacha o'zgarmasdan ta'sir etadi. Nota oldiga qo'yiladigan alteratsiya belgilari esa faqat bir taktga ta'sir etadi, xolos. Kalitdan keyin qo'yiladigan alteratsiya belgilari kalit alteratsiya belgilari, notalar oldiga qo'yiladigan alteratsiya belgilari esa tasodifiy alteratsiya belgilari deyiladi.

Musiqiy tovushning yarim ton yuqoriga ko'tarilishiga yoki yarim ton pastga tushishiga alteratsiya belgilari deyiladi. Alteratsiya belgilari skripka kaliti yoniga yoki nota yo'llariga qo'yiladi. Nota oldidagi alteratsiya belgisi shu nota nomi bilan qo'shib aytiladi. Masalan fa diez, si bemol. Skripka kaliti oldidagi alteratsiya belgisi nomi odatdagiday belgilanadi.

Alteratsiya belgilari odatda besh turda uchraydi. Diez, bemol, bekar, dubl diez, dubl bemol.

1. Musiqiy tovushning yarim ton yuqoriga ko'tarilishiga **diez** deyiladi va quyidagi ko'rinishda belgilanadi:



2. Musiqiy tovushning yarim ton pastga tushirishga **bemol** deyiladi va quyidagicha yoziladi:



3. Diez va bemolni inkor qiluvchi belgi **bekar** deyiladi va quyidagicha belgilanadi:



Bu belgilar nota yo'llarida quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

4. Musiqiy tovushning bir ton yuqori ko'tarilishiga **dubl diez** deyiladi.

5. Musiqiy tovushning bir ton pastga tushirilishiga **dubl bemol** deyiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Ton deb nimaga aytiladi?*
2. *Yarim ton nima degani?*
3. *Klaviaturadagi tovushqatorida nechta yarim ton va nechta ton bor?*
4. *Alteratsiya belgilari deb nimaga aytiladi?*
5. *Necha xil alteratsiya belgilari bo'ladi, nomlarini ayting?*
6. *Alteratsiya belgilari qayerda qo'yiladi va qanday nomlanadi?*

1.10. Ladlar. Major va minor ladlari

Xalq musiqasida xilma-xil ladlar uchraydi. Musiqiy amaliyotda esa, asosan ikkita lad major va minor ladlari ko'proq qo'llaniladi. Lad musiqiy tovushlarning balandlik munosabatini tartibga keltiradi, musiqa ifoda vositalari (kuy, ohang, temp) bilan birga uning mazmunini va xarakterini ochib beradi. Har bir kuy yoki musiqiy asar ma'lum bir ladga asoslanadi. Lad tuzilishida turg'un tovushlar yetakchi bo'lib, ularga noturg'un tovushlar tortilib turadi. Musiqada tayanch tovushlar turg'un tovushlar deb yuritiladi. Boshqa tovushlar tayanch tovushlarga nisbatan kuchsiz bo'lib eshitiladi, shuning uchun ular noturg'un tovushlar deb yuritiladi.

Noturg'un tovushlar turg'un tovushlarga tortiladi. Ladning asosiy turg'un tayanch tovushi topika deb ataladi. Ko'pincha musiqiy asarlar, kuy va qo'shiqlar topika tayanch tovushda tugallanadi va tinglovchida turg'unlik va tinchlik taassurotini qoldiradi.


Ladda asosan uchta turg'un tovush (pog'ona) I, III, V bo'lib, boshqa noturg'un tovushlar bularga tortiladi. Musiqiy asarlar ko'pincha tonikadan boshlanib, tonikada tugaydi. Musiqiy tovushlarning muayyan tartibda o'zaro bog'lanib kelishiga **lad** deyiladi.

Ladning musiqa asaridagi ta'limiy ahamiyati va ta'siri kattadir. Har doim ham majorni shodiyona, xushchaqchaq lad sifatida, minor ladiga esa mungli, mayin lad sifatida birmuncha soddalashtirib izohlash to'g'ri emas. Chunki, musiqa adabiyotida major ladida yozilgan mungli minor ladida yozilgan shodiyona musiqalar juda ko'p uchraydi. Shu sababli major va minor ladlarining lotin tilidagi ma'nosiga asoslanib: dur (major) qattiq, moll (minor) esa mayin degan ma'noni bildiradi. Shu tufayli major ladi tovushning qattiq, minor ladi tovushning mayin tovushi deb ta'riflash tavsiya etiladi. Major va minor ladi haqidagi tasavvurlarni boyitish uchun o'qituvchi xilma-xil asarlardan parchani tinglatib, qo'shiqlar kuylatib, ladlar haqidagi mavzuni mustahkamlashi zarur. Major ladi va minor ladi bir-biridan tuzulishi bilan farq qiladi. Major tovush qatori ton va yarim tonlardan iborat bo'lib, shu notalar oralig'iga mos kelganligi sababli hech qanday alteratsiya belgilaridan foydalanilmaydi. Demak, do major tovushqatorida hech qanday belgi yo'q.

Major va minor ladlari

Major va minor ladlari kuyning mazmuni va xarakterini ochib berish bilan birga, bir-biridan farq qiladi. Major va minor ladlari lotin tilidan tarjima qilinganida, **major-dur** (katta), **minor-moll** — mayin degan ma'noni bildiradi. Major va minor tovushqatori sakkizta tovushdan tuziladi, ammo yettita bosqichdan tashkil topadi. Chunki, sakkizinchi tovush do notasidan keyingi oktava qaytarilishi bo'lganligi uchun u I raqami bilan belgilanadi. Tovushqator qaysi notadan tuzilsa shu nota nomi bilan ataladi. Masalan: re-remajor, sol-solmajor, si-minor, mi-minor.

Har bir lad ton va yarim tonlar asosida tuzilib, har bir bosqich oralig'i qat'iy tartibda amal qiladi. Masalan: do major tovushqatori tartibga ko'ra; 1 ton; 1 ton; 0,5 ton; 1 ton; 1 ton; 1 ton; 0,5 ton.



Tuzilgan do major tovushqatori, ton va yarim tonlari shu notalar oralig'iga mos kelganligi bois, hech qanday alteratsiya belgilaridan foydalanilmaydi.

Minor ladi ham major ladi singari yetti pog'onadan iborat bo'ladi. Faqat minor ladi tuzilishiga qarab uch xil bo'ladi: tabiiy, garmonik, melodik.

1. Tabiiy ladi ton va yarim tonlardan iborat bo'lib, quyidagicha tuziladi. 1 ton, 0,5 ton, 1 ton, 1 ton, 0,5 ton, 1 ton, 1 ton.



2. Garmonik minor tabiiy minordan yettinchi pog'onaning 0,5 ton ko'tarilishi bilan farq qiladi. Demak, garmonik minor quyidagicha tuziladi.



3. Melodik minor tabiiy minordan 6-7 pog'onalarining 0,5 ton ko'tarilishi bilan farq qiladi. Melodik minor pastga tomon tabiiy minor pog'onalari bo'yicha harakat qiladi. Melodik minor quyidagicha tuziladi:



Melodik minor pastga tomon tabiiy minor pog'onalari bo'yicha harakat qiladi. Major va minor ladlarida asosiy turg'un tovushlar I, II, III pog'onalar hisoblanib, ulardan uchtovushliklar tuziladi va ular orasidagi intervallar har xil bo'ladi.


Uchta turg'un tovushdan iborat bo'lgan tersiya bo'yicha joylashgan tovushlar uchtovushlik deyiladi.

Tersiya bo'yicha joylashgan hamda bir vaqtda qo'shilib eshitaladigan uch va undan ortiq bo'lgan tovushlarga akkord deyiladi.




Akkord pastki tovushdan yuqoriga qarab tuziladi va I, III, V pog'onalardan iborat bo'ladi.

Major uchtovushligi katta va kichik tersiya (3)dan tuziladi. Ikki chetdagi tovushlar sof kvinta (5) intervalidan iborat bo'ladi.



Minor uchtovushligi kichik va katta tersiya (3)dan tuziladi. Ikki chetdagi tovushlar sof kvinta (5) intervaldan iborat bo'ladi.



Major va minor uchtovushlikdan tuzilgan intervallar ohangdosh intervallar deyiladi.

Uchtovushlikning eng pastki, ya'ni asosiy tovushi prima deyiladi, ikkinchi o'rta tovushi tersiya, uchinchi yoki yuqori tovushi kvinta deb ataladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Lad deb nimaga aytiladi?
2. Musiqa ifoda vositalari deb nimaga aytiladi?
3. Musiqada odatda qanday ladlar qo'llaniladi?
4. Major ladi qanday tonlardan tuzilgan?
5. Minor ladi qanday tonlardan tuzilgan?
6. Garmonik minor ladida qanday tovush ko'tariladi?
7. Melodik minor ladida qanday tovushlar ko'tariladi?

1.11. Dinamik belgilar. Templar

Kuy, ohang, qo'shiqlar ijrosi yanada yoqimli yoki biror musiqiy obrazni boyitib tinglovchilarga eshittirish uchun musiqada dinamik belgilar qo'llaniladi. Musiqiy tovushlarning past yoki baland, asta-sekin kuchayishi yoki pasayishiga dinamik belgilar deyiladi. Musiqiy

asarning past, ohista yoki baland ijro etilishini bildirish uchun dinamik belgilar asosan musiqiy asarning boshlanish qismida, naqorat qismida yoki asarni tugallanish qismida qo'yiladi. Dinamik belgilarga amal qilib, ifodali ijro etilgan musiqiy asar tinglovchilarni yuragiga tez yetib boradi. Insonlarning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir etib, musiqiy asarning badiiy mazmuni keng ochiladi. Dinamik belgilar quyidagicha yozilib, talaffuz etiladi:

p-piano, kuchsiz, sekin

pp-pianissimo, juda kuchsiz, juda sekin

mp-metso piano, o'rtacha sekin

f – kuchli baland

mf –metseforte, o'rtacha baland

ff – fortissimo, juda baland, kuchli.

 kreshchendo—musiqiy tovushlarni asta-sekin kuchayib borishi – «cresc».

 diminuendo musiqiy tovushlarni asta-sekin pasayib, sekinlashib borishi – «dim».

Templar

Templar ham har bir musiqiy asarning mazmunini ochib berishda uning xarakteri janrini tinglovchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqiy asarning harakat tezligiga temp yoki sur'at deyiladi. Templar turli xarakterda asarning ijro etish sur'atini ko'rsatib beradi. Templar asosan musiqiy asarning boshlash qismida agar o'zgartirish lozim bo'lsa, har xil qismlarda yoziladi. Templar uch xil bo'ladi: tez templar, o'rtacha templar, og'ir templar.

Tez templarga

Allegro –tez

Vivo–jonli

Alegretto–juda

O'rtacha tepmlarga

andante–oshiqmasdan

moderato–o'rtacha, tez

tez andantino–sal tezroq

Og'ir templarga

Largo – keng

Lento – cho'zibroq

Adajio – og'ir vazmin

rit – musiqiy asarning asosiy

tezligini sekinlashtirishni

bildiradi.

a tempo – ilgariqi tempga qaytish

piu tempo – katta tezlikda ijro etish

Templar musiqiy asar janrining (qo‘shiq, raqs, marsh) xarakterini, ijro etish tezligini, mazmunini ochib beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Dinamik belgilar deb nimaga aytiladi?
2. Dinamik belgilarning qanday turlari mavjud?
3. Temp deb nimaga aytiladi?
4. Qanday temp turlari mavjud?
5. Templar belgisi musiqiy asarning qaysi joyiga qo‘yiladi?
6. Kreshchendo deb nimaga aytiladi?
7. Diminuendo deb nimaga aytiladi?

1.12. Intervallar

Musiq savodining muhim bo‘limlaridan biri intervallar mavzusi hisoblanadi. Chunki, har qanday qo‘shiq va kuy turli nisbatga ega bo‘lgan intervallardan tashkil topadi. Shuning uchun qo‘shiq kuylash va musiqa tinglashda intervallarni aniq sezib borish kerak. Intervallarning quyi birinchi tovushi «asos» yuqorisi esa «cho‘qqi» deb ataladi. «Interval» so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, oraliq yoki «masofa» degan ma‘noni bildiradi. Musiqada esa ikki tovush oralig‘i interval deyiladi. Intervallar melodik va garmonik turlarga bo‘linadi. Ikki yoki uchta tovushning birin-ketin chalinishi yoki eshutilishiga **melodik interval** deyiladi. Ikki yoki uch tovushning bir vaqtda barobar chalinishiga **garmonik interval** deyiladi.

Musiqada sakkizta asosiy intervallar bor. Prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.

Intvallarning ko‘rinishi va raqamlar bilan belgilanishi quyidagicha bo‘ladi:



Har bir asosiy intervalning aniq o'lchovi bor. Har bir interval **son va sifat** miqdori bilan aniqlanadi. Pog'onalar soni bilan ifodalangan interval **son miqdorli interval deyiladi**. Miqdori ton va yarim ton bilan ifodalangan interval **sifat miqdori intervali** deyiladi. Bir oktava oralig'ida hosil bo'lgan interval oddiy interval deyiladi.

Intervallar sof, katta va kichik intervallarga bo'linadi.

Sof intervallar

Prima – bir tovush ikki marta takrorlanishi. Oralig'i 0 ton.



Kvarta – 4 ta tovush. Oralig'i 2,5 ton.



Kvinta – 5 ta tovush. Oralig'i 3,5 ton.




Oktava – 8 ta tovush. Oralig'i 6 ton.



Katta va kichik intervallar

Sekunda – 2 ta tovush. Oralig'i 1 ton.



Tersiya – 3 ta tovush. Oralig'i 2 ton.



Seksta –6 ta tovush. Oralig‘i 4,5 ■



Septima –7 ta tovush. Oralig‘i 5, ■



O‘quvchilarga intervallarni o‘rgatish bilan birgalikda amalda qo‘llanadigan Ular berilgan notadan boshlab har biriga kuylashni ham o‘zlashtirishlari qilib kuylab, chalishni o‘rganishlari musiqiy uquvini o‘stiradi.

Mavzuni mustahkamlas ■

1. Interval deb nimaga aytiladi?
2. Intervalning pastki va yuqori tovushlari?
3. Intervallar necha turga bo‘linadi?
4. Sof intervallarga qaysi intervallar?
5. Katta-kichik intervallarga qaysi intervallar?
6. Melodik va garmonik intervallarni?
7. Intervallarning son va sifat miqdori?

II BOB. MUSIQA O'QITISH METODIKASI

2.1. Musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari

Musiqa san'ati jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida insonni tarbiyalash va ma'naviy boyitish vositalaridan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda. Hozirgi zamonda fan va texnika taraqqiy etgan bir davrda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Mustaqillik sharofati bilan madaniy hayotimizda adabiyot va musiqa san'atining barcha sohalarida yangicha tamoyillar shakllana boshladi. Ayniqsa, milliy musiqamiz, milliy qadriyatlarimiz va raqs san'atiga katta e'tibor berildi. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim maktablarida shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun musiqa ta'limi va tarbiyasiga e'tibor yanada ortdi. Musiqa tarbiyasi nafas tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, o'quvchilarni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa san'at va hayot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi. Shuning uchun inson ona allasi orqali musiqa bilan tanishib, umrbod musiqadan zavq oladi va madad topadi.

Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarini olib borolmaydi. Buning uchun u yuksak madaniyatli, o'z kasbiga mehr qo'ygan, bolalarni sevadigan, keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa nazariyasi, musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak. «Metodika» – ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash davrida qo'llanadigan ish uslubidir. Metodika grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni bildiradi. Musiqa o'qitish metodikasi asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar beradi. Musiqa o'qitish metodikasi fani birdaniga shakllangan emas, balki bunga qadar mazkur fan tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Musiqa o'qitish metodikasi fanini shakllantirishda dunyo olimlari qatori, mahalliy olimlar, tajribali o'qituvchilar, metodistlarning qator ishlari ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Musiqa o'qitish metodikasi fanining asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga

tayyorlash. Ularni bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Fanning maqsadidan kelib chiqqan holda uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarga nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatish;
- o'z ustida va mustaqil ishlash malakalarini singdirish;
- kasbiy faoliyatga doir tajriba va bilimlarni o'zlashtirish pedagogik texnologiyalar (kompyuter, multimedia, slaydlar)dan foydalanishga o'rgatish;
- musiqa darslarida mavzuga oid ko'rgazmali qurollar tayyorlash va ulardan foydalanishga o'rgatish;
- darsdan va maktabdan tashqari ommaviy va to'garak ishlarini tashkil etishga o'rgatish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Madaniy hayotimizda musiqa san'atining tutgan o'rni qanday?*
2. *Musiqa inson hayotida qanday vazifalarni bajaradi?*
3. *Qanday inson musiqa darslarini olib borishi mumkin?*
4. *Metodika so'zi nimani anglatadi va uning vazifasi nimadan iborat?*
5. *Musiqa o'qitish metodikasi fani qanday fanlarga asoslanadi va uning tarixi haqida gapirib bering?*
6. *Musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsadi nimadan iborat?*
7. *Musiqa o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifalarini aytib bering?*

2.2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning musiqa ta'limidagi maqsad va vazifalari

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta'lim ustuvorligidir. 1997-yil 29-avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov «Tarbiyachi – ustoz yosh avlodni aql-idrokini o'stirish, barkamol yetuk inson etib yetishtirish uchun eng avvalo, o'zi shu talablarga javob berishi va shunday fazilatlariga ega bo'lishi kerak» – degan edi. Darhaqiqat, o'qituvchilik kasbida bilimdonlik, zukkolik, o'z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o'qituvchilik kasbi sharafligi va mas'uliyatli hisoblanadi. Jamiyatimizni ma'naviy yangilanishida demokratik huquqiy davlat qurish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da asosiy masala bo'lib

hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy omillaridan biri xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida kadrlarni tayyorlash va yangi tizimni shakllantirishdan iborat. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi, bugungi mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlikni his eta oladigan yetuk, komil insonni tarbiyalash, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan barcha vazifalar uch bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatib berilgan.

1-bosqichda (1997–2001-yillar) pedagogik va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish hamda ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi, Davlat Ta'lim Standartlarini yaratish va joriy etish asosida milliy dasturni ro'yobga chiqarish va yo'nalishlariga aniqliklar kiritish.

2-bosqichda (2001–2005-yillar) majburiy umumiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish, sifat bosqichini shakllantirish.

3-bosqichda (2005- va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribalarni umumlashtirish asosida, yanada rivojlantirish. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga kompyuter axborot tarmog'i orqali ulash, masofadan o'qitishni joriy etish. Musiqa san'ati yangi avlodni tarbiyalashda o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiya pedagogikasi va uning mukammal uslublari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Shu bois barcha o'quv predmetlari qatori musiqa fanidan ham 1998-yil 10-may Vazirlar Mahkamasining 203-sonli qarori bilan Davlat Ta'lim Standartlari ishlab chiqildi.

Davlat Ta'lim Standartlari joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari

maqom, shoshmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topgan. Yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning bilim va malakalarini oshiradi, xotiralarini mustahkamlaydi, obrazli tasavvur qilish, musiqiy did kabi xislatlarini rivojlantiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi Davlat Ta'lim Standartlari asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi **ta'lim turlarini** o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Ta'limning asosiy prinsiplari quyidagilarga asoslanadi:

1. Ta'lim-tarbiyaning demokratik xarakterda ekanligi.
2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.
3. Umumiy, o'rta va o'rta maxsus ta'limning majburiyligi.
4. Litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishning ixtiyoriyligi.
5. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega bo'lishi.
6. Davlat Ta'lim Standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.
7. Ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv.
8. Ta'lim tizimida davlat va nodavlat boshqaruvining bo'lishi.
9. Ta'lim tizimida Xalq ta'limi vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.
10. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish.

Davlat Ta'lim Standartlari mazmunida o'quvchilarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarga shart-sharoit yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi.

O'quvchilarning musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish Davlat Ta'lim Standartlarining asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, umumiy ta'lim doirasida o'quvchilar

o'zlashtirishi lozim bo'lgan minimal bilim va malakalar bayon etilgan.

Davlat Ta'lim Standartlari musiqa dasturiga musiqani o'rgatish metodikasi, darslarning taxminiy rejasi, yil, chorak mavzulari, o'zbek xalq musiqasi namunalari hamda kompozitorlarning yangi zamonaviy asarlari kiritilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'tarilgan barcha masalalar respublikamiz yoshlarining aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan, bu eng avvalo o'qituvchi kasbiga bo'lgan munosabatni oshirish lozimligini taqozo etadi.

Bugungi mustaqillik sharoitida ta'lim muammolarini hal qilishda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi zamon bilan hamnafas qadam tashlab, axborot texnologiyasi va ilg'or pedagogik texnologiya malakalarini to'liq o'zlashtirishi va shular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog'i lozim. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini raqs dasturi, folklor, vokal ansambli, doirachilar ansambli, xor to'garaklari shaklida o'qitish musiqa o'qituvchisining zimmasidadir. O'qituvchi bir soatlik musiqa darsida ham cholg'uchi, ham xonanda, ham dirijor, ham ssenariy muallifi, ham artist bo'lishi lozim. Shu bois, musiqa darsi san'at darsi deyiladi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasining amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. Chunki, boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisining maktab hayotida faoliyat miqyosi kengdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini ochib bering?*
- 2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va omillarini yoritib bering?*
- 3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy bosqichlari mazmunini ochib bering?*
- 4. Davlat Ta'lim Standartlari mazmuni va maqsadini aytib bering?*
- 5. Boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisiga qanday vazifalar qo'yilgan?*

2.3. Musiqa darslarining umumdidaktik prinsiplari

Musiqa madaniyati darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar o'qituvchi hamda o'quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari — dars mazmunining metodlari va darslarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Musiqa madaniyati darslarining didaktik prinsiplari besh turdan iborat. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini, musiqa darsining mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Yuqorida qayd etilgan umumdidaktik prinsiplar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqa darsini Davlat Ta'lim Standartlariga muvofiq milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, uzluksizlikni va uzviylikni asos qilib musiqa faoliyatining izchilligini ta'minlaydi.

1. Musiqa ta'limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir darsda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa o'zidagi bilimlar doirasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir. Dars jarayonida o'quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozining rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, bolalarning fikriy qobiliyatini hisobga olgan holda tahlil etish darsning ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Ilmiylikni sistemaliksiz amalga oshirish qiyin. Darsning barcha o'quv faoliyatini hamda keyingi darslarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi sistemalilik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo'lishi, sistemalilik demakdir. Darsning har bir faoliyati o'z navbatida har bir darsning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylik prinsipi demakdir.

2. Musiqa darslarida onglilik va aktivlik prinsipi.

Mazkur prinsip didaktikaning yetakchi prinsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish o'quvchining aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir. Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his eta bilish, fikrlash

qobiliyatini o'stiradi. Mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, o'quvchining o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirishi bilim jarayonini aktivligini vujudga keltiradi. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy estetik zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo diqqat-e'tiborini jalb eta bilish, unda qiziqish uyg'ota bilish onglilik va aktivlikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish o'z navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa darslarida onglilik va aktivlik, ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirish uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatlarida ham onglilik va aktivlik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

3. Musiqa darsida ko'rgazmalilik prinsipi.

Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida ijro etib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham musiqa darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi.

4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi.

Mazkur prinsip dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida dars mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinfning umumiy bilim va malaka darajasi hisobga olinishi shart. Dastur asosida har bir sinfning bilim va malakalari hisobga olingan holda, musiqa darsining yarim yillik kalendar-mavzuli rejasi tuziladi. Kalendar-mavzuli ish reja bir yilda ikki marta o'quvchilarning yosh xususiyati, musiqiy uquvi, yangi qo'shiqlar, musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodidagi o'quv materiallari, dars faoliyatlariga qarab tuziladi.

5. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi.

Mazkur prinsiplarini amalga oshirishining eng asosiy sharti yuqorida bayon etilgan to'rtta prinsipga jiddiy amal qilishdan iboratdir.

Birinchidan, bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va hayotiyligini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asarni va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilinishi lozim.

Ikkinchidan, asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:
a) asar bolalarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi;
b) musiqa ta'limining xususiyati;
d) sinfdagi barcha o'quvchilarni mazkur asarga qiziqтира olish va to'la o'zlashtirishga erishish.

Uchinchidan, darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan: qo'shiqlarni jummalarga bo'lib o'rgatish va keyingi darslarda mustahkamlab takrorlash.

To'rtinchidan, musiqa darslarida har bir yangi bilim elementi dars faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi darslarda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari musiqa madaniyati darslarida katta ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1. Pedagogikaning didaktik prinsiplarining mohiyati nimadan iborat?*
- 2. Umumdidaktik prinsiplarning qanday turlari mavjud va ularning musiqa darslarida qo'llanilishi?*
- 3. Musiqa darslarida sistemalilik va davomiylik prinsiplaridan qanday foydalaniladi?*
- 4. Ko'rgazmalilik, onglilik va aktivlik prinsiplaridan musiqa darsida qanday foydalanish mumkin?*
- 5. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi deganda nimani tushunamiz?*
- 6. Musiqa darslarida bilim va malakalarni mustahkamlash prinsipi qanday qo'llaniladi?*

2.4. Musiqa madaniyati darslarining xususiyati va strukturasi

Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa

insonning shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat-e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;
- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi did bilan namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jihozlangan bo'lishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja, konspektlarini tuzib, yangi texnologiyani qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarining maqsadi va mazmuni darsni mazmunan yoritib, hayot bilan bog'lab, uzviylikni ta'minlab olib borilishini talab etadi.

Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir.

Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi, u musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan, tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan

ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan. Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi-yangi badiiy qirralarini his etamiz. Musiqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar xordiq chiqarib, badiiy oziqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas musiqa darsi o'zining faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Shuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa darsi beshta faoliyat turidan tuziladi:

- xor bo'lib kuylash;
- musiqa savodi;
- musiqa tinglash;
- musiqaga mos harakatlarni bajarish;
- bolalar cholg'u asboblariida jo'r bo'lishdan iborat.

Xor bo'lib kuylash

Bolalarni musiqiy uquvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, vokal-xor ishlarining ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarni kuylashga qiziqтира olish o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiq o'qituvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berilishiga bog'liq. Chunki, yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal-xor ishi ko'pincha o'qituvchi ovozigа taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak. Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o'qituvchi ovoz sozlash, qo'shiq o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni (do1 – do2), ijro diapazoni (mi1 –fa1 –sol1), primar tovushlarida

kuylash uchun qulay bo'lgan (sol1 – lya1) tovushlarini aniq bilishi lozim.

Musiqqa madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi:

- bolalar diqqatini qo'shiqqa jalb qilish;
- qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi (qo'shiq mualliflari, asarning mazmuni, tarixiy xususiyatlari haqida qisqacha hikoya qilish);
- qo'shiqni tahlil qilinishi (musiqqa ifoda vositalari, xarakteri mazmunini suhbat yo'li bilan belgilash);
- qo'shiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish (to'g'ri nafas olib, jumlaning oxirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatleri ustida ishlash);
- qo'shiqning badiiy ijrosiga erishish (qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o'tkazish, ya'ni umumlashtirish).

Musiqqa savodi

Musiqqa madaniyati darsleri jarayonida musiqqa savodi, mustaqil darslar davomida musiqqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish o'rgatiladi. Musiqqa savodi mazmuni o'quvchilarni tobora shakllantiradi va ularning bilim doirasini kengaytirib, chuqurlashtirib boradi. Shunday qilib musiqqa savodi darsning ta'limiy vazifasini bajaradi. Musiqqa savodi (faoliyati)ning asosiy negizi va pedagogik maqsadi yangi dastur bo'yicha berilgan chorak mavzularini kuylash va tinglashga doir asarlarni savodli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarning kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari asosida o'rgatiladi.

Musiqqa savodi quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi.

Bolalar diqqatini musiqqa ifoda vositalari kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgilarga jalb qilish. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar chapak va cholg'u asboblarni chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish. Musiqqa ijodkorlari: «kompozitor», «ijrochi», «tinglovchi», mavzuning mazmuni va o'rganiladigan asarning mualliflari haqidagi ma'lumotlar musiqqa savodi orqali amalga oshiriladi.

Musiqa tinglash

Musiqa tinglash musiqa madaniyati darslarining asosiy omili hisoblanadi, chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etilib, uning xarakteri, mazmuni ongli ravishda o'zlashtiriladi. O'quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zahirida ma'lum his-tuyg'u va fikr aks ettiriladi. Biz musiqa darsining qaysi faoliyatini olmaylik u avval musiqani tinglab, musiqani idrok etishdan boshlanadi va o'quvchilarning ruhiyatiga ta'sir etadi, shuning uchun musiqa tinglash darsning yetakchi faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Darsda tinglanadigan har bir musiqiy asar badiiy-g'oyaviy mazmuni jihatidan chorak dars mazmuniga bog'liq bo'ladi va ilmiylik, davomiylik, izchillik tamoyillariga amal qiladi.

Musiqa tinglash bir necha bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar e'tiborini musiqiy asarga jalb qilish va o'qituvchining kirish so'zi.

2. O'qituvchi ijrosida yoki magnit yozuvda asarni tinglash.

3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy va badiiy-g'oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish.

4. Asarni bir butunligicha qayta tinglash va asar haqida o'quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Musiqa tinglash metodlari:

1. Ko'rgazmali metod:

– o'qituvchining jonli ijrosi, rasmlar vositalari orqali bolalar cholg'u asbobi, torli, ritmli harakatlar.

2. Amaliy metod:

– o'quvchilarning musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ularning hayotiy tajribasiga bog'lab tushuntirish va musiqiy asarga munosabatini faollashtirish.

3. Taqqoslash metodi:

– bunda asarlarning janrlari, ijrochilik xususiyatlari, templari, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o'stirishga yordam beradi.

Musiqa darsining 5 ta faoliyat turlari (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish) uzviy bog'lab boriladi va mantiqiy bir butunlikka erishish maqsadga muvofiqdir.

4. Og'zaki metodlar:

– o'qituvchi tinglanadigan asar mazmunini bolalar hayotiga

bog'lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab asarning mualliflari, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli hikoya qilib beradi.

Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish

Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish eng qiziqarli mashg'ulotdir, chunki bolalar cholg'u asboblari jonli, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Bolalar cholg'u asboblari birinchi navbatda o'quvchilarda ijrochilik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy uquv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa madaniyati darslarida bolalar cholg'u asboblaridan foydalanish yaxshi natijalar berish bilan birga, o'quvchilarni darsga intiluvchanligini, qiziqishini, musiqiy uquvini oshiradi. Musiqa darslarida qo'llaniladigan bolalar cholg'u asboblari ikki turga bo'linadi: kuychan va kuychan bo'lmagan (shovqinli) cholg'u asboblar.

1. Kuychan cholg'u asboblarga metalafon va kselafon kiradi.

2. Kuychan bo'lmagan cholg'u asboblariga: doirachalar, oddiy cho'p qoshiqlar, kichik shiqildoqlar, barabanchalar, uchburchak marakassa va rumbalar kiradi.

Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish turli metodlarda amalga oshiriladi, avval o'quvchilar kuyni tinglab, chapak chalishi, ritmik jo'r bo'lishi amalga oshiriladi. Musiqaga ritmik jo'r bo'lishni aniq bajarganlar, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'ladi, keyinchalik esa, passiv bolalar ham to'g'ri ijro etishga intilish maqsadida, jo'r bo'ladi. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish har gal, har xil cholg'u asboblarida bajariladi. Sinfni 2 guruhga bo'lib: 1-guruh chapak va cholg'uda, 2-guruh esa ovozda usul berish (bum-ba, baka-baka-bum) bilan amalga oshirilishi mumkin. Bolalar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish grafikda ko'rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab chalish ham o'quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Musiqaga xos harakatlar bajarish

Boshlang'ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ovoz apparatlari nozik, diqqat-e'tibori tarqoq, serharakat, o'yinqaroq, xotirasi, nutqi to'liq

rivojlanmagan bo'lganligi sababli musiqa darsida faoliyat turlari tez-tez almashib turishi lozim. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish o'quvchilarni diqqatini jamlashga, xotirasini mustahkamlashga va jismonan o'sishiga yordam beradi. Dars davomida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish, raqs elementlarini bajarish, mustaqil o'yinlar o'tkazish, musiqa xarakteriga mos, turli qo'l va tana harakatlari bilan ifodalanadi. Ma'lumki, milliy musiqamiz madaniyatida raqs muhim o'rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Har bir harakat turini o'qituvchi oldindan belgilaydi va o'zi uni aniq, go'zal va ifodali qilib ko'rsatib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin, unga doir musiqa mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so'ngra harakatlar bajarish yaxshi natija beradi. Bolalar musiqali o'yinlarga ham juda qiziqadilar. Ko'p musiqiy asarlar mazmunida o'yin metodlaridan foydalanish mumkin. Dars jarayonida bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o'yinlar, o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, nutqini o'stiradi, jismoniy sog'lom bo'lishiga ko'maklashadi va ularni ruhlantirib, musiqa darsiga qiziqishini oshiradi. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat-e'tibori tarqoq ovoz apparatlari kuchsiz, musiqiy uquv qobiliyatlari to'la shakllanmagan, serharakat, o'yinga moyil bo'ladilar. Bunda pedagogik maqsadlarga qarab darsni xohlagan dars faoliyatidan boshlash mumkin. Bundan maqsad, o'quvchilarni musiqaga qiziqitira olish, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, dars faoliyatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lab mazmun jihatidan mantiqiy bir butunlikka erishishdir. Demak, yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi ijodkor bo'lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo'lishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Musiqa darsining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*
2. *Musiqa darsi qanday xususiyatlarga ega?*
3. *Musiqa darsining strukturasi qanday faoliyatlardan iborat?*
4. *Musiqa fani qanday fanlar bilan bog'liq?*
5. *Zamon talabi asosida musiqa darsini o'tish uchun o'qituvchi qanday bo'lmog'i kerak?*
6. *Musiqa darsidagi har bir faoliyat turini tavsiflab bering?*

2.5. Musiqa o'qitish metodlari va ularning musiqa madaniyati darslaridagi ahamiyati

Hozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanning shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali o'qituvchilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ladi. Badiiy pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishishi uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilishi talab etiladi. Ma'lumki, maktabda o'quvchilarning yosh fiziologik xususiyatlari, ko'nikma va malakalariga qarab musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (o'quv reja, dastur) ta'lim prinsiplari, o'quv-tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir. Demak, musiqa o'qitish metodikasi o'quvchilarning musiqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yo'llarini tadbiq etuvchi fandır. «Metodika» so'zi grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni anglatadi va ta'lim-tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi musiqa o'quv metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, mahorat va malakalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.

Yetuk olimlarimiz tadqiqotlarida maktab o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan professional talablar va o'quvchilar munosabatini, xususiyl metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar.

Xususiyl metod – biror-bir fanning amaliyl va ijodiy ishlarining mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir.

Xususiyl (optimal) metodlar o'qitish faoliyati maqsadiga qarab to'rtga bo'linadi:

1. Darsning musiqaviy umumlashtiruv metodi.
2. O'tilajak darslarga oldindan «yugurib», bog'lanib o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.
3. Dars mazmunini emotsional dramaturgiyasi metodi.
4. Darsning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanishi metodi.

1. Darsning musiqaviy umumlashtirish metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, o'quvchilarni musiqa idroki, mantiqiy, badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir:

a) o'qituvchi darsda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;

b) o'qituvchi va o'quvchi birga, hamkorlikda masalani yechadi;

d) o'quvchilar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

2. Oldinga «yugurib o'tish», ya'ni ilgari o'tilgan materiallardan foydalanib, o'quvchilarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

3. Emotsional dramaturgiya metodi bilan darsning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. O'qituvchi darsni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va o'quvchilarni darsga faol qiziqtirib, darsning emotsional dramaturgiyasi, ya'ni avjiga erishishi lozim. Musiqa o'qituvchisi maktabda musiqa darsidan tashqari konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishi talab etiladi.

4. Darsni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

a) o'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi;

b) bilim faoliyatini rag'batlantirish va ogohlantirish talablarini qo'yish;

d) o'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish. Baholashda shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, o'quvchilarning kayfiyati tushib ketmasin. Darsga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa aksincha, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish sinfda boshqa o'quvchilarga namuna bo'lib xizmat qilsin va ular odobli, aqlli bo'lishga intilsinlar.

Shunday qilib, musiqa o'qitish metodlarini boshqa turlari ham mavjud:

- musiqa o'qitishning og'zaki metodlari;
- ko'rgazmali o'qitish metodlari;
- amaliy o'qitish metodlari;
- o'yin metodlari;
- taqqoslash metodlari;
- musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

Musiqa darsida o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli hikoya yoki suhbat yo'li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi. Bu metoddan asosan boshlang'ich sinfda ko'proq foydalaniladi.

Hikoya – bu o'qituvchining musiqa asari haqida jonli, emotsional, yorqin bayoni. Hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatishdir.

Suhbat – o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatdan iborat bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularni nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatini kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi.

Tushuntirish – ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darsida asosan, musiqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va ohang tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organlari orqali tinglab, idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishda esa nota yozuvlari, plakatlar, rasmlar, o'qituvchining so'zi, dirijorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari, musiqaning jonli va aniq ijrosi, texnik vositalardan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashini darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

3. Amaliy o'qitish metodlari. Amaliy metodlar vositasidan o'quvchilar vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o'rganish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun foydalanadilar. Amaliy metodlar, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

4. O'yin metodi — boshlang'ich sinflarda ko'proq ijobiy natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Darsda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy uquvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa darsiga qiziqish uyg'otadi.

5. Taqqoslash metodi. Musiqa darsi jarayonida kontrast, ya'ni taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal-xor ishlarida o'qituvchi, o'quvchilar bilan gramyozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqa asarining tahlili va janrlarni belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarning templari, turli cholg'u asboblardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

6. Musiqa uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi. Musiqa uquvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differensial guruhlarga bo'lib va darsdan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi. Differensial guruh deganda o'quvchilarning musiqiy qobiliyati, uquvi va ovozigga qarab uch guruhga bo'lish tushuniladi.

1-guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar kiradi.

2-guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan, ya'ni o'qituvchining ovozigga ergashib, tayanib kuylaydigan o'quvchilar kiradi.

3-guruhga esa, ovozi uncha yaxshi bo'lmagan, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan o'quvchilar kiradi.

Musiqa darsi jarayonida bu o'quvchilar quyidagi tartibda o'tqaziladi: birinchi qatorga o'qituvchini ovozigga tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy uquvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilar, uchinchi qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan bolalar o'tqaziladi. Bunda ikkinchi qatordagi o'quvchilar musiqa ohanglarini atrofdagilar ovozlariga ergashib chiroyli kuylashga harakat qiladilar.

Shu uslub bilan o'quvchilarning musiqiy uquvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan darsdan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. Shu tariqa, hamma o'quvchilarning musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyogi, qobiliyati, musiqiy uquvi bir xilda bo'lib, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Musiqqa o'qitishning qanday metodlari mavjud?*
2. *Xususiy metod nimani anglatadi va qanday turlari bor?*
3. *Musiqqa o'qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari?*
4. *«Metodika» so'zi nimani anglatadi va uning vazifalari nimadan iborat?*
5. *Musiqqa darsida musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan qanday ishlar olib boriladi?*
6. *Og'zaki metodlar va uning musiqqa darsidagi ahamiyati?*

2.6. Vokal-xor malakalari va ularning musiqqa darsidagi ahamiyati

Xor bo'lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqqa madaniyati darslarida vokal-xor ishlari, o'quvchilarning axloqiy-estetik tarbiyasi o'qitishning eng faol shaklidir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarning diqqat-e'tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqini rivojlantiradi, ovoz diapazonini kengaytiradi, musiqiy uquvini o'stiradi, mutatsiya davri yengil o'tadi, dunyoqarashi yildan-yilga shakllanib boradi. Vokal-xor malakalari musiqqa darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xor mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganida zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiq kuylaganda ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi.

Vokal-xor malakalari yordamida o'quvchilar qo'shiqning so'z ma'nosi va musiqqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarning mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal-xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo'lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki, aynan vokal-xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin.

Vokal-xor malakalari olti turga bo'linadi:

- darsda qo'shiq kuylash holati;
- ashulachilik nafasi;
- ovoz hosil qilish;
- sozlanish;
- ansambl;
- talaffuz.

1. **Qo'shiq kuylash holati** deganda darsda o'quvchilarning o'tirishi va turish holati nazarda tutiladi. O'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o'quvchilarga tushuntirish va doimo nazorat qilib, eslatib turish lozim. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to'g'ri turish, o'tirib kuylaganda parta suyanchig'iga suyanmasdan, yelkarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yin va boshni to'g'ri ushlab, qo'llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo'yib, engashmasdan o'tirish va oyoqlarni yelka kengligida qo'yib, erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2. **Ashulachilik nafasi.** Ma'lumki kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas o'rtasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug'ilgan kundan tabiiy holda hayotining oxirigacha amal qila boshlaydi va aniq bir ritmdan ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Ashula aytishdagi nafas esa qo'shiq xarakteriga qarab tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Nafas olish va uni chiqarish qo'shiq jumlasining cho'zimiga, sur'atiga va xarakterining ifodalanishiga qarab cho'ziladi. Sun'iy nafasdan aktyorlar, suxandonlar va qo'shiqchilar foydalanadilar. Shuningdek, sun'iy ya'ni ehtiyojga qarab olinadigan nafas, ashulachilik nafasi deyiladi.

Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud:

- ko'krak nafasi;
- diaffragma nafasi;
- qorin nafasi.

Kichik bolalarning ko'krak nafasi hali tor, qisqa ekanligi sababli, ular nafasni ko'krak bilan oladilar, shu bois ashula aytganlarida yelkalarini ko'tarib, shoshilib va qo'shiq jumlasini, so'zini bo'lib nafas olishlari tabiiydir. Shuning uchun bolalarning yelkarni ko'tarmasdan, osoyishta, vazmin nafas olish va uni qo'shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda yetkazish, ayniqsa so'zni bo'lib nafas olmaslikni o'rgatib borish lozim. Nafas olish malakasi ustida ishlash jarayonida bolalar diqqatini ovozlarning kuychan, ravon, yoqimli jaranglashiga jalb etiladi. Buning uchun gulni hidlagandek osoyishta va shovqinsiz nafas olishga o'rgatiladi. Ana shu malakalarni amalga oshirish darsliklarda va qo'llanmalarda tavsiya etilgan vokal-xor mashqlarini kuylash, bolalar xorlarida ijro etilgan qo'shiqlarni magnit tasmlari orqali tinglash kabi amaliy mashg'ulotlarda shakllantirib boriladi.

Bolalar mashq va qo'shiqlarni kuylaganda o'qituvchining qo'l

ishoralariga qarab nafas olishga va uni tejab, rasamadi bilan jumla oxirigacha yetkazishga odatlanib borishadi. Ayniqsa, dirijorlik holatlari «diqqat», «auf», «ijroni boshlash», «ijroni tugatish»ga rioya etib kuylashga o'rgatish nafasni rejaga solish uchun muhimdir. Bolalar nafasining hajmi imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashq va qo'shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo'yiladi va ularni o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi.

3. Ovoz hosil qilish. Ovozning vujudga kelishi murakkab psixologik, fiziologik jarayondir. U ovoz apparati (kekirdak, hiqildoq) va uning ichidagi konussimon ikkita ovoz pardasining nafas (o'pka, traxeyalar, ko'krak qismi) va eshituv apparatlarining birgalikdagi amaliyotida hosil bo'ladi. Tomoqda hosil bo'lgan tovush kuchsiz va xishillab, sadolanib chiqadi, uning nutq apparati ayniqsa, burun bo'shlig'i orqali tebranishi kuchayadi va o'ziga xos tembr va jarangdorlik xususiyatiga ega bo'ladi. To'rt organ — nafas, ovoz, nutq va eshituv apparatining o'zaro faoliyatidagi musiqiy ohangga quyiladigan ovoz — ashulachilik ovozi deb ataladi.

I-sinfda o'quvchilarning ovozni zo'riqtirmasdan kuylatish uchun ashula aytishi primar (sol1 — lya1) bo'ladi, ishchi diapazoni (mil — si1). Umumiy diapazon (pe1 — do2) bo'lib, bunga me'yorida amal qilish lozim.

Bolalar bosh reanatoriga asoslangan faltsetga yaqin ovozda kuylaydilar.

Bolalarni kuylatganda faqat yumshoq ataka bilan boshlash lozim, hech qachon qo'shiqni qattiq ataka bilan boshlamaslik kerak. Buni o'qituvchi nazorat qilib borishi shart.

4. Sozlanish. Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o'z ovozini unga moslab kuylashi, saqlanishi degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, sozlanish ma'lum balandlikdagi tovushni aniq intonatsiyada kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo'lib hisoblanadi, chunki boshlang'ich sinfdagi vokal-xor ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison (sof bir ovozda kuylash) erishishdan iboratdir. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish olib boriladi. Ayniqsa, musiqa uquvi sust rivojlanayotgan bolalarga e'tibor kuchaytiriladi. Ularni o'qituvchi ovoziga cholg'u asboblardan soz uchun berilayotgan tovushga va iqtidorli bolalar ovoziga qo'shilishga va tovush balandligi bilan barobarlashishga, ya'ni tenglashishga da'vat etiladi va intonatsion

sof sozga erishiladi va bir xil balandlikda kuylanadigan mashqlar orqali amalga oshiriladi.

5. Ansambl. Ansambl – fransuzcha soʻz boʻlib, birgalikda degan maʼnoni anglatadi. U musiqa, balet, arxitektura sanʼatlarining qonuniyatlaridan biridir. Musiqada bir necha ijrochilarning birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Masalan: oʻzbek xalq cholgʻu asboblari ansambli, raqs ansambli, vokal ansambli va boshqalar. Xorda esa barcha xonandalarning soz birligi, ijro tempi, ritm usul va dinamik uygʻunligi vokal-xor ansambli deyiladi. Ansambl xususiy va umumiy turlarga boʻlinadi. Xordagi barcha ijrochilarning bir ovozga sozlanib, hamma bir kuyda ansambl boʻlib, ikki yoki uch ovozda kuylashi umumiy ansambl deyiladi. Har bir ovozning alohida-alohida sozi va ansambli xususiy ansambl deyiladi. Soz va ansamblning uygʻunligi uzoq ish jarayonini talab etadi va shundagina oldimizga asosiy maqsad qoʻyilgan sof unisonga erishish mumkin.

6. Talaffuz. Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlari (lab, til, jar) ning faol hamjihatligi vositasida amalga oshiriladi. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish natijasida xorda baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga eʼtiborni kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda ish olib borish, shoshmasdan erkin gapirish va kuylashga undash lozim. Nafasni toʻgʻri olib, jumlaning oxirigacha yetkazishda, unli tovushlarni choʻzib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga oʻrgatib borish talab etiladi. Bunda ogʻiz shaklining, tilning harakatlariga, oʻzgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi, bolalarni mashq va qoʻshiqlar matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga oʻrgatib borish lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Musiqada darslarida vokal-xor malakalari qanday ahamiyatga ega?*
2. *Vokal-xor malakalarining qanday turlari mavjud?*
3. *Ashulachilik apparatining tuzilishi va bolalar ovozi qanday ehtiyoq qilish kerak?*
4. *Qoʻshiq oʻrgatishda talaffuz malakasining ahamiyati qanday?*
5. *Qoʻshiqdagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun qanday mashqlardan foydalaniladi?*
6. *Soz va ansambl deganda nimani tushunasiz?*

2.7. Vokal ovoz turlari. Musiqa darslarida o'quvchilar ovozlarni tarbiyalash va takomillashtirish yo'llari

Maktablarda o'quvchilarning kuylash madaniyatini shakllantirish, ularning ovozini tarbiyalash va saqlash juda katta ahamiyatga ega. Har bir musiqa o'qituvchisi bolalar ovoz apparatining tuzilishi, uning rivojlanishi va fiziologik xususiyatlarini puxta o'rganib, so'ngra ovoz ustida ishlashi kerak. Insonning ovoz apparati o'ziga xos murakkab «musiqa asbobi» bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqani ifodalash xususiyatiga ega bo'lishi bilan birga, barcha musiqa asboblardan ustun turadi. Chunki, inson ovozi kuy va so'zni organik payvandlash natijasida musiqiy qo'shiqning asl ma'nosini ochib beradi. Bu borada inson ovozigacha teng keladigan birorta ham musiqa cholg'u asbobi yo'q. Inson ovozi ko'pincha «gapiruvchi musiqa asbobi» deb yuritiladi. Insonning ovoz apparati: tomoq, hiqildoq, nafas ravoqi, halqum, ovoz pardalari, rezonatorlar va har xil mushaklardan tuzilgan. Tovushning baland-pastligi, yo'g'on-ingichkaligi hiqildoq bo'shlig'ining tarangligiga bog'liq. Ovoz pardalari yuqori va pastda joylashgan bo'ladi. Yuqoridagi ovoz pardasi «soxta», pastdagisi esa «chin» ovoz pardasi deyiladi. Ayollarning hiqildog'i erkaklarnikiga qaraganda yuqoriroq, bolalarniki esa ayollarnikiga qaraganda yuqoriroqda joylashgan bo'ladi. Shuning uchun ovozlari past-baland bo'ladi. Inson erkin nafas olib, nafas chiqarganda ovoz chiqmaydi, chunki bunday vaqtda ovoz ravoqi erkin holda bo'ladi, ovoz pardalari taranglashmaganda deyarli harakatda bo'lmaydi. Ovoz ravog'ining toraya boshlashi bilan tovush chiqa boshlaydi. Jamoa bo'lib xorda qo'shiq aytishga moyil va qo'shiq aytish qobiliyatiga ega, ya'ni ma'lum ovoz kengligi (diapazoni), yoqimli tembrga, tiniq, lirik yoki dramatik, kichik yoki katta kuchlanishga ega bo'lgan ohangdor ovozlari xorga monand xonanda ovozlari deyiladi. Bu ovozlari quyidagi sifatlarni o'z ichiga oladi:

- yetarli diapazon;
- chiroyli tembr;
- ovoz kuchliligi;
- ovoz barqarorligi;
- ovoz chidamliligi.

Ovoz yumshoq, aniq va jarangdor bo'lsa bu ovoz tembrini yaxshi hisoblanadi. Ovoz tembrini tovush sifatini bildiradi. **Ovoz barqarorligi**

deb, ovozning qaltiramasligiga, har bir tovushni o'z balandligiga qarab cho'zib tura olish qobiliyatiga aytiladi.

Ovozning chidamliligi deb, kuylaganda tez charchamaslik, toliqib qolmaslik xususiyatlariga aytiladi.

Xor ovozlari to'rt guruhga bo'linadi:

- bolalar xori (diskont, alt);
- ayollar xori (soprano, metssa-soprano, alt);
- erkaklar xori (tenor, bas, boritan);
- aralash xor (erkaklar va ayollar ovozlari).

Lirik mayin ovozlari yumshoq bo'ladi. Dramatik ovozlari esa, kuchli, baquvvat bo'ladi.

Bolalarning vokal-xor ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish asosan qo'shiq kuylash va mashqlar ustida ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Diskant – bolalarning yuqori ovozi bo'lib, ularning diapazoni ($do_1 - fa_2$) «do» birinchi oktavadan «fa» ikkinchi oktavagacha bo'ladi.

Diskant, yengil, o'zgaruvchan, yumshoq bosh registrida yangraydigan ovoz ohanglari jarangdor, tembrli bo'lishi bilan birga, ba'zi hollarda mayin xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Alt-bolalarning pastki ovozi bo'lib, diapazoni ($Lya_k - Re_2$) kichik oktava «lya»dan ikkinchi oktava «re» gacha bo'ladi. O'qituvchi bolalar ovoz apparatining tuzilishi va ovoz xususiyatlarini bilish bilan birga, ularning ovozini rivojlantirish yo'llarini ham bilishi kerak. Bolalarga qo'shiq kuylash uslublarini to'g'ri o'rgatish uchun ovozlarni ehtiyot qilish va tarbiyalash malakalarini bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borishi lozim. O'qituvchi har bir o'quvchining o'z ovoziga xos jarangdorlik xususiyatini asrab qolish maqsadida, ularga zo'riqmay kuylash, ochiq ovozda baqirib kuylamaslik, ashulachilik holatiga amal qilib, partaga suyanib o'tirib, qo'llarni tizzaga, oyoqlarni yerga qo'yib, to'g'ri o'tirishni ta'kidlab o'rgatishi lozim. Bolalar ovozlari biror kamchilik sezilsa, buning sababini aniqlab, ota-onasi bilan maslahatlashib, mutaxassis shifokorga yuborishi lozim. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni vokal-xor malakalarining asosan, ovoz sozlash mashqlari va qo'shiq kuylash jarayonida shakllantirishi mumkin. Musiqa darslarida ovoz sozlash mashqlarining ahamiyati katta. Har bir mashq ma'lum maqsadda tanlanib, qo'shiq kuylashdagi nuqsonlarni bartaraf qilish va o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash va malaka hosil qilishi uchun xizmat qiladi. Musiqa darsida kuylanadigan mashqlarning

ko'pchilik qismi kompleks mashqlar bo'lib, bir vaqtning o'zida bir necha ko'nikmani amalga oshiradi. Masalan, nafas olish va sof intonatsiyada kuylash, diksiya (talaffuz) va nafas olish, soz va ansambl kabi mashqlar, qo'shiqni chiroyli, mayin, tantanavor kuylashga erishish bilan birga, o'quvchilarning ovoz apparatini shakllantirib, ko'nikma va malakalar hosil qiladi. Har bir mashqni kuylashda o'quvchilar diqqat-e'tiborini bir joyga to'plashga, kuylash holatiga e'tibor berib, muntazam ravishda rioya qilishga o'rgatib borish zarur. Dars davomida, ovoz sozlash jarayonida 3-4 mashq kuylatib, 5-7 daqiqadan ko'p sarflamaslik lozim. Chunki, bolalar charchab qolib, qo'shiq kuylash jarayonida talab darajasida qo'shiq kuylab berolmasliklari mumkin. Qo'shiq o'rgatish jarayoniga 15-17 daqiqa vaqt ajratib, keyin darsning boshqa faoliyat turlariga o'tish lozim.

Vokal-xor malakalari ustida olib boriladigan ish o'quvchilarning yoshiga, ovoz diapazoniga mos bo'lib, yil sayin asta-sekin takomillashib borishi zarur. Ovoz sozlashni asosan primar o'rta tovushlardan (sol¹, fa¹, mi¹) boshlash maqsadga muvofiqdir. Ovoz sozlashda ham boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali va amaliy metodlarning ahamiyati katta. Nafasni to'g'ri olib kuylash mashqlarini bajarishda birinchi navbatda nafas shovqinsiz, yelkarni ko'tarmasdan, ohista, shoshilmay, burun bilan olish, nafasni chiqarishda esa tejab, nafasni musiqiy jumlaning oxirigacha yetkazishga ko'nikma hosil qildirish kerak. Qo'shiqning qaysi joylarida nafas olishni o'quvchilarga tushuntirib, ko'rsatib berish kerak. To'g'ri talaffuz (diksiya)ga erishish uchun esa, lab harakatlarini rivojlantirish uchun ovoz sozlash mashqlarida og'iz ochish qoidalarga rioya qilish talab etiladi. Undosh harflar «R», «D», «G», «M», «N» kabilarni aniq va burro kuylash kerak. Unli «O», «U», «A», «I» harflarini cho'zib og'iz shaklini o'zgartirib, yumaloq qilib, mayin ohista kuylash malakalari singdiriladi. Qo'shiqlardagi intonatsion qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun turli bo'g'inlarda (lya, mi, du, na) kuylatib, ohangi xotirada saqlab qolinadi va yumshoq ovozda kuylaganda sof intonatsiyaga erishishga o'rgatiladi.

Ansambl hosil qilish uchun esa, ovozlarni bir-birini eshitib kuylashga, biror ovoz boshqasidan ajralib qattiq kuylamasligi, balki ahil bo'lib, bir-birini hurmat qilib, sekin-asta, bir ovozda, baravar talaffuz qilib, nafas olishga o'rgatiladi. Keyinchalik esa, 2, 3, 4-

sinflarda ikki ovozli elementlari bor qo'shiqlarni o'rganish malakalari singdiriladi. Ikki ovozli mashqlarni «aks-sado», «kanon», «parallel tersiya» kengligida, yoki bir ovoz notani cho'zib turishi, boshqa ovoz qo'shiq so'zlarini kuylashi kabi mashqlar bilan o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Har bir ovoz bilan ishlaganda uzoq kuylamaslik kerak, chunki boshqa ovoz kutib, zerikib qoladi va kutilgan natijaga erishilmaydi. Har bir mashqni bolalar bilan kuylaganda, me'yorga amal qilib ma'lum vaqt belgilab olish zarur. Vokal-xor mashqlarini o'rganishdan maqsad chiroyli, ifodali kuylashga, sof intonatsiyada, tekis, ravon, jarangdor, yoqimli kuylashga o'rgatish, qo'shiq mazmunini va ma'nosini oldin o'zlari anglab, ma'naviy oziqa olib, keyin atrofdagilar, tinglovchilarga ma'naviy oziqa berish, ularni odobli va aqlli, yaxshi inson bo'lishlikka undash, tabiatga, ona-Vataniga mehribon, fidoyi va komil inson bo'lib yetishishiga madad berishdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar


1. *O'quvchilar ovozlarni saqlash va tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?*
2. *Insonning ovoz apparati qanday tuzilgan?*
3. *Ovozlar qanday sifatlarni o'zida mujassam etadi?*
4. *Bolalar ovozi necha guruhga bo'linadi va ularni tavsiflab bering.*
5. *Xor ovozlari necha guruhga bo'linadi?*
6. *Ovoz sozlashda qanday mashqlardan foydalaniladi?*
7. *Qo'shiq kuylashdagi nuqsonlar qanday bartaraf etiladi?*
8. *Qo'shiq ustida ishlashdan maqsad nima?*



OVOZ SOZLASH UCHUN MASHQLAR


To'g'ri nafas olish uchun mashqlar

1.




Du du du qan-day gul bu, Du du du qan-day gul bu?

2.




Of - tob chiq - di o - lam - ga, Cho - pib bor - dim xo - lam - ga

3.



Oq pax - ta, op - poq pax - ta biz - ning fax - ri - miz.


4.




Yu - qo - ri - dan past to - mon tush - dik bir zum - da,
Past - dan yu - qo - ri to - mon chiq - dik o - his - ta.

Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar

5.




Qo'n - g'i - roq cha - lin - di, Ji - ring, ji - ring, ji - ring.




Dars - ga vaqt - li - roq ki - ring, ki - ring, ki - ring.

6.




Du - du - du - du sur - nay - cha, du - du - du - du - du,




Ko'm - ko'k bog' - da sur - nay - cha yang - ray - di, du - du.

7.



Dra - de - dri - dro - dru Dru - dre - dri - dro - dru.


8.



Din - don din - don di - li di - li di - li - don.

Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar

9.




Mi - i - i - ya - ya - a mi - i - i - i - ya - ya - a

10.



Ba be bi bo bi bo bu Ba be bi bo bi bo bu

11.



Da de di do du Da de di do du Da de di do du

12.



Mi i i i ya ya ya ya ya ya a

13.



Do re mi fa sol lya si do do si lya sol fa mi re do

14.

Notalarning nomi bilan kuylash uchun mashqlar



Ikki ovozda kuylash uchun mashqlar


15.



16.



17.



O'y - nay - miz baxt - li za - mon - da,
kuy - lay - miz

2.8. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darslarini rejalashtirish

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Musiqa predmetiga Davlat Ta'lim Standartining joriy etilishi, milliy, musiqiy merosimizdan foydalanishni hamda hududiy vohalar san'ati va madaniyati, u yerdagi mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topgan. Shuningdek Ta'lim Standarti o'zining tuzilishiga va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda (1–7) sinflar uchun yangi dastur tuzildi. Dastur asosida darsliklar, metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratilmoqda. Yetti yillik musiqa o'qitish davrida o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Yangi dastur asosida musiqa madaniyati darslarini sifatli, pedagogik va metodik jihatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun o'qituvchi ijodkor, o'z kasbini va o'quvchilarni sevuvchi, yaxshi cholg'uchi, metodikani puxta o'zlashtirgan inson bo'lishi kerak. Musiqa ta'limining milliy asosi tarkib topishida fortepyano asbobi bilan birgalikda, o'zbek xalq cholg'u asboblardan ham foydalana olishi zarur. Shuningdek, o'zbek xalq musiqa merosimizning tarixi va hozirgi kun talablarini kuzatib, o'rganib borishi shart. Chunki, maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda «Musiqa madaniyatini» tarkib toptirishdir. Musiqa o'qituvchisi darslarga mavzularni tanlab rejalashtirishda ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan ham foydalanishi kerak.

O'qituvchi umumiy ta'lim maktablarida jumladan, boshlang'ich (I–IV) sinf musiqa fani bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Chunki, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limi poydevori qo'yiladi va shakllanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, har bir darsga ijodiy yondoshib, yangi dastur talablariga muvofiq dars o'tish lozim. Musiqa fanidan bir yilda 2 marta yarim yillik taxminiy mavzuli ish rejasi va shunga qarab, har bir dars uchun reja-konspekt tuziladi. Yarim yillik ish rejasi boshlang'ich va o'rta sinflar uchun alohida-alohida tuziladi. Bunda o'quvchilarning yoshi (sinf), ovoz diapazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasllari, bayramlar,

yil, chorak dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars strukturasi asosida tuziladi. Ba'zi qo'shiqlarni tinglash uchun o'qituvchi o'quvchilar istagi va yangi zamonaviy qo'shiqlar bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o'zgartirishi mumkin. Musiqa darslari asosan bir haftada bir soat o'tiladi. O'quv yili davomida esa quyidagi tartibda:

I chorak — 9 soat

II chorak — 7 soat

III chorak — 10 soat

IV chorak — 8 soat

Jami bir yilda 35 soat dars o'tiladi.

Shuningdek, har bir o'quv yilida 12–14 ta qo'shiq o'rgatiladi, shunga qarab, musiqa savodi va musiqa tinglash jarayonida 12–14 ta asarlar tinglanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan, bir ovozli qo'shiqlarni sof unisonda kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradi va ayrim hollarda ko'p ovozlikka o'tishga tayyorgarlik ko'riladi.

Ikkinchi sinfning ikkinchi yarmidan boshlab, ikki ovozlik elementi bor qo'shiqlar kiritilgan. III — IV sinflarda o'quvchilarni ovoz apparatlari shakllangan bo'lib, ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Shunga ko'ra oddiydan murakkabga prinsipi asosida musiqaviy asarlar tanlanadi. Boshlang'ich sinfda dars strukturasi beshta faoliyat turidan iborat bo'ladi:

- xor bo'lib kuylash;
- musiqa savodi;
- musiqa tinglash;
- musiqa xarakteriga mos harakatlar bajarish;
- bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.

O'rta (V–VII) sinflarda esa, dars faoliyati birmuncha kamayadi. Chunki, o'rta sinf o'quvchilari ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Dars mazmuni chuqurlashib, o'quvchilar bilim va malakalarining kengayishiga xizmat qiladi. Musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

- xor bo'lib kuylash;
- musiqa savodi;
- musiqa tinglash.

Bunda bolalarning ovoz apparatlari shakllangan, musiqiy qobiliyatlari rivojlangan, musiqaning tuzilishi, shakli, musiqa ifoda

vositalari haqida bilimga ega bo'ladilar va musiqa tinglash qobiliyati rivojlangan bo'ladi. O'rta sinfdagi o'quvchilar uchun V –VII sinf musiqa dasturi asosida ikki ovozli ovoz mashqlari, darslar rejalashtirilib ikki ovozli qo'shiqlar, musiqa savodi va musiqa tinglash shunga qarab murakkabroq asarlar tinglanadi. Har bir faoliyat bir-biri bilan bog'liq bo'lib, dars mazmunini, ya'ni bir butunlikni ta'minlaydi. Chorak mavzulari yil mavzulariga buysunadi. Dars samaradorligini oshirishda o'quvchilarning bilim va malakalarini baholash muhim pedagogik ahamiyatga egadir. Qo'shiq kuylash bilan birga, ularni ko'proq fikr bildirish, bahsga tortish va amaliy faoliyatiga ko'proq jalb etish va odilona baholash lozim bo'ladi. Shunday qilib, musiqa darslari yangi dastur asosida rejalashtirilib, o'quvchilarda milliy musiqamizga mehr-muhabbat va qiziqish uyg'otishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Boshlang'ich sinflarda va o'rta sinflarda dars faoliyati nechta bo'ladi?
2. Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?
3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimadan iborat?
4. Musiqa madaniyati darslarida qanday musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?
5. Musiqa darslarining ilmiyligi va zamonaviyligi deganda nima nazarda tutiladi?
6. Musiqa darslari bir yilda, bir chorakda, bir haftada necha soatdan o'tiladi?
7. Taqvim mavzuli reja bir yilda necha marta tuziladi va nimalar e'tiborga olinadi?

2.9. Taqvim – mavzuli rejalarning tuzilishi

1-SINF. YIL MAVZUSI: BIZ MUSIQANI SEVAMIZ 1-CHORAK: BIZ YOQTIRGAN KUY VA QO'SHIQLAR

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqqa savodi	Musiqqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1	O'quvchilar bilan "Qo'g'irchog'im", "Non yopganda", "Shamol, shamol" qo'shiqlarini xor bo'lib kuylash. O'zbek xalq qo'shiqlari bilan tanishtirish.	Ashulachilik holati va nafasni to'g'ri olishga o'rgatish.	Musiqqa xonasidagi cholg'u asboblari bilan tanishtirish.	"O'zbekiston Davlat Madhiyasi" M.Burxonov mus. A.Oripov she'ri. Musiqqa tinglash jarayonida o'quvchilarning o'zini tutishi haqida ma'lumot.	Qo'shiq, raqs, marshga doir harakatlar bajarish	-----	1
2	O'tgan darsda o'rgatilgan "Shamol, shamol" qo'shig'ini oxirigacha o'rgatish. Intonatsiyasi ustida ishlash.	Talaffuz ustida ishlash. "Oltob chiqdi olamga" mashqini kuylatish.	Baland, past tovushlar haqida ma'lumot.	"Marsh" S.Abramova musiqasi.	"Marsh" ostida harakatlar bajarish	-----	1
3	"Baxtli erkato'y" T.Toshmatov musiqasi. X. Muhammad she'ri.	Unli tovushni yumaloq ovozlilar bilan kuylash. Da-de-di-do-du.	Uzun-qisqa tovushlarni ajratish.	"Chamanda gul" O'zbek xalq qo'shig'ini o'rganish	Raqsga mos harakatlar bajarish	-----	1
4.	Qo'shichni to'liq o'rgatish badiiy ijrosiga erishish.	Erkin va ravon kuylash uchun mashq kuylash.	"Registr" haqida ma'lumot.	"Chertmak" O'zbek xalq musiqasi	Raqsga va marshga mos harakatlar	-----	1

5.	“Kichkintoyimiz-gijingtoyimiz”. K.Kenjayev musiqasi, P.Mo'min she'ri.	Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash.	Kuy haqida ma'lumot.	“Jamalagim” D.Zokirov musiqasi, “Dilxiroj” O'zbek xalq kuyi	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	-----	1	
6.	Qo'shiqni 2-kupletini o'rgatish, badiiy ijroga erishish.	Ansabl ustida ishlash.	Kuyning grafik chiziqlari bilan tanishtirish.	“Jamalagim” D.Zokirov musiqasi “Dilxiroj” O'zbek xalq kuyi	“Chertmak” kuyiga mos harakatlar bajarish	-----	1	
7.	“Kuz” S.Abramova musiqasi N. Ro'zimuhamedov she'ri.	Ravon va tekis ovoz hosil qilish uchun mashqlar.	Skripka kaliti haqida ma'lumot.	“Andijon polkasi” O'zbek xalq kuyi.	Qo'shiq va raqsga mos harakatlarni o'rgatish	-----	1	
8.	Qo'shiqni to'liq o'rgatish, badiiy ijroga erishish.	Talaffuz ustida ishlash.	Nota yo'llari bilan tanishtirish.	“Andijon polkasi” O'zbek xalq kuyi	Marsh, raqs kuylariga mos harakatlar bajarish	-----	1	
9.	CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH						-----	1

1-SINF. 2-CHORAK: MUSIQALI – RITMIK O'YINLAR, RAQS VA QO'SHIQLAR

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiq savodi	Musiq tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari bilan tanishtirish	Belgilangan soat
1.	“Ayiqpolvonlar bog'chasi” T.Toshmatov musiqasi, H.Muhammad she'ri	Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar.	Kompozitor haqida ma'lumot	“Marsh” S.Abramova musiqasi. Janr haqida ma'lumot	“Ayiqpolvonlar bog'chasi” qo'shig'iga mos harakatlar bajarish.	Bolalarni cholg'u asboblari bilan tanishtirish	1

2.	Qo'shiqni sof intonatsiyaga erishib kuylash	Talaffuzga xos mashq kuylash.	Ijrochi haqida ma'lumot	“Oq terakmi-ko'k terak” xalq qo'shig'i	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish.	Bolalar cholg'u asboblarning turlari	1
3.	“Yangi yil archasi” A.Berlin mus. Abdushukurova she'ri	Nafasni to'g'ri olib, rejalab kuylash uchun mashqlar.	Tinglovchi haqida ma'lumot	“Jamalagim” kuyiga mos harakatni bajarish	Raqs harakatlarini bajarish.	Kuyga uchburchak cholg'u asbobida jo'r bo'lish	1
4.	Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish. Dinamik belgilar ustida ishlash.	Unli tovushlarni cho'zib kuylash	Mayin yumaloq ovozda kuylash	“Jamalagim” O'zbek xalq kuyi. D.Zokirov f-no uchun moslashtirgan	Raqs harakatlarini bajarish.	Kuyga chapak chalib jo'r bo'lish	1
5.	“Yangi yil archasi” qo'shig'ini to'liq o'rgatish. qo'shiqning badiiy ijrosiga erishish.	Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashq	Qo'shiq, raqs, marsh haqida ma'lumot	“Qo'zichog'im – o'yinchoq” kuyini tinglash	“Jamalagim” kuyiga mos harakatlar bilan raqsga tushish	Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish	1
6.	“Nisholda” D.Omonullayeva musiqasi, R.Tolipov she'ri.	Yengil, jonli, jozibali qilib mashqlar kuylash	“Raqs” janri haqida suhbat	Tinglangan asarni aniqlash “Raqs”.	“Laylak qor” qo'shig'iga mos harakatlar bajarish	Uchburchakda jo'r bo'lish	1
7.	“Nisholda” qo'shig'i surati ustida ishlash. Sof intonatsiyaga erishish.	Sof unisonga erishish uchun mashqlar kuylash	Lad haqida ma'lumot	“Qo'g'irchog'im” S.Abramova musiqasi	Marshga mos harakatlar bajarish	Uchburchakda jo'r bo'lish	1

1-SINF. 3-CHORAK: MUSIQA OLAMIGA SAYOHAT

Belgilangan vaqt	O'rgatiladigan qo'shiqlar nomi va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqa savodi	Musiqa tinglash	Musiqa mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"Laylak qor" S.Abramova musiqasi, Y.Is'hoqov she'ri	Sof intonatsiyaga va diksiyaga erishish uchun mashqlar	Major va minor ladi bilan tanishtirish	"Qorda o'yin" S.Abramova musiqasi	"Marsh" musiqasiga mos yengil qadam tashlash	"Laylak qor" qo'shig'iga uchburchakda jo'r bo'lish	1
2.	Qo'shiqni to'liq o'rgatish va badiiy ijrosiga erishish.	Nafas olish ustida ishlash	Skripka kalitining joylashishi.	"Dutor bayoti" O'zbek xalq kuyi	Qo'shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish	Doira va uchburchakda jo'r bo'lish	1
3.	"Etikcham" D.Omonullayeva musiqasi, P. Mo'min she'ri.	Tovushqatorni barmoqlar yordamida ko'rsatib kuylash	Sol notasining joylashishi, notalar nomini rebusda tuzish	"Dutor bayoti" kuyiga jo'r bo'lish	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	Chapak va doirachalarda "Hazil" musiqasi asariga jo'r bo'lish	1
4.	"Etikcham" qo'shig'ini to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish.	Mayin va ravon ovoz hosil qilish	Mi notasining joylashishi	O'zbek cholg'u asbobi "Dutor" haqida ma'lumot berish	Qo'shiqni harakatlar bilan ijro etish	Chapak bilan baraban cholg'u asbobida jo'r bo'lish	1
5.	"Diloromning qo'shig'i" D.Omonullayeva musiqasi, I.Donish she'ri.	Undosh tovushlarni qisqa, unli tovushlarni cho'zib kuylash	Si notasining joylashishi	"Olmacha anor" O'zbek xalq kuyi	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	Chapak bilan baraban cholg'u asbobida jo'r bo'lish	1
6.	Qo'shiqni to'liq o'rgatish va badiiy ijrosiga erishish.	Chiziq ustidagi notalarni kuylash (mi, sol, si)	Fa notasining joylashishi	"Chitti gul" O'zbek xalq kuyi	Qo'shiq ostida harakatlar bajarish	Raqsga mos cholg'u asboblari jo'r bo'lish	1

64

7.	"Buvijonim" Y.Suyarov she'ri D.Omonullayeva mus.	Yengil, jonli, jozibali qilib mashq kuylash	Lya notasining joylashishi	"Chamanda gul" O'zbek xalq kuyi	Raqsga mos harakatlar bajarish	Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish	1
8.	Qo'shiqning 2-kuple-tini o'rgatish	Nafasni rejaga solish uchun mashq	Do 2-notasining joylashishi	"Navro'z" O'zbek xalq kuyi	Raqsga mos harakatlar bajarish	Raqs kuyini ifodalay ijro etish	1
9.	Qo'shiqning badiiy ijrosiga erishish	Tovushqatorini mayin va ravon qilib barmoqlar yordamida kuylash	Do notasining joylashishi	"Navro'z" O'zbek xalq kuyi	"Navro'z" kuyiga mos harakatlarni bajarish	Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish	1
10.	CHORAK DAVOMIDA O'ILGANLARNI TAKRORLASHI						1

1-SINF. 4-CHORAK: XUSHNAVO MILLIY CHOLG'ULARIMIZ

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqa savodi	Musiqa tinglash	Musiqa mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"Qadim Turon" N.Norxo'jayev musiqasi P.Mo'min she'ri	Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar	Tovushqator bilan to'liq tanishtirish	"Bahor valsi" M.Mirzayev musiqasi "Olmacha anor" o'zbek xalq kuyi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Rumba, doiracha va uchburchakda jo'r bo'lish	1
2.	Qo'shiqni to'liq o'rganish va badiiy ijrosiga erishish	Talaffuz ustida ishlash	Rebuslar tuzish	"Bahor valsi" M.Mirzayev musiqasi	Valsga mos harakatlar bajarish	Uchburchakda jo'r bo'lish	1
3.	"Kapalak" S.Boboyev musiqasi Z.Diyor she'ri	Sof unisonga erishish uchun mashqlar	Repriza haqida ma'lumot	"Dutor bayoti" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Baraban, doiracha, shiqildoqda jo'r bo'lish	1

65

4.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijroga erishish	Nafasni yo'lga qo'yish uchun mashqlar	Notalarni bo'linishi va sanalishi	"Dutor bayoti" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	1
5.	"Bolalar va g'ozlar" N. Najmiddinov musiqasi	Unli tovushlarni cho'zib, undosh tovushlarni uzib kuylash	Nuqtali notalar haqida ma'lumot	"Dilxiroj" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Rumba va doirachada jo'r bo'lish	1
6.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijroga erishish	Erkin va ravon kuylash uchun mashqlar	Pauzalar bilan tanishtirish	"Dilxiroj" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish	Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish	1
7.	"Oy bo'lamiz-toy bo'lamiz" X. Rahimov mus., S. Barnoyev she'ri	Ansambl va soz ustida ishlash	Pauzalarning bo'linishi va sanalishi	"Chertmak" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos chapak harakatlarini bajarish	Rumba va doirachada jo'r bo'lish	1
8.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijroga erishish.	Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar	Notalar va pauzalar haqidagi ma'lumotlarni mustahkamlash	"Chertmak" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos raqs harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	1

2-SINF

YIL MAVZUSI: IJROCHILIK TURLARI. MUSIQA IFODA VOSITALARI
1-CHORAK: YAKKANAVOZLIK, JO'RNAVOZLIK VA JO'RSOZLIK

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqqa savodi	Musiqqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"O'zbekiston Davlat Madhiyasi" M. Burxonov, A. Oripov she'ri	Salom bolalar mashqini kuylash	F-no va rubob asboblari haqida ma'lumot	O'tilgan qo'shiqlarni eslash, yozgi ta'til haqida suhbat	"Andijon polkasi" kuyiga mos harakatlar bajarish	-----	1
2.	"O'zbekiston Davlat Madhiyasi"ni ifodalaydigan tantanavor qilib kuylashga o'rgatish	Tekis va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash	Qo'shiq, raqs, marsh janrlari bilan tanishuv	Ushbu janrlarga mos kuy ijro etish	Marshga mos qadam tashlash	-----	1
3.	"Oppoq qantim" F. Nazarov musiqasi, P. Mo'min she'ri	"Oltob chiqdi olamga" mashqini kuylash	Qo'l harakatlari yordamida mayin va osoyishta kuylash	"Futbolistlar" S. Abramova musiqasi	Marshga mos harakatlar bajarish	Barabanda qo'shiq, doirachada jo'r bo'lish	1
4.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish	"Yuqoridan past tomon tushdik ohista" mashqini kuylash	Scripka kaliti, nota yo'llari bilan tanishuv	"Polka" M. Glinka musiqasi	"Polka"ga mos harakat bajarish	Uchburchak cholg'u asbobida jo'r bo'lish	1
5.	"Humo qushim" D. Omonullayeva musiqasi, X. Muhammad she'ri	"Do major" tovush qatorini kuylash	Sol kaliti va chiziq ustidagi notalar bilan tanishuv	"Dutor bayoti" O'zbek xalq musiqasi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	1

6.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Dinamik belgilari ustida ishlash	Intonatsiyaga doir mashqlar kuylash	Chiziq orasidagi notalar bilan tanishuv	O'zbek xalq cholg'u asboblari eslash	O'zbek raqsi harakatlarini bajarish	-----	1
7.	"Xakkalar" N.Norxo'jayev musiqasi. N.Oriifonov she'ri.	Sof'unison ustida ishlash	Kompozitor haqida ma'lumot, notalar nomiga rebus tuzish	"Oromgoh" O'zbek xalq kuyi	"Xakkalar" qo'shiq'iga mos harakatlar bajarish	Metalatonda jo'r bo'lish	1
8.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish.	Diksiyaga mos mashqlar kuylash	Grafik chizmalarga qarab qo'l harakati yordamida yuqori va pastga kuylash	Raqs, marsh, qo'shiq kuylarini tinglash	Raqsga mos harakatlar bajarish	-----	1
9.	CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH						1

2-SINF. 2-CHORAK: YAKKANAVOZLIK VA YAKKAXONLIK. CHOLG'U VA XONANDALAR DASTALARI

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqqa savodi	Musiqqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"Paxtaoy" F.Nazarov musiqasi, T. Ilhomov she'ri	Erkin, mayin, ovozda mashqlar kuylash	Turg'un tovushlar	O'zbek xalq kuylari haqida suhbat	"Dutor bayoti" O'zbek xalq kuyiga mos harakatlar bajarish	Doirachada jo'r bo'lish	1
2.	Qo'shiqni to'liq o'rganish	Intonatsiya ustida ishlash	Tovush qatoridagi turg'un bo'lmagan tovushlar	"Durdona" Azimov musiqasi	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	1
3.	"O'ynangchi tipratikon" N.Norxo'jayev musiqasi P.Mo'min she'ri	Nafasni rejaga solish uchun mashq	Sol notasining joylashishi	"Cho'li iroq" O'zbek xalq kuyi	Tinglangan asarni tasvirlash, kuyga mos harakatlar bajarish	Doirachada jo'r bo'lish	1

4.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish.	Uzib-uzib kuylashni o'rganish	Mi-sol-si notalarini joylashishi	"Cho'li iroq" O'zbek xalq kuyi	Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish	Uchburchakda jo'r bo'lish	1
5.	"Yangi yilim – yaxshi yilim" D.Zokirov musiqasi, P.Mo'min she'ri	Legatto va stakatto kuylash	Fa, Iya, do notalarini ijro etish	"Usmoniya" O'zbek xalq kuyini tinglash	Kuyga mos harakatlar bajarish	Chapachalib jo'r bo'lish	1
6.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish	Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar	Yordamchi chiziqdagi notalar bilan tanishtirish	"Usmoniya" O'zbek xalq kuyini tinglash	Kuyga mos harakatlar bajarish	Uchburchakda jo'r bo'lish	1
7.	CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH						1

2-SINF. 3-CHORAK: DASTA TURLARI. KUY NIMA? KUYDA NIMALAR IFODALANADI?

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiq nomlari va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqqa savodi	Musiqqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"Qish chog'lari" F.Nazarov musiqasi, P.Mo'min she'ri	Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar	Sol kalitining joylashishi haqida ma'lumot	"Quvnoq doira" M.Glinka musiqasi	Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish	-----	1
2.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Zatakt, talaffuzi ustida ishlash	Tovushlar qatorini legatto va stakattoda kuylash	Sol, si, mi notalarining joylashishi	"Quvnoq doira" M.Glinka musiqasi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish	1
3.	Qo'shiqning badiiy ijrosiga erishish	Nafasni rejalarab ishlatish uchun mashqlar	Notalarni barmoqlar yordamida kuylash	"Durdona" T.Azimov musiqasi	Kuyga mos chapachalish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	1
4.	"Inoq o'ynaymiz" F.Nazarov musiqasi, G'.Komilov she'ri	Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylash	Fa, Iya, do notalarining joylashishi	"Durdona" T.Azimov musiqasi	Kuyga mos chapachalish	Doirachada jo'r bo'lish	1

5.	Qo'shiqni to'liq o'rgatish	Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash	Notalarga rebus tuzish	"Chaman ichra" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish	Uchburchakda jo'r bo'lish	1
6.	"Nevaralar qo'shig'i" N.Norxo'jayev musiqasi S.Barnoyev she'ri	Ikki ovozli mashqlar kuylash	Tovushqatoridagi notalarni barmoqda ko'rsatish	"Chaman ichra" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish	1
7.	Qo'shiqni to'liq o'rganish	"Pastdan yuqori tomon" mashqini qo'l harakati bilan kuylash	Qo'shiq, raqs, marsh janrlarni eslash	"Marsh" F.Nazarov musiqasi	Musiqaga mos qadam tashlash	-----	1
8.	Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishib kuylash	Ansambлга erishish uchun mashq kuylash	Qo'shiq haqida ma'lumot	"Marsh" F.Nazarov musiqasi	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	Doirachada va shiqildoqda jo'r bo'lish	1
9.	"Qo'shig'imiz avjida" T.Azimov musiqasi, G'.Komilov she'ri	"Chitti gul" qo'shig'ini kuylash diksiyaga erishish	Raqs haqida ma'lumot	"Chitti gul" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari da jo'r bo'lish	1
10.	Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish	CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH					1

2-SINF. 4-CHORAK: MUSIQA IFODA VOSITALARI

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiq nomlari va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqqa savodi	Musiqqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari da jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"Kichkintoy gulchimiz" K.Abdullayev musiqasi X.Yoqubov she'ri	Erkin va mayin ovozda mashqlar kuylash	Lad haqida ma'lumot	"Bahor valsi" M.Mirzayev mus. tinglab fikr bildirish	Valsga mos harakatlar bajarish	Chapchalib jo'r bo'lish	1
2.	Qo'shiq talaffuzi ustida ishlash	Nafasni rejaga solish uchun mashqlar kuylash	Major ladi haqida ma'lumot	"Bahor valsi" M.Mirzayev mus.	Valsga mos harakatlarni mustahkamlash	Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish	1
3.	Qo'shiqning badiiy ijrosiga erishish	Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash	Minor ladi haqida ma'lumot	"Olmani otdim" musiqasini tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Doiracha va uchburchakda jo'r bo'lish	1
4.	"Muzqaymoq" A.Mansurov musiqasi X.Qayumov she'ri	Nafasni rejaga solish uchun mashqlar kuylash	"Tembr" haqida ma'lumot	"Qo'shiq va raqs" F.Nazarov musiqasi	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	Doiracha va uchburchakda jo'r bo'lish	1
5.	Qo'shiqning naqorati ustida ishlash	Tovushqatorni barmoqlar yordamida kuylash	"Re'riza" haqida ma'lumot	"As' bo'laman" O'zbek xalq kuyi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Shiqildoq va rubobda jo'r bo'lish	1
6.	"G'ildiragim" Sh.Yormatov musiqasi T.Bahromov she'ri	Artikulatsiya apparatini ishga solib mashqlar kuylash	Dinamik belgilar bilan tanishtirish f-forte-pyano	"Vals"- "Mahallada duv-duv gap" filmidan	Valsga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari da jo'r bo'lish	1
7.	Qo'shiqning sof intonatsiyaga badiiy ijrosiga erishish	Ikki ovozli mashqlar kuylash	kreshchendo va diminuendo haqida ma'lumot	"Chamanda gul" O'zbek xalq kuyi	Raqsqa mos harakatlar bajarish	Uchburchak, rumba, doirachada jo'r bo'lish	1
8	CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH						1

3-SINF. YIL MAVZUSI: MUSIQADA SHAKL VA MAZMUN
1-CHORAK: MUSIQANING TUZILISHI

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiq nomlari va mualliflari	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqqa savodi	Musiqqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"O'zbekiston Davlat Madhiyasi" A.Oripov she'ri, M.Burxonov musiqasi	Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashq	2-sinfda o'tilganlarni takrorlash	"Oimacha anor" O'zbek xalq kuyi	Raqsga mos harakatlar bajarish	-----	1
2.	Qo'shiq intonatsiyasi ustida ishlash, tantanavor va mardona ijro etish	Stakatto va legattoga ovoz sozlash	Notalarning bo'linishi, ladlar, janrlar haqida ma'lumot	"Jonon" M.Mirzayev musiqasi	Marshga mos harakatlar bajarish	-----	1
3.	"Salom bergan bolalar" P.Mo'min she'ri N.Norxo'jayev musiqasi	Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar	Kuplet shakli bilan tanishtirish	M.Mirzayev hayoti va ijodi bilan tanishtirish	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	Kuyga shiqildoq, uchburchak va doirachada jo'r bo'lish	1
4.	Qo'shiqni to'liq o'rganish, Badiiy ijroga erishish	Tovushqatorni barmoq bilan ko'rsatish	Repriza haqida ma'lumot	"Marsh" janrini eslatish	Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish	Rumba va marakassada jo'r bo'lish	1
5.	"Bir jahon bolalarimiz" P.Mo'min she'ri K.Kenjayev mus.	Nafas kengligiga mos qilib kuylash	O'lchov 2/4,3/4 haqida ma'lumot	"Bayram marshi" D.Zokirov musiqasi	Marshga mos harakatlar bajarish	Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish	1
6.	Intonatsiya ustida ishlash, Qo'shiqning badiiy ijrosiga erishish	Bir notada sof intonatsiyaga erishish	Mustahkamlash	D.Zokirovning hayoti va ijodi, "Bayram marshi"	Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish	Doirachada jo'r bo'lish	1

7.	"Oy vatanim" P.Mo'min she'ri Sh.Yormatov musiqasi	Nafasni rejaga solish uchun mashq	Pauza haqida ma'lumot	"Jamalagim" D.Zokirov mus	Pauzali asarlarni tinglab harakatlar bajarish	Doirachada jo'r bo'lish	1
8.	Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijroga erishish	Artikulatsiya apparatini ishga solib kuylash	Pauzalarning bo'linishi	"Rohat" O'zbek xalq kuyi	Raqs harakatlarini bajarish	Rumba va marakassada jo'r bo'lish	1
9.	CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH						1

3-SINF. 2-CHORAK: «XOR VA ORKESTR»

Belgilangan vaqt	O'rgatilgan qo'shiq nomi va muallifi	Ovoz sozlash uchun mashqlar	Musiqqa savodi	Musiqqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	Belgilangan soat
1.	"Ochil paxtajon" P. Mo'min she'ri M. Burxonov musiqasi	Mayin va ravon ovoz hosil qilish	Takt chizig'i haqida ma'lumot	"Rohat" O'zbek xalq kuyi	Tinglangan asarga mos raqs harakatlarini bajarish	Uchburchak va doirada jo'r bo'lish	1
2.	Qo'shiqning ritmik usuli ustida ishlash, Badiiy ijrosiga erishish	Nafasni to'g'ri olish uchun mashq	Kuchli va kuchsiz hissalar haqida ma'lumot	"Boychechak" "Polvonim" Qambar ota she'ri, M.Otajonov musiqasi	Qo'shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish	Doirachada, qo'shiq va shiqildoqda jo'r bo'lish	1
3.	"Qo'zichog'im o'yinchoq" P.Mo'min she'ri A.Mansurov musiqasi	Talaffuz uchun mashqlar kuylash	Notalarning joylanishi	Xor haqida ma'lumot, Xor ijrosida qo'shiq matnlash	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	Cholg'u asboblari jo'r bo'lish	1
4.	Qo'shiqni to'liq o'rganish, Ritmik usuli ustida ishlash	"Oftob chiqdi olamga" mashqini kuylash	Notaga qarab tovushlarni kuylash	Xordagi ovozlar haqida ma'lumot	Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish	Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish	1

5.	“Qish chog‘lari” P.Mo‘min she‘ri F.Nazarov mus.	“O‘ynaymiz kuylaymiz baxtli zamonda” mashqni kuylash	Temp haqida ma‘lumot	Orkestr haqida ma‘lumot. “Hosil to‘yi” bayrami	Qo‘shiqqa mos harakatlar bajarish	Doirachada va uchburchakda jo‘r bo‘lish	1
6.	Qo‘shiqni to‘liq o‘rgatish. Dinamik belgilariga ahamiyat bergan holda badiiy ijro etish	Talaffuz uchun mashq	Ritm haqida ma‘lumot	Orkestr turlari. Orkestr ijrosida “Jazoir” asarini tinglash X.Abdurasulov musiqasi	Kuyga mos harakatlar bajarish	Doirachada va uchburchakda jo‘r bo‘lish	1
7.	Chorak davomida o‘tilganlarni takrorlash						1

3-SINF. 4-CHORAK: ODDIY MUSIQA SHAKLLARI. BAND VA NAQORAT

Belgi- langan vaqt	O‘rgatilgan qo‘shiq nomlari va mualliflari	Ovoz sozlash tchun mashqlar	Musiqa savodi	Musiqa tinglash	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lish	Belgi- langan soat
1.	“Gullar mening kulganim” P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi	Sol intonatsiya va ansambl hosil qilish uchun mashq	Dinamika belgilari haqida ma‘lumot	Musiqa shakllari haqida ma‘lumot. Qo‘shiqni ifodali ijro etish	Qo‘shiqqa mos harakatlar bajarish	-----	1
2.	Qo‘shiqni to‘liq o‘rgatish Diksiya ustida ishlash	Ikki ovozli mashqlar kuylash	Piano r Forte f	“Farg‘onacha tanovor” o‘zbek xalq kuyi	Raqs harakatlarini bajarish	Uchburchak, marakassa jo‘r bo‘lish	1
3.	“Chumoli va nor” M.Qahhorov she‘ri, A.Mansurov musiqasi	Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashq	Metsso piano mr	Band va naqorat haqida ma‘lumot qo‘shiq tinglash	Chapak chalib jo‘r bo‘lish	-----	1

4.	Qo‘shiqni to‘liq o‘rgatish. Talaffuz ustida ishlash	Undosh tovushlarni dona- dona qilib kuylash	Kreshcendo va diminuendo haqida ma‘lumot	“Quvnoq bolalar” X.Muhammad she‘ri A.Mansurov mus.	Musiqaga mos harakatlar bajarish	Uchburchak va doirachada jo‘r bo‘lish	1
5.	“Yalpiz” Qambar ota she‘ri L.Mujdaboyeva musiqasi	Mayin va ravon ovoz hosil qilish	Dinamika belgisini musiqa asarlardagi o‘rni	“Rondo” shakli haqida ma‘lumot	Raqs harakatlarini bajarish	-----	1
6.	Qo‘shiqni jozibali, jarangdor qilib o‘rganish	Tovush qatorini har xil cho‘zimda kuylash	“Temp”, “O‘lchov” alteratsiya belgilarini mustahkamlash	“Qo‘zichog‘im - o‘yinchoq” P.Mo‘min she‘ri A.Mansurov musiqasi	Qo‘shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish	Doiracha, uchburchak va rumbada jo‘r bo‘lish	1
7.	“O‘n besh tamiz besh oldik” P.Mo‘min she‘ri Sh.Yormatov mus	Ikki ovozli mashq kuylash	“Dinamika belgilari” mavzusini mustahkamlash	Band va naqorat shaklidagi qo‘shiqlarni kuylash	Qo‘shiqqa mos harakatlar bajarish	Ansambl bo‘lib jo‘r bo‘lish	1

MUSIQA MADANIYATI DARSLARI BIR SOATLIK DARS ISHLANMALARI STRUKTURASI

Boshlang'ich sinflarda reja-konspekt tuzish

Darsning mavzusi:

1. Qo'shiq kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.
5. Musiqiy ritmik harakatlar bajarish.

Darsning maqsadi:

Tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi.

Darsning tipi:

Aralash.

Darsni jihozlash:

Kartochka, plakatlar, ko'rgazmali qurollar, notalar, chog'u asboblari (pianino, rubob, doira). Texnika vositalari (magnitafon, gramm zapislari) reja bayoni, darslik, o'quv qo'llanmalar.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (davomat, darsga hozirlash).
2. Vokal xor ishlari. (ovoz sozlash, oldingi qo'shiqni mustahkamlash, yangi qo'shiqni o'rgatish).
3. Musiqa savodi (musiqa ifoda vositalari).
4. Musiqa tinglash (asarni tinglab tahlil qilish).
5. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.

O'quvchilarni baholash:

Reyting ball tizimi bo'yicha.

Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

I SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

Darsning mavzusi: «Oltin kuz»

1. Qo'shiq kuylash: «Kuz» N. Ro'zimuhammedov she'ri, S.Abramova musiqasi.
2. Musiqa savodi: Ladlar haqida ma'lumot.
3. Musiqa tinglash: «Dutor bayoti» O'zbek xalq kuyi.
4. Bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish: «Kuz» qo'shig'iga mos bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish
5. Musiqali ritmik harakatlar bajarish: «Yurish marshi» F. Nazarov musiqasi.

Darsning maqsadi:

1. Tarbiyaviy: Qo'shiq orqali tabiatga, ona-Vatanga, mehnatga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash.

2. Ta'limiy: Notalarning nomlarini aniqlashga yordam beradigan belgi «Sol» kaliti bilan tanishtirish.

3. Rivojlantiruvchi: Marsh musiqasiga mos va qo'shiqqa mos ritmik harakatlarni bajarib o'quvchilarning ritm tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning turi: Aralash.

Darsni jihozlash:

Darslik, notalar, reja-konspekt, musiqa cholg'u asbobi, SD disk, bolalar cholg'u asboblari: uchburchak, marakassa, doirachalar, rumba, yog'och qoshiqlar, kuz fasli tasvirlangan rasm.



Darsning borishi:

Marsh musiqasi ostida o'quvchilar sinfga kiradilar. Salomlashib o'tirishga ruxsat beriladi. Davomatni aniqlab, uyga berilgan vazifa tekshiriladi. O'quvchilarga kuylash holatini eslatilib, (gavdani to'g'ri tutib, qo'llar tizzada, oyoqlar yerga tekkan holatda) ovozlarni sozlanadi.

1. Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashq kuylash.

2. Nafasni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun mashq kuylash.

Oldingi darsda o'rgatilgan «Qadim Turon» (N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri) qo'shig'ini o'quvchilar bilan takrorlab, mustahkamlab, badiiy ijroga erishiladi.

So'ngra yangi «Kuz» qo'shig'ini (I. Ro'zimuhammedov she'ri, S. Abramova musiqasi) ifodali ijro etib beriladi va musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgatiladi.

Qo'shiq mazmuni ochib beriladi. Bu qo'shiq mazmunida kuz faslining kelganligi, bog'lar saxovatligi, mevalarning hil-hil pishganligi, paxtalarining ochilganligi va ularni terish kerakligi haqida kuylanadi. Qo'shiq o'rtacha tez tempda, re major ladida, quvnoq xarakterda yozilgan.

Bu qo'shiqni shoir Ibrohim Ro'zimuhammedov yozgan, kompozitor Sonya Abramova bastalagan. Sonya Abramova Toshkent shahrida tug'ilgan. Yoshligidan quvnoq, sho'x, musiqiy qobiliyatga ega qiz bo'lgan. Dastlab musiqa maktabida, Hamza nomidagi bilim yurtida a'lo baholar bilan o'qib, Toshkent davlat Konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirgan. O'qishni muvaffaqiyatli tugatib, musiqa maktablarida va Hamza nomidagi pedagogika bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishlagan. U kattalar va bolalar uchun juda ko'p qo'shiqlar, pyesalar, marshlar, raqslar yozgan. Bolalarni juda yaxshi ko'rganligi uchun ularga atab 100 dan ortiq qo'shiqlar yozgan. Bunga «Qo'g'irchog'im», «Laylak qor», «Onajonim Fil», «Buvijonim buvijon», «Paqircham», «Shamol», «Soatim» kabi qo'shiqlarni misol keltirishimiz mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beriladi:

1. Qo'shiqning nomi nima?
2. Uning mualliflari kim?
3. Qo'shiq nima haqida?
4. Kuz faslining fazilatlarini sanab bering.
5. Qo'shiq qanday janrda yozilgan?
6. Bu qo'shiqqa mos qanday ritmik harakatlar bajarish mumkin?

So'ngra bolalar bilan quyidagicha ish olib boriladi:

Bolajonlar, hozir kuylagan qo'shig'imiz Re major ladida yozilgan. Musiqiy asarlar har doim quvnoq, sho'x, tantanavor yoki ma'yus, mungli, g'amgin xarakterda yozilgan bo'ladi. Musiqada kuy-qo'shiqlarni shunday xarakterda yozilishi lad deb ataladi. Ladlar ikki xil bo'ladi. Major ladi va minor ladi. Sho'x, quvnoq kuy-qo'shiqlar major ladi; ma'yus, g'amgin musiqalar minor ladi.

Hozir CD diskda o'zbek xalq cholg'u asboblari ijrosida kuy tinglaymiz. Bu kuyning nomi «Dutor bayoti», siz uni qanday ladda va qanday janrda yozilganini aniqlab, izohlab berasiz. Ushbu kuyga

mos raqs harakatlarini bajarasiz. So'ngra «Kuz» qo'shig'iga bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lamiz. Oldin chapak chalib ritmini aniqlab, xotiramizda saqlab qolamiz. 5 ta o'quvchi doskaga chiqib cholg'u asbobida jo'r boladi. Shu tarzda navbatma-navbat doskaga chiqib bolalar cholg'u asbobida ushbu kuyga jo'r bo'ladilar. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

Darsga yakun yasab uyga vazifa beriladi.

Bugun sizlar bilan «Kuz» qo'shig'ini o'rgandik, lad haqida ma'lumotga ega bo'ldik. O'zbek xalq cholg'u asboblari bilan tanishdik. Uyga vazifa «Kuz» qo'shig'iga mos rasm chizib, qo'shiq so'zlarini yodlab keling. O'zbek xalq cholg'u asboblaridan dutor asbobini ham rasmini chizib keling. Shu bilan dars yakunlanadi.

II SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

Darsning mavzusi: «Kuy nima? Kuyda nima ifodalanadi?»

Darsning maqsadi:

O'quvchilarni mustaqil fikrlash, erkin so'zlash, oz kuch sarflab ko'proq natijaga erishishga o'rgatish.

Darsni jihozlash:

Reja-konspekt, 2-sinf uchun darslik, rasmlar, tarqatma kartochkalar, test savollari, slaydlar.

Darsning turi: Noan'anaviy.

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi. O'quvchilarga bugungi darsi noan'anaviy tarzda, o'yin shaklida o'tilishi tushuntiriladi. Buning uchun turli xil rasmlar kartochkalar yordamida sinf o'quvchilarini uch guruhga bo'lib, maxsus tayyorlangan partalar atrofiga o'tqaziladi. Uch guruh tasvirlangan kartochkalar yordamida nomlanadi:

I guruh — «Rayhon» guruhi.

II guruh — «Lola» guruhi.

III guruh — «Binafsha» guruhi.

Har bir guruhda 7–8 tadan o'quvchi bo'lishi mumkin. O'quvchilarga o'yin shartlari va mezonlari haqida tushuntiriladi. Har bir guruh belgilangan vaqtda berilgan topshiriqni shoshmasdan o'ylab ko'rib, fikrlab, hamjihat bo'lib savollarga javob berishi kerakligi eslatib o'tiladi. Javoblar quyidagicha baholanadi:

5 ball — qizil kartochka (to'g'ri, to'liq, tez javob uchun);

4 ball — yashil kartochka (to'g'ri lekin to'liq emas);

3 ball — oq kartochka (javoblarda kamchilik bor).

O'quvchilarga o'yin 3 shartdan iboratligi tushuntiriladi.

1-shart bilan tanishtiriladi.

«Aqliy hujum texnologiyasi»: fikriy bog'liqlik, xotira, mantiqni shakllantirish uchun. Uch guruh sharlar ichiga savollar solib, doskaga ilib qo'yiladi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchini navbat bilan doskaga chiqarib, sharni yorib, savolni guruh bilan muhokama qilib, javob berish uchun topshiriq beriladi.

I guruh uchun sharlar ichidagi savollar:

1. Musiqiy asarni cholg'u asboblarda birgalikda ijro etilishi nima deb ataladi?

2. Kuyni bir qo'shiqchi yoki sozanda ijro etishi nima deyiladi?

3. Kompozitor Shermet Yormatovning qanday qo'shiqlarini bilasiz?

II guruh uchun sharlar ichidagi savollar:

1. Kuy nima?

2. Cholg'uchilar dastasi qanday milliy cholg'u asboblardan tuziladi?

3. Kompozitor Dilorom Omonullayevaning qanday qo'shiqlarini bilasiz?

III guruh uchun sharlar ichidagi savollar:

1. Kuyda nima ifodalandi?

2. «Tonika» deb nimaga aytiladi?

3. Kompozitor Nadim Norxo'jayevning qanday qo'shiqlarini bilasiz?

O'yinning 2-shartiga o'tiladi.

«Tarozi» texnologiyasi. Bunda qaysi guruh asar nomini va muallifini topib, qo'shiqni chiroyli ijro etib bersa, o'sha guruh ko'proq ball to'playdi. Bunda o'qituvchi pianinoda yoki rubobda o'rgangan qo'shiqlardan har bir guruh uchun alohida parcha ijro etib beradi. O'quvchilar qo'shiq nomi va muallifini topib, qo'shiqning bir kupletini ijro etib beradilar.

I guruh uchun «Nevaralar», N. Norxo'jayev musiqasi, S. Barnoyev she'ri.

II guruh uchun «Buvijonim» qo'shig'i, D. Omonullayeva musiqasi, Y. Suyunova she'ri.

III guruh uchun «G'ildiragim» qo'shig'i, Sh. Yormatov musiqasi, P. Mo'min she'ri. So'ngra o'yinning 3-shartiga o'tiladi.

Test savollari

1. Tonika qanday tovush? 2. Yakkaxon qo'shiqni kim aytadi?
3. Pauza nima?
A) uchinchi tovush A) yozuvchi A) tinish belgisi
B) beqaror tovush B) solist B) takrorlash belgisi
C) tayanch tovush C) dirijor. C) ohang.

Ya'ni har bir guruhdagi ishtirokchi uchun test kartochkalari tarqatiladi. Qaysi guruh savollarga ko'proq javob bersa, o'sha guruh ko'proq ball to'playdi. Har bir shartdan keyin guruh ishtirokchilarini rag'batlantirib, kartochkalardagi ballar bilan baholanadi. Eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib bo'lib olqishga va rag'batga sazovor bo'ladi. Qolgan guruhlar ham shu tarzda e'tibor qozonib baholanadilar.

Darsga yakun yasab uyga vazifa beriladi.

Darsga yakun yasab, o'quvchilarga hozirjavob bo'lish kerakligini, ko'proq kitoblar o'qib darsga e'tiborli bo'lish, xotirani charxlash, mustahkamlash, o'z ustida ishlash lozimligi eslatib o'tiladi va bolalar bilan xayrlashiladi.

III SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

Dars mavzusi: «Musiqaning ifoda vositalari».

1. «Onajonim» S. Abramova musiqasi, Nurbek she'ri.
2. Raqs haqida ma'lumot.
3. «Dilxiroj» O'zbek xalq kuyi.

Darsning maqsadi: O'quvchilarda onalarga, Vatanga bo'lgan muhabbatni uyg'otish, musiqaga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish. Notalar cho'zilishi va nota bilan kuylash haqida tushuncha berish. O'quvchilarda raqsga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish.

Darsni jihozlash: Forteplyano, rasmlar, notalar, magnitafon, reja-konspekt.

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan salomlashib o'tirishga ruxsat beriladi. Davomatni aniqlab uyga berilgan vazifa so'raladi. O'tgan darsda qaysi qo'shiq o'rganilgan edi? Qo'shiq muallifi kim? Qaysi qo'shiqni tingladik?

O'quvchilarni to'g'ri o'tirishga chorlab, vokal-xor ishlarini olib borgan holda ovozlari sozlanadi:

- talaffuz uchun mashq;

- sof intonatsiya uchun mashq;
- nafas uchun mashq.

So'ngra o'quvchilar bilan o'tgan darsda o'rganilgan «Nisholda» qo'shig'ini takrorlab, uning badiiy ijrosiga erishiladi. O'quvchilarni yangi «Onajonim» qo'shig'i bilan tanishtiriladi. S. Abramova musiqasi, Nurbek she'ri deya bu qo'shiqqa ta'rif beriladi. Qo'shiq onajonlarimiz haqida, ularning muloyim va mehribonligi, bebaho ekanligi tushuntiriladi. Bu qo'shiq majorda yozilgan. Bu qo'shiq kuychan, mayin sur'atda ijro etiladi. Qo'shiqni ifodali chalib berilib, qiyin bo'lgan jumlar ustida ishlanadi.

Qo'shiqni musiqiy jumalarga bo'lib 1-kupleti va naqorati ifodali qilib, sof intonatsiya, aniq talaffuzga erishib o'rgatiladi. Qo'shiqni o'rgatib bo'lib, ularga raqs haqida tushuncha beriladi. Raqslar hamma davlat, millatlarda har xil bo'ladi. Taniqli san'at namoyandalardan Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Viloyat Oqilova, Ma'mura Ergashova, Qizlarxon Do'stmuhammedovalar kabi ustoz raqqosalar raqsnı maromiga yetkazib, bir qancha shogird chiqarganlar, deb ular haqida ma'lumot beriladi.

So'ng «Dilxiroj» o'zbek xalq kuyini ifodali ijro etib beriladi. Ularga savollar bilan murojaat qilinadi. Bolalar bu kuy qanday xarakterga ega? Unda qanday harakatlar qilsak bo'ladi? So'ng o'quvchilar baholanadi. Uyga vazifa «Onajonim» qo'shig'ini o'rganib kelish, unga mos harakatlarni o'rganish. O'quvchilar bilan xayrlashiladi.

III SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

Dars mavzusi: Musiqaning tuzilishi.

Darsning maqsadi: O'tilgan mavzularni mustahkamlash va muammolarning yechimini tez va oson yechish.

Darsni jihojlash: Ko'rgazmali qurollar, kartochkalar, reja konspekt, musiqa cholg'u asboblari, rasmlar.

Darsning turi: Noan'anaviy.

Darsning borishi: O'quvchilar bilan salomlashib, davomatni aniqlab, uyga berilgan vazifa tekshiriladi. Bugungi darsni noan'anaviy tarzda, o'yin texnologiyasi vositasida o'tilishi aytiladi. Buning uchun o'quvchilar kartochkada yozilgan raqamlar yordamida beshta guruhga bo'lib chiqiladi, har bir guruhda 6–7 ishtirokchi bo'lishi kerak. O'quvchilarni guruhlarga bo'lib partalar

atrofiga o'tqaziladi. O'yin shartlari bilan tanishtiriladi. Berilgan to'g'ri, to'liq, tez javob uchun qizil kartochka 3 ball bilan baholanadi. Savolga berilgan to'g'ri, lekin to'liq bo'lmagan javob uchun 2 ball. Berilgan savolga javob to'liq bo'lmasa va xatosi bo'lsa 1 ball.

O'yinning I sharti bilan tanishtiriladi. Bu texnologiyani nomi «Skarabey» fikriy bog'liqlik, mantiq, xotirani rivojlantirib, muammoni mahorat bilan hal qilishga erishiladi.

O'qituvchining stoli ustida konvertlar ichida qo'shiqlarning nomi va mualliflari yozilgan bo'ladi. O'quvchilar qo'shiqni va so'zlarini eslab, chiroyli qilib guruhlar bilan 1-kupletini kuylab berishlari lozim.

1. «Qo'g'irchog'im — o'yinchoq».
2. «Salom bergan bolalar».
3. «Gullar mening kulganim».
4. «Vatanjonim vatanim».
5. «Qo'shig'imiz avjida».

O'yinning II sharti: «Aqliy hujum» o'yini bilan tanishtiriladi. Forteplyano va rubobda har bir guruh uchun alohida turli ohangdagi kuylarni ijro etib beriladi. O'quvchilar oldilariga qo'yilgan kartochkalarni ochib kuy nomini, shakli va janrini topishga harakat qiladilar.

O'yinning III sharti:

«Yelpig'ich» texnologiyasi bilan tanishtiriladi. Bu shartda har bir guruh savollarni mahorat bilan hal qilib, aniq javob beradi. Har bir guruhga 3 tadan savol beriladi.

1. Major ladi qanday eshitiladi?
2. Bastakor kim?
3. Dutor cholg'u asbobida nechta tor bor?
4. Bir jumlaning 2 marta ijro etilishi nima deb ataladi?
5. Uchta asosiy musiqiy janr nomini toping.
6. Band va naqorat qanday musiqiy shaklga kiradi?
7. Alteratsiya belgilari necha xil bo'ladi?
8. «Vals» kuyi qanday sur'atda ijro etiladi?

Barcha shartlardan so'ng guruhlar to'plagan kartochkadagi ballar hisoblanadi. Eng yuqori ball to'plagan guruh tabriklanadi, shu tariqa barcha guruhlarini yanada yaxshiroq ishlashga, mustaqil kitoblar o'qish, xor darslarida fikrini bir joyga to'plab, diqqat-e'tibor bilan o'tirish lozimligini uqtiriladi. Darsga yakun yasab, uyga vazifa beriladi.

IV SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

Darsning mavzusi:

O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari.

1. Qo'shiq: «Oq paxta terdik, terdik». N. Norxo'jayev musiqasi.
P. Mo'min she'ri.

2. Musiqa savodi: Major ladi haqida ma'lumot.

3. Musiqa tinglash: O'zbek xalq kuyi. «Qari navo».

Darsning maqsadi:

1. Tarbiyaviy: qo'shiq kuylash orqali o'quvchilarda o'zaro mehr-oqibat, do'stlik, tabiatga muhabbat tuyg'usini o'stirish.

2. Ta'limiy: lad haqida, majorlari haqida ma'lumot berish.
Ommaviy janr bilan tanishtirish.

3. Rivojlantiruvchi: qo'shiq kuylash vositasida o'quvchilarning musiqiy uquvini o'stirish, ikki ovozli kuylash malakalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash:

Musiqa cholg'u asbobi (pianino, rubob), ko'rgazmali qurollar (paxtazor rasmi tasvirlangan), tarqatma kartochkalar, musiqa savodidan tinglash uchun SD va DVD diskleri, plakatlari.

Darsning turi: aralash.

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi. Uyga berilgan vazifalar bo'yicha o'quvchilarga savollar beriladi.

1. Uyga qaysi qo'shiq vazifa qilib berilgan?

2. Repriza nima?

3. Lad nima?

4. «Ommaviy qo'shiqlar» deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilarga qo'shiq kuylash holati eslatilib, o'quvchilar diqqatini jalb etib, ovozlar sozlanadi.

Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashq.

Nafasni to'g'ri yo'lga solish uchun mashq.

Ikki ovozda kuylash uchun mashq.

«Oy Vatanim» Sh. Yormatov she'ri.

Oldingi darsda o'rgatilgan qo'shiq o'quvchilar bilan takrorlab mustahkamlanadi. So'ngra yangi «Oq paxta terdik, terdik». N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri, qo'shiq'ini o'qituvchi ifodali qilib kuylab beradi.

Qo'shiqning mazmuni ochib beriladi. Bu qo'shiqda dalalarimizda shoxchalar chanoqlarida paxtalarning lo'ppi-lo'ppi

The second system continues the vocal line and piano accompaniment. The lyrics 'de-yi-sha-di men-ga do-im. Goh o'z-la-ri a-raz-la-shib qo-li-sha-di a-dam o-' are written below the vocal line. The piano accompaniment continues with the same key signature and time signature.

yim Qu-loq so-ling hoy kat-ta-lar a-mal qi-ling so'-zin-giz-ga

The third system continues the vocal line and piano accompaniment. The lyrics 'yim Qu-loq so-ling hoy kat-ta-lar a-mal qi-ling so'-zin-giz-ga' are written below the vocal line. The piano accompaniment continues with the same key signature and time signature.

Jan-jal-la-shib ber-mang o-zor jan-jal-lashib ber-mang o-zor jaj-ji o'g'il qi-zin-giz-ga

The fourth system concludes the vocal line and piano accompaniment. The lyrics 'Jan-jal-la-shib ber-mang o-zor jan-jal-lashib ber-mang o-zor jaj-ji o'g'il qi-zin-giz-ga' are written below the vocal line. The piano accompaniment continues with the same key signature and time signature.

jan-jal-la-shib ber-mang o-zor jan-jal-la-shib ber-mang o-zor jaj-ji o'-g'il

qi-zin- giz -ga jaj - ji o'-gil qi-zin - giz-ga

1. Hech kim bilan janjallashma
Deyishadi menga doim.
Goh o'zlari arazlashib
Qolishadi adam oyim.

Naqorat

- Quloq soling hoy kattalar
Amal qiling so'zingizga.
Janjallashib bermang ozor
Jajji o'g'il qizingizga.
2. Arazlashib qolishsa gar,
Nimadandir adam oyim.
Yarashtirish tashvish g'ami
Faqat menga tushar doim.
 3. Men adamni eritaman
Tizzasiga qo'yib boshim
Aldasam ham bo'laverar
Chunki katta emas yoshim.

III BOB. O‘ZBEK XALQ MUSIQA MADANIYATI TARIXI

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega. Arxeologik ma‘lumotlar, san‘at asarlarida tasvirlangan miniaturalar, sharqshunoslarning tadqiqot ishlari o‘zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini ko‘rsatib beradi. O‘zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari O‘rta Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar ijodi bilan mustahkam bog‘langan. Bu musiqa asarlari bir butunlikni ifoda etadi. Keyinchalik o‘zbek va tojik madaniyatining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. O‘rta Osiyo xalqlari hayotida chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo‘lgan birinchi ming yilliklardan boshlanadi. Bular sug‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar hamda ko‘chmanchi Sak va Massaget qabilalari edi. Xalq she‘riyati va musiqa san‘atining boshlanishi o‘sha davrlarga borib taqaladi. Dastlab bu haqda Avesto kitobi va boshqa qadimiy yodgorliklar, O‘rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar, to‘y-tomoshalari haqida dalolat beradi. Bu davrda O‘rta Osiyoda musiqa asboblarning asosiylari – urib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar tirlari vujudga kelgan edi.

O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan nishonlanib kelinayotgan «Navro‘z bayrami», «Mehrijon», «Hosil bayrami» kabi bayramlarda ijro etilgan kuy va qo‘shiqlar Iskandar Zulqaynar boshchiligidagi yunonlarni hayratda qoldirgan. VII asrda O‘rta Osiyoga Islom dini kirib kelgan. Arablar ham ajdodlarimiz musiqa madaniyatidan bahra olganlar. IV –VII asrlargacha bo‘lgan madaniyat va san‘at turlari jumladan, musiqa yuqori darajada rivojlangan. Butun Sharqda mashhur bo‘lgan Sharq adabiyoti mumtoz asarlarida tasvirlangan O‘rta Osiyoning yirik sozanda va xonandasi, o‘nlab kuylar, cholg‘u sozlar ijodkori Borbadning nomi mashhur bo‘lgan. Mavr shahrida istiqomat qilgan Borbad VII asr boshlarida Eron xalqi sulolasidan bo‘lgan Xisrav saroyida xizmat qilgan. Tarixchilar bergan ma‘lumotga ko‘ra Borbad madhiya va tarixiy qo‘shiqlar, harbiy g‘alabalar to‘g‘risida qo‘shiqlar ijod qilgan. Ozarbayjon adabiyotining mashhur namoyandalaridan Nizomiy o‘zining «Xisrav va Shirin» dostonida Borbadning san‘at shinavandalariga kuchli ta‘siri to‘g‘risida yozgan.

IX–X asrlarga kelib Somoniylar davlatida Buxoro yuksak san‘at,

ilm-u fan maskaniga aylandi. Bu davrda olamga mashhur olimlar, shoirlar va musiqachilar yetishib chiqdilar. Mashhur faylasuf Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abdullo Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy kabi ulug' allomalar O'rta asr sharq musiqa madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Ayniqsa, musiqa asboblarning yaratilishi, musiqa san'atining ravnaq topishida Sharq fanini aniq fan bilan bog'lagan Al-Forobiy Arestotelning sharhlovchisi sifatida ham mashhur bo'ldi. Buning uchun Al-Forobiyga «Muallimi soniy», ya'ni ikkinchi muallim degan faxriy nom berildi. U musiqa nazariyasi, tovushlarning fizik xossalari, ritm, o'lchov haqidagi ma'lumotlar orqali musiqa ta'limotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

XI–XV asrlar davomida o'zbek xalqining madaniyati yangi cho'qqilarga erishdi. Ayniqsa, temuriylar zamonida o'zbek musiqa madaniyati yuksak rivojlandi. Amir Temur va temuriylar davrida O'rta Osiyo juda katta tashqi mavqega ega bo'ldi. Arxitektura gullab yashnadi. Davlat poytaxti Samarqandda Amir Temur turli xil hunarmandlar, musiqachilar, shoirlar, rassomlarni yig'di. Xushovoz xonandalar, hofizlar, sozandalar, fors namunalari arab ohanglari, turli an'analari, mo'g'il ovozlari, xitoyliklar qonunlari kuy chalib, qo'shiq aytib musiqa madaniyatini yuksaklarga ko'tarib, rivojlanishiga hissa qo'shganlar. Bunda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' allomalarning xizmatlari alohida hurmatga sazovor. XVII–XIX asrlarda Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Xorazm kabi ilm-fan, ma'rifat maskanlarida musiqa san'ati keng rivojlandi. Bu davrda, xususan mashhur musiqachilardan Mavlono Kavkabi va Darvesh ali-Changiylarning musiqa nazariyasi haqidagi risolalari musiqa san'ati rivojlanishiga salobatli hissa qo'shdi. Musiqa ilmining bilimdoni Najmiddin Kavkabiyning «Musiqa haqida risola» nomli kitobi, Samarqand va boshqa shaharlardagi shogirdlari va olimlar uchun qo'llanma bo'lgan edi.

XVII asrning saroy musiqachisi va nazariyotchisi Darvesh ali-Changiy risolalari musiqaga oid fikrlarga boyligi bilan ahamiyatli edi. U faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon etib qolamay, balki o'z asarlarida o'sha davrda ijod qilgan bir qator musiqachilarning faoliyati, saroyda mavjud bo'lgan musiqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi. Bu davrga kelib eng yirik shakldagi musiqalardan shashmaqom turkumi mukammal shakllandi.

Shuningdek, o'zbek musiqasining ommaviy janrlari va og'zaki an'anadagi uztozona kasbiy musiqa yo'nalishlari shakllanib keng quloq yozdi. Ayniqsa shu uslubda ijod etilgan bolalar folklor musiqasiga e'tibor kuchaydi. Og'ir hayot qiyinchiliklariga qaramay o'zbek xalqi ijodi davom etdi. Uning janrlari boyidi. Cholg'u asboblari takomillashdi. Xalq qo'shiqchiligi va cholg'u ijodining xilma-xilligi keng yoyilib xalq mulkiga, tarixiga aylandi.

3.1. O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari

O'zbek xalqining qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosidagi madaniyatlar (bir ovozdagi kuylash) kabi xilma-xil janrlari hamda boy tasviriy vositalari bizgacha yetib kelgan. U o'zida xalq ijodi folklori, kuy va ashulalarning tuzilishi, dostonchilik va baxshichilik janrlari terma qo'shiqlarining serqirraliligi, sermazzmunlilik, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rnini bilan gavdalanadi. Bundan tarixiy manbalar va betakror qadimiy obidalar dalolat beradi. O'zbek xalqi boy, o'ziga xos ko'p qatlam va seruslub musiqa merosiga ega. O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari asrlar davomida og'zaki an'analar tarzida, ya'ni nota yozuvisiz, og'izdan-og'izga, og'zaki ijod etish, og'zaki o'rganish va ijro etish orqali yetib keldi. Olimlar musiqa merosining ana shu tomonini inobatga olgan holda xalq musiqasi folklorining bir turi – xalq og'zaki ijodi sifatida ta'riflab, unga nisbatan folklor musiqa tushunchasini berganlar. Folklor namunalari «jonli» ijro etish sharoitida yaratilgan va rivojlanib ommalashgan. Xalq ommaviy qo'shiqlarining deyarli barcha turlari o'zbek xalq ommaviy janrlariga mansub bo'lgan folklor, terma qo'shiqlar, yor-yorlar, allalar, laparlar va boshqalar xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, mehnat qilish jarayoni, odob-axloqi, to'y marosimlari, oilaviy tantanalar, diniy navolar kabi sharoitlarda yaratilib avlodlardan avlodga o'tib kelgan. O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari, kuy va qo'shiqlari badiiy mazmuni va hayotiy o'rniga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. Ma'lum vaqt va ma'lum sharoitlarda ijro etiladigan kuy va aytimlar.

2. Erkin mavzuli har qanday sharoitda ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar.

I. Birinchi guruhga oilaviy marosim, mehnat qo'shiqlari, mavsumiy marosim qo'shiqlari, diniy navolar hamda turli tantana,

tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlar va cholg'u kuylari kiradi.

Ikkinchi turga o'zbek xalq musiqasi janrlari — qo'shiq, ashula, yalla, lapar, qarsak va turli xil cholg'u kuylari kiradi.

Har bir musiqiy janr o'ziga xos xarakterli belgilarga ega. Ularning har biri o'zining tuzilishi, tartibi, ohang xarakteri, mazmuni va ruhiy (emotsional) ta'sirchanligi bilan bir-biridan farq qiladi.

1. Mehnat qo'shiqlari. Xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalariidan birini tashkil etadi. Bu turdagi aytimlar, qo'shiqlar mehnat jarayonida ijod etilgan bo'lib, bu jarayon ishini tashkil etish bilan bog'liq. Bundan tashqari mehnat qilayotgan insonning qalbiga ko'tarinkilik kayfiyatini jo qiladi. Ruhiiy dalda bo'lib madad beradi. Bajarilayotgan mehnat turiga qarab ta'riflanayotgan aytimlarni 3 guruhga bo'lish mumkun:

- 1) chorvador qo'shig'i;
- 2) dehqonchilik qo'shig'i;
- 3) hunarmandchilik qo'shig'i.

Chorvador qo'shiqlari aholining chorvachilik bilan bog'liq turmush tarzi jarayonida shakllangan. Bu aytimlar uy hayvonlarini sog'ish paytida kuylangan. Masalan: qora molni sog'ishda («Xo'sh-xo'sh»), qo'y-echkilarni sog'ishda «Turey-turey», «Churey-churey» aytimlari kuylangan. Bu aytimlar jonivorni tinchlantirish, erkalatish, iydirish maqsadida kuylangan.

Dehqonchilik qo'shiqlari — dehqonchilikning turli faoliyati bilan bog'liq holda ijod etilgan. Masalan: yer haydash paytida «Qo'sh haydash» kuylangan bo'lsa, hosilni o'rib olishda «O'rim qo'shig'i», xirmon yig'ishda esa «Xo'p mayda» yoki «Mayda-mayda» qo'shiqlari aytilgan.

Hunarmandchilik qo'shiqlari namunalari asosan charx yigirish, gilam to'qish, do'ppi tikish kabi mehnat vaziyatlari bilan bog'liq xotin-qizlar ijodi bo'lib, chorvadorlik va dehqonchilik qo'shiqlariga nisbatan kengroq shakllandi. Bularga «Urchuq», «Charx» aytimlari misol bo'la oladi.


2. Mavsumiy marosim qo'shiqlari. Folklorshunos olimlarimizning bergan ma'lumotlariga ko'ra 4 faslga oid quyidagi marosimlar o'tkazilgan.

Qish faslida — «Yas yusun», «Gap — gashtak».


Bahor faslida — «Navro'z bayrami», «Shox moylar», «Sust xotin», «Gul bayrami».

XO'SH-XO'SH

O'zbek xalq qo'shig'i



Xo'sh, xo'sh, xo'sh, xo'sh,




ol bo- lang- ni, xo'sh, xo'sh,



pa- qir to'- lib sut ber- sin,



xo'sh, jo- nim, xo'sh, xo'sh,




bor- gan ye- ring o't bo'l- sin,



xo'sh, xo'sh, xo'sh, xo'sh,



ba- lo, qa- zo yo'q bo'l- sin,



xo'sh, xo'sh, xo'sh, xo'sh.

QO'SH HAYDASH

Notaga oluvchi *N. Toshtemirov*

Dar- yo- ning nar- yo- g'i- da
qo'sh hay- da- dim, qo'sh hay- da- dim,
qu- loch yo'- ling yo'- qo- tib
bo'sh hay- da- dim.

The musical score for 'QO'SH HAYDASH' is written on a single treble clef staff in G major (one sharp) and 2/4 time. It consists of four lines of music. The first line contains the lyrics 'Dar- yo- ning nar- yo- g'i- da'. The second line contains 'qo'sh hay- da- dim, qo'sh hay- da- dim,'. The third line contains 'qu- loch yo'- ling yo'- qo- tib'. The fourth line contains 'bo'sh hay- da- dim.' and ends with a double bar line.

SUST XOTIN

O'zbek xalq qo'shig'i

Sust xo- tin, suz- ma xo- tin, ko'- lan- ka- si
may- don xo- tin, yom- g'ir yog'- dir,
ho'l bo'l- sin, e- lu ja- hon
ko'l bo'l- sin, sust xo- tin, sust xo- tin.

The musical score for 'SUST XOTIN' is written on a single treble clef staff in G major (one sharp) and 2/4 time. It consists of four lines of music. The first line contains the lyrics 'Sust xo- tin, suz- ma xo- tin, ko'- lan- ka- si'. The second line contains 'may- don xo- tin, yom- g'ir yog'- dir,'. The third line contains 'ho'l bo'l- sin, e- lu ja- hon'. The fourth line contains 'ko'l bo'l- sin, sust xo- tin, sust xo- tin.' and ends with a double bar line.

Yoz faslida — «Choy momo».

Kuz faslida — «Obla baraka», «Shamol chaqirish», «Hosil bayrami».

3. Oilaviy marosim aytimlari. Insonning hayot yo'li bilan bog'liq muhim sanalar va voqealar, har bir xalqda o'ziga xos tarzda urf-odat yoki marosimlar bilan nishonlanib turishi an'anaga aylangan.

SHOX MOYLAR


O'zbek xalq qo'shig'i




Qo'sh- ga il- dam yur- ma- sang,



u- chang- ga tur- tib qo'- ya- man.




Yax- shi yur- sang sho- xing- ga



moy- lar sur- tib qo'- ya- man,



Shox- la- ring bor, sho- mi- yon,



ko'z- la- ring bor oy- na- day...

Ramazon

O'zbek xalq qo'shig'i

Ro'-za-ni uch kun tu-tib kel-dik siz-ga
Ro'-za-ni za-ko-ti-ni be-ring biz-ga.
Oq tan-ga ko'k tan-ga tez-roq chi-qing
jon yan-ga . Oq ta-ma-ki ko'k ta-ma-ki
Chi - qa - ra - qo - ling jon a - ma - ki.

Ro'zani uch kun tutib keldik sizga
Ro'zani zakotini bering bizga.
Ro'za ham o'ttiz kunlik mehmondir
Ro'zani tutmaganlar nodondir.

Ramazon aytib keldik eshigingizga
Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga.

Payg'ambarning o'n bir o'g'li bor edi
Hammasidan Shoyisi gulzor edi.
Shoyisini toqqa olib chiqdilar
Jarga otib bo'ri yedi dedilar.
Onasi yig'lab chiqdi jar boshiga
Otasi yig'lab chiqdi g'or boshiga.

Shuning uchun an'analar, oilaviy marosim tusini olgan. Oilaviy marosim turlari ham ko'p bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqida beshik to'yi, muchal to'yi, xatna to'yi, nikoh to'yi, motam marosim an'analari mavjud. Shuningdek, oilaviy marosim aytimlariga yor-yor, kelin salom, alla aytimlari kiradi.

Alla — onaning yosh bolasiga bo'lgan mehr-muhabbati va orzu-istaklarini ifodalaydigan qo'shiq. U mayin orombaxsh, yoqimli, lirik ohangda bo'lib, bola ruhiyatining tinglanishi va osoyishta, shirin uyquga eltishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, alla bolalikdan unga milliy musiqa ohanglarini idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'mak beradi.

4. Diniy navolar. Xalqimizning musiqa merosida alohida o'ringa ega bo'lib kelgan diniy mavzudagi kuy va qo'shiqlar o'zbek xalqining islom dinini qabul qilishi bilan bog'liqdir. Diniy navolarda avvalo muqaddas «Qur'oni Karim» sura oyatlari qiroat bilan o'qiladi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, qiroat yo'llarini nota vositasida aks ettirib bo'lmaydi. Chunonchi, ularning sermazmun, jozibali ijrosi faqat jonli o'qishda ko'rinadi. Binobarin ijro uslublarini o'rgatishda maxsus maktab va madrasalarda ta'lim ko'rgan shogird yillar davomida o'rganib, yuqori darajada ta'lim olgan mutaxassis maqomini oladi. O'zbek musiqa merosida diniy navolar o'z o'rnida 2 guruhga bo'linadi:

1. Diniy marosim kuy aytimlari.
2. Diniy mavzuli kuy aytimlar.

Birinchi guruhga ramazon oyida kuylanadigan «Ramazon qo'shiqlari», ikkinchi guruhga Navoiyxonlik, Mashrabxonlik. «Munojot», Yassaviyxonliklar kiradi. Ma'lum darajada maqom yo'llari va katta ashulalar shular jumlasiga kiradi.

5. Motam marosimlari. Motam marosimi, ya'ni yig'i qo'shig'idir. Yig'i turli vaziyatda yuzaga keladi, u janr sifatida asosan motam marosimida, ya'ni azada to'liq namoyon bo'ladi. «Yig'i» motam marosim qo'shig'i hisoblanib yaqin kishi, oila a'zolarining vafot etishi bilan bildirilgan chuqur qayg'u, ichki kechinmalar va alamli dard kabi tuyg'ularni mujassam etadi. Yig'i qo'shig'ida shaxsiy hayot, vafot etgan insonning fazilatlari haqida eslab, aytib ijro etiladi.

YIG'I

Notaga oluvchi *Ilyos Akbarov*

Bo'y-la-ri o'-zi-ga ya-rash-gan,
Be-ma-hal ko'-cha-la-ri-din a-dash-gan,
Be-da-vo dard-lar-ga uch-ra-gan...

II. Erkin mavzuli kuy va qo'shiqlar guruhini ashula, qo'shiq, terma, lapar, yalla kabi janrlar tashkil etadi. Bu aytimlar turli vaziyat va davrlarda kuylanishi mumkin. Ularning ohanglarida kuychanlik xususiyati, she'riy mazmuni ijro vaziyatlariga bevosita bog'liq bo'lmay ma'lum mavzu erkinligiga egadir.

Qo'shiq janri xalqimiz musiqa amaliyotida keng tarqalgan janrlardan biridir. U mazmunan ishqiy mavzuda, satirik yo'nalishda, tarixiy mavzuda, ijtimoiy mazmunda bo'lishi mumkin. Qo'shiq janriga «Bahor keldi», «Oh layli», «Daryo toshqin», «Olmani otdim», «Yoshligim» qo'shiqlari misol bo'la oladi.

Terma — aytimning bir turi bo'lib. lug'aviy jihatdan «Yig'moq» «Tanlamoq» ma'nolarini anglatadi. Terma aytimini asosan baxshilar kuylaydilar. Baxshilar: «Go'ro'g'li», «Avazxon», «Alpomish», «Oshiq G'arib va Shohsanam» kabi dostonlarning ijrochisi bo'lib do'mbira, dutor, yoki qo'buz sozlari jo'rligida kuylaydilar.

Lapar — atamasi taxminga ko'ra ikki so'z birikmasidan hosil bo'lgan. «Par» — juft ikki kishi ma'nosida, «la» esa aslida ko'makdosh yasovchi bo'lib aytmoq fe'li o'rnida keladi. Demak, lapar deganda ikki kishi aytishuvi tushuniladi. Odatda yigit va qiz o'rtasida lapar aytishuvlar o'tkazilgan. Laparlarda sevgi-muhabbat yetakchi mavzu bo'lishi bilan birga yanada yengil hazil, nozik va boshqa mazmundagi she'rlar ham tarannum etiladi. Laparlarda






naqorat bo'lmaydi. U savol-javob tarzida qurilgan aytishuv shaklida bo'ladi. Masalan: «Bilaguzuk», «Qorasoch», «Qilpillama», «Oyijon», «Nima, nima deysiz» laparlari misol bo'la oladi.




Yalla. Yalla so'zi o'ynab kulish, kuylash, xursandchilik qilish degan ma'nolarni anglatadi. Yalla janrida qo'shiq va raqs bir-biriga bog'liqdir. Yalla ko'proq jamoa va yakka ijrochi ijrosida qo'llaniladi. Yallada, doira asosiy jo'r soz musiqa asbobi bo'lib hisoblanadi. Yengil hazil-mutoyiba bilan barmoq vaznidagi she'rlar va raqslar yallaga xush kayfiyat baxsh etadi.

Ashula. Ashula kuyi «Daromad», boshlanish qismi, kichik, o'rta va katta avjlardan iborat bo'ladi. Ashula barmoq yoki ko'pincha

ARZIMNI AYTAY

O'zbek xalq qo'shig'i





aruz vaznidagi g'azallar bilan kuylanadi. Uning kuyi vazmin, mayin bo'lib chuqur ma'noga ega bo'lgan ijtimoiy fikr va his-tuyg'ular, ishq-muhabbat, sog'inch, alam va hasratni ifodalaydi. Ashulaning eng rivojlangan namunasi «Katta ashula» yoki «Patnis ashula» nomini olgan. Ashulaning kuy va she'r tarkibini ko'proq mumtoz va ishqiy lirik mazmundagi she'rlar tashkil etadi. Ashulaning qo'shiqdan farqi ashula keng diapazonga ega bo'lgan usulni sezilarli darajada o'zgaruvchanlik his etib kuylay oladigan ijrochiiga moslab yozilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *O'zbek xalq musiqasining ommaviy janri deb nimaga aytiladi?*
2. *O'zbek xalq musiqasi ommaviy janrining yaratilish tarixi.*
3. *O'zbek xalq ommaviy musiqa janri necha guruhga bo'linadi va uning qisqacha mazmuni qanday?*
4. *Ma'lum sharoitda yaratiladigan va ijro etiladigan musiqiy janrlarning turlarini aytib, mazmunini ochib bering.*
5. *Erkin mavzuli kuy-*qo'*shiqlarning yaratilish tarixi va turlari mazmunini ochib bering.*
6. *Mehnat *qo'*shiqlariga qanday *qo'*shiqlar kiradi?*
7. *Oilaviy marosim aytimlariga qanday asarlar kiradi?*

3.2. Og'zaki an'anadagi ustozona professional (kasbiy) musiqa

Og'zaki an'anadagi professional kasbiy musiqa ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. O'zbek musiqa merosining ikkinchi qatlami xalq orasida ijod qilgan, keyinchalik ijrochilik maktabida tahsil olib yillar davomida ustozning saboqlarini olgan shogirdlarning ijrochilik mahoratini tushunamiz. Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa deganda biz maqomlar, katta ashulalar, suvoralar, mumtoz ashulalar kabi katta, murakkab va yirik shaklda yozilgan asarlarni tushunamiz. Ammo professional musiqachilar faoliyatida bizning asrimizgacha amalda nota yozuvi qo'llanilmagan. O'zbek professional musiqasining barcha murakkab namunalari professional kasbiy musiqa deb atalgan. Havaskor sozanda va xonandalar mashhur ustozlardan uzoq yillar davomida ta'lim olganlaridan keyin professional ijrochi bo'lib yetishganlar. Bu professional kasbiy ijrochilar hofizlar, sozandalar, raqqosalar, dorbozlar, qo'g'irchoqbozlar bo'lishgan. Og'zaki an'anadagi o'zbek professional musiqasi o'z janr va shakllarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Chunki, bu asarlarning tuzilishi murakkab bo'lib, katta avjlar, murakkab ritm usullari, qochirimlar, nolalar va keng diapazonlarga ega bo'lgan. Bu asarlarni ijro etish uchun boy tajriba, yuksak ijrochilik mahorati, jarangdor va keng diapazonli ovozga ega bo'lish kerak. Ayniqsa, nola va qochirimlarni kuylash uchun yuksak mahorat talab etiladi. Shuning uchun professional musiqa janrlariga oid bo'lgan ashula, katta ashula, epik dostonlar (adabiyotdan olingan), asarlar va maqomlar ijro etish maktabini o'rganish uchun yetuk ustoz san'atkorlardan yillar davomida saboq

olishlari lozim bo'lgan. O'tgan asrlarda nota yozuvi bo'lmagani sababli xalq musiqasi og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan. Hozirgi kunda O'zbekiston Konservatoriyasi Sharq musiqasi fakultetida professional musiqani ijro etish uchun yuqori malakali ijrochi san'atkorlar tayyorlanib kelinmoqda. Og'zaki an'anadagi ustozona musiqa merosimizda ashula va cholg'u kuylari, mumtoz kuy va ashulalar hamda maqomlar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan. Ularning jozibadorligi, ijrochiligi o'ziga xos namoyon bo'lgan va tinglovchilarga huzur bag'ishlab, qiziqish uyg'otgan.

Maqom. Og'zaki an'anadagi, kasbiy professional musiqa deganda albatta maqomlar, murakkab rivojlangan qo'shiq va ashulalarni inobatga olamiz. Maqom san'ati ko'pchilik Sharq xalqlari musiqa namunalari kabi musiqa merosi hisoblanadi. Masalan: arablarda «Nuba», Azarbayjonda «Mug'om», Afg'onistonda «Landay», qozoq xalqida «Kuyi», Hindistonda «Rog», o'zbek va tojik xalqlarida «Maqom» bo'lib, asrlar davomida qaror topib kelgan. IX–XV asrlarda Al-Forobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiylar tarixiy va nazariy tomondan maqomga ta'rif berib, chuqur ilmiy mazmunda ifodalab berganlar. O'zbekistonda maqomlar o'z hududiy belgilariga ko'ra 3 turkumga: Buxoro, Xorazm va Toshkent-Farg'ona maqomlariga bo'linadi. Har bir maqom ikkiga: cholg'u bo'limi «Mushkilot» va ashula bo'limi «Nasr»ga ajratiladi. Har bir maqom «Daromad», «Miyonxat», «Avj», «Dunasr» namunalardan iborat. Maqom san'atining asosiy qismini «Shashmaqom» tashkil qilgan.

Ashula. Ashula qo'shiq janriga biroz yaqin. Ammo qo'shiqqa nisbatan ashulaning sof musiqiy ko'lami ancha keng. Shu bois ashulada musiqiy matnning rivojlanishi ham davomliroq bo'lib baland avji borligi bilan sezilarli darajada farqlanadi. Ashula kuyining vazni mayin bo'lib chuqur ma'noga ega bo'lgan ijtimoiy fikr va his-tuyg'ular, ishq-muhabbat, sog'inch, alam va hasrat ifodalanadi. Xalq ashularining eng mashhurlaridan biri «Tanovar», «Farg'ona Tanovari», «Qo'qon Tanovari», «Yovvoyi Tanovar», «Tanovar I», «Tanovar II», «Tanovar III», «Yangi Tanovar» va boshqalar.

Katta ashula. Katta ashula o'zbek bastakorlik ijodiyotining noyob, benazir mahsullaridan biridir. Bu ashulaning asosiy qismi katta avjlardan iborat bo'lib jo'rsiz usulda kuylanadi. Uning ijrosi uchun keng hajmli ovoz va yuksak ijrochilik mahorati lozimdir. Shu boisdan ham u katta ashula deb ataladi. Bu janr asosan Farg'ona vodiysida keng tarqalgan. Katta ashulani ikki va undan ortiq

ashulachilar hech qanday cholg' u jo'rligisiz ijro etadilar. U ba'zan «patnusaki ashula» deb ham ataladi. Bunga sabab, ijrochilar qo'llarida likopcha ushlagan holda, goho navbatma-navbat, goho birgalikda baland pardalarga intilib, kuchli va ta'sirchan xonish qilishadi. Asarning she'riy matni sifatida o'zbek shoirlarining ishqiy, falsafiy, lirik, nasihatomuz mazmundagi g'azallari qo'llaniladi. Katta ashulalarga «Kirib bo'stonni kezdim», «Mehnat ahli», «Hormanglar», «Qoyilman» ashulalari misol bo'la oladi.

Suvora. Bu atamaning kelib chiqishi «suvoriy», ya'ni «otliq», «chavandoz» ma'nosini bildiruvchi so'z bilan bog'liq. Suvora asosan Xorazm vohasiga xosdir. Suvora shaklan va usluban ko'proq maqom ashulasi turiga tutashib ketgan. Suvorada doira usuli, davomli va baland avjlari, turkumli shaklning qo'llanishi yaqqol namoyon bo'ladi. Suvoralardan «Kajang suvora», «Yak parda suvora», «Savti yak parda», «Chavandozi suvora», «Savti chapandozi suvora», «Besh parda suvora» kabilar ayniqsa mashhurdir. Suvoralar odatda yakka hofizlikda tanbur, dutor, ba'zida tor yoki an'anaviy cholg' u ansambli jo'rligida ijro etiladi.



Doston. Dostonlar kishini maftun etuvchi qiziqarli mazmun va ajoyib she'riy musiqiy qo'shiq aytimlaridan iborat. Dostonxonlikning maftunkorligi shundan iboratki, unda yirik nasriy asar, hikoya va she'riy musiqa bir mushtarak asar bo'lib, uni san'atkor baxshi ijro etadi. Baxshi asarning nasriy qismlarini mohirona hikoya tarzida kuylaydi. Qo'shiqlar asosan o'zining ijrosidagi yakka cholg' u jo'rligida kuylanadi. Dostonlarda ishq-muhabbat yo'lidagi vafodorlik, Vatanga sadoqat, qahramonlik, do'stlik tuyg'ulari, tabiat go'zalligiga maftunkorlik kabi muhim ijtimoiy mavzular kuylanadi. Dostonxonlik Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida keng tarqalgan bo'lib, do'mbira jo'rli va quyi registrli ovozda kuylanadi. Xorazm vohasida esa dutor, tor yoki cholg' u ansambli jo'rligida ochiq ovozda ijro etiladi. Baxshilar termada (repertuarida) bor dostonlarni qisqacha ta'riflab kuylaydi. Dostonxonlikda esa «ichki ovoz» bilan she'riy usulda yoki ochiq ovoz bilan qo'shiqqa moslangan holda biror-bir doston to'liq kuylanadi. Xalq orasida «Alpomish», «Kuntug'mish», «Ravshan va Zulxumor», «Go'ro'g'li» dostonlari mashhurdir.


XXI asrga kelib maqomlarni o'rganish va ularni nota yozuviga tushirish maqsadida juda katta ilmiy izlanishlar qilindi. Jumladan:

QARI NAVO

O'zbek xalq kuyi
Z.Nazarov notaga olgan

Animato. M.M. ♩ = 120





Buxoro viloyatining xalq maorif noziri bo'lib xizmat qilgan Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan taniqli folklorshunos olim V.A Uspenskiy Toshkentdan Buxoroga taklif qilindi va «shahmaqom»ni ilk marotaba nota yozuviga oldi. Bu to'plam 1924-yilda nashr etildi. 1967-yilda tojikistonlik musiqashunoslar «Shahmaqom»ni besh jildda tayyorlab, Moskva shahrida nashrdan chiqarganlar. 1960–1975-yillarda akademik Yunus Rajabiy tomonidan qayta tayyorlangan «Shahmaqom» nomli 6 jildlik nota yozuvi nashrdan chiqarildi. «Shahmaqom» 24 maqomning bir-biriga o'xshash takrorlanadigan sho'balarini birlashtirib yaratilgan 6 maqom to'plamidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *O'zbek xalq musiqasi og'zaki an'anadagi ustozona professional kasbiy musiqaning yaratilish tarixi qanday?*
2. *O'zbek xalq musiqasining og'zaki an'anadagi ustozona professional kasbiy musiqa turlari va mazmunini ochib bering.*
3. *Maqomning yaratilish tarixi.*
4. *«Suvora» musiqiy janrining yaratilish tarixi.*
5. *«Katta ashula» qanday musiqiy janr?*
6. *Dostonning yaratilish tarixi.*
7. *Maqomning yaratilishiga asos solgan olimlarning ishlari haqida gapirib bering.*

3.3. O'zbek xalq milliy cholg'u sozlari

Sharqning barcha xalqlari kabi o'zbek musiqasida ham sozandachilik san'ati rivojlanib, ijrochilik madaniyatida yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo musiqachilar bizning asrimizgacha amalda nota yozuvini qo'llashmadi. XIX asrda eng mashhur musiqachilar Amir saroyiga jalb etildi. Musiqa asboblari rang-barangligi, ijrochilik imkoniyatlari va tuzilishi bilan sharq xalqlari musiqa san'ati rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Har bir cholg'u asbobidan sadolanayotgan o'ziga xos va yoqimli tovishlar milliy musiqamizni sermazmun, ohangdor, jozibali ekanligidan dalolat beradi. O'zbek xalq musiqacholgu'olari 3 guruhga bo'linadi:

1. Torli cholg'ular.
2. Damli (puflama) cholg'ular.
3. Zarbli cholg'ular.



qo'shnay



afg'on rubobi



rubob-
prima



tanbur



surnay

karnay



nay



Torli cholg'ular guruhi ijrochilik vositasi asosida torli chertma torli kamonli, torli zarbli guruhlarga bo'linadi.

Dutor — ikki torli chertma cholg'u bo'lib, tut yoki yong'oq daraxtidan tayyorlanadi. Noksimon kosasi qovurg'ali yoki o'yma shaklda ishlangan bo'ladi. Kosa qismi ustida taxtadan qopqog'i va uning ustiga o'rnatilgan xarragi bor.

Do'mbira cholg'usi ham ikki torli chertma bo'lib, o'ziga xos bo'g'iq tovushli, nisbatan qisqa va silliq dastasi bilan dutordan farq qiladi.

Tanbur cholg'usining noksimon o'yma kosasi va unga ulangan dastasi bo'lib, tut yog'ochidan tayyorlangan. Uzun dastasida 16 ta bog'lama pardasi bor. Tanbur 3 torli bo'lib noxun yordamida chalinadi.

Rubob, afg'on rubobi — chuqur o'yilgan teri, qoplangan qorin qismi hamda kalta va yog'on dastasi bo'lib, 5 ta asosiy tori bor. 10–11 ta yordamchi quloq simlari bo'lib, ular aks-sado sifatida yangraydi.

Qashqar rubobi — cho'michsimon kosa va 2 yog'och shoxli uzun dasta shaklida 5 tordan iborat.

Ud — torli chertma cholg'u eng ko'hnalaridan biri bo'lib, nok shaklidagi katta kosa va silliq dastasi bilan ajralib turadi. U mezob vositasida chalinadi.

Qonun — shaklan chang soziga o'xshab ketadi. Ammo yog'ochli qalpoqning ma'lum qismi teri bilan qoplangan. Uning xarrak o'rnatilgan 24 ta 3 talik ichak torlari tortilgan. U noxun vositasida tirnab chalinadi.

Torli kamonli turga: qo'biz, g'ijjak, sato kiradi.

Qo'biz — qadimdan qo'llanib kelingan. Uning o'yma kosasi pastdan 1 quyruq, yuqoridan esa dasta bilan bir butun holda yog'ochdan yasaladi. Qo'bizning ikki tori ot dumining qilidan yasaladi.

G'ijjak — qo'bizga nisbatan uzun dastasi bo'lib, tut yoki o'rik daraxtidan o'yib ishlangan dumaloq kosasi teri bilan qoplangan bo'ladi. G'ijjakning yoyiga ot qilidan bir o'rami tortilgan bo'ladi. Asosan 4 torli bo'ladi.

Sato sozi o'zining katta hajmi bilan ajralib turadi. Uning bog'lama pardali uzun dastasi, kosasi, qopqog'iga muhrlangan has pardalari hamda tashqi qiyofasi tanburni eslatadi. Asosiy simlar tagidan tortilgan va dastagorning yon quloqlariga bog'langan 8–11

tori aks-sado berib turishi uchun mo'ljallangan. Asosan ustozona musiqa namunalari ijro etiladi.

Torli zarbli turga chang kiradi. Chang trapetsiya shakliga ega. Unda jami 40 ta tor bo'lib, ular 14 ta asosiy torlarga birlashadi. Torlar 2 ta cho'plar vositasida urib va chertib chalinadi.

Damli cholg'ular guruhiga nay, qo'shnay, bo'lamon, surnay, karnay, chanqovuz kiradi.

Nay yo'nalmasiga ushlangan holda puflab chalinadi. U 450–320 mm bo'lib, 6 ta teshigi bor. Puflama tezligi esa nayning bir uchi yonida joylashadi.

Qo'shnay – diametri 14–16 mm bo'lgan ikkita qamish nayning o'zaro bog'lamasidan iborat bo'lib, uzunligi 250–300 mm, nayning bir tomonidan tovush hosil etish uchun tilchalar yo'nilgan bo'ladi, hamda har birida 6 ta yoki 7 ta teshigi bor.

Bo'lamon – tut daraxtidan ishlangan surnay shaklli cholg'udir, ammo hajmi surnaydan kichik. Uzunligi 250–300 mm, puflama naychasida tilchasi bor. Bo'lamonda 8 ta teshigi bor. U ko'proq Xorazm musiqa an'anasiga xosdir.

Surnay – o'rik yoki yong'oq yog'ochidan konussimon nay shaklida o'yib yasaladi. Uzunligi 450–500 mm, old tomonida 7 ta, ostida 1 ta teshikchasi bor. Surnayning puflama tomoniga metall naycha o'rnatilib unga qo'sh tilchali yupqa plastinka sadat kiygiziladi va uning vositasida tovush hosil bo'ladi.

Karnay – misdan yasalgan puflama cholg'u. Uzunligi 2 m va undan ortiq bo'lishi mumkin. Og'zi kengayib boruvchi konussimon shaklda, puflama tomoniga mushtuk o'rnatilgan bo'ladi. Olib yurishga qulay bo'lishi uchun 3 qismga ajratiladi. Unda teshiklari bo'lmaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Sharq xalqlarining sozandachilik san'ati tarixini aytib bering.*
2. *O'zbek xalq cholg'u sozlari necha turga bo'linadi?*
3. *Torli cholg'u sozlariga qanday cholg'ular kiradi va ularning tuzilishi qanday?*
4. *Damli cholg'u sozlariga qanday cholg'ular kiradi va ularning tuzilishi qanday?*
5. *Zarbli cholg'u sozlariga qanday cholg'ular kiradi va ularning tuzilishi qanday?*
6. *Torli cholg'ular nimalar yordamida ijro etiladi?*

3.4. Yunus RAJABIY (1897—1976)



O'zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, sozanda, hofiz va bastakor, akademik Yunus Rajabiy ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.

Yunus Rajabiy Toshkent shahrida 1897-yilning 5-yanvarida oddiy bog'bon oilasida tug'ildi. Bolaligidanoq xonandayu sozandalar davrasida o'sdi. Bir soz bo'lsa, chalsam deb orzu qilardi. Kunlarning birida taxtaga ot yolini tortib, bir soz yasab chalib yurdi. Buni ko'rgan akasi unga kichkina do'mbira keltirib berdi. Yana boshqa akasi dutor keltirib berdi. Hofizlardan eshitgan kuylarni dutorda mashq qila boshladi. Akasi Rixsi Rajabiy tanburchi edi, uning yoniga borib olib dutorda jo'r bo'ladigan bo'ldi. Mashhur hofiz Mulla To'ychi Toshmuhamedov va san'atkor Shorahim Shoumarovlardan maqom hamda xalq qo'shiqlarini o'rgana boshladi. O'tkir shirali ovozi bilan iste'dodli xonanda sifatida «Qaro ko'zim», «Girya», «Eshvoy» ashulalari bilan o'z muxlislariga ega edi.

1918-yil Toshkentda «Turkiston xalq konservatoriyasi» tashkil topdi. 1919-yilda Yunus Rajabiy shu o'quv yurtiga qabul qilindi. 1922-yilda Shorahim Shoumarov bilan birgalikda Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni asosida musiqali drama yaratdi. 1923-yilda o'qishni tugatib, Samarqanddagi O'zbek bilim yurti qoshida ochilgan musiqa maktabiga muallim qilib yuborildi. 1925—1926-yillarda Samarqand musiqali drama teatrida musiqa rahbari bo'lib ishladi. «Abdulfayzxon», «Yorqinoy», «Padarkush» dramalariga musiqa bastaladi. 1934-yilda Moskvadagi malaka oshirish kursida, so'ngra Toshkent konservatoriyasining tayyorlov kursida Imomjon Ikromov bilan birgalikda saboq oldi. 1937-yilda Moskvada o'tgan birinchi O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasi «Yolg'iz» katta ashula, «Endi sendek» va «Hammamiz» kuylari asosida uch qismdan iborat suitalar yaratib, oltin soat bilan mukofotlandi.

1939-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni va «Shavkatli mehnati uchun» medali bilan taqdirlandi.

1945-yil 9-mayda urush tugagandan so'ng, Yunus Rajabiy radio ansambliga rahbar qilib tayinlandi. 1958-yilda unga maqomchilar ansambliga rahbarlik qilish topshirildi. Shu davrda xalq musiqa merosining durdona asarlarini notaga yoza boshladi. 1955-yilda «O'zbek xalq musiqasi»ning birinchi tomi nashrdan chiqdi. Keyinchalik 1960—1970-yillarda «Shashmaqom»ning olti tomligi chop etildi. 1920—1940-yillarda turli mavzulardagi mumtoz va zamonaviy kuylar: «Fabrika yallasi», «Qahramon», «Paxta», «G'alaba», «Vatan» kabi qo'shiqlar tez orada ommalashib ketdi. Yunus Rajabiy musiqaning boshqa janrlarida ham qator asarlar yaratdi. «Paxta» nomli simfonik suitasi, «Farg'onacha» suitasi va «Segoh» simfonik pyesasi, o'zbek cholg'u ansambli uchun «Raqs», «Naylagayman», «Tong nasimi» va «Yuzing oydek» nomli uch qismli vokal simfonik suitalarini bastaladi.

Yunus Rajabiy teatr uchun «Rustam» musiqali dramasini, «Avaz», «Qasos» pyesalarini, «Muqanna», «Farhod va Shirin», «Alisher Navoiy Astrobodda», «O'q'il uylantirish» musiqali dramalarini yaratdi. «Xolisxon», «Shohsanam» musiqali dramalari sahna yuzini ko'rdi.

U samarqandlik Hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulovning qo'l ostida ashula aytish va xalq cholg'u asboblarining barcha turlarini chalishni o'rgandi.

Yunus Rajabiy O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda ulkan xizmatlari uchun qator orden va medallar bilan taqdirlandi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvonlari berildi. 1966-yili O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga a'zo bo'lib saylanib, akademik unvoniga sazovor bo'ldi.

3.5. «Shahmaqom»

«Shahmaqom» asosan Buxoroda rivojlanib, uning paydo bo'lishi uzoq asrlarga borib taqaladi. «Shashmaqom» ikki birodar xalq o'zbek va tojik san'atkorlarining ijodiy mahsulidir. Shu bois shahmaqom kuylari har ikkala til uchun ham mushtarakdir. Shuning uchun unda qadimgi ajdodlarimiz kuy ohanglarining xususiyatlari saqlanib kelgan. XVIII asrgacha u 12 maqomdan iborat bo'lgan. Shu asr

musiqachilari tomonidan 6 maqom shaklida takomillashtirildi. Shuning uchun ham u «Shahmaqom» deb ataladi. Bu ulkan musiqiy turkum quyidagi maqomlardan tashkil topadi: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq», o'z navbatida har bir maqom ikki yirik bo'lim — cholg'u (mushkilot) va ashula (nasr) yo'llaridan iboratdir. Cholg'u kuylarida «Tasnif», «Tarje'», «Gardun», «Muxammas», «Saqil» nomli kuylar asosiy o'rin tutsa, ashula bo'limida «Sarahbor», «Talqin», «Nasr», «Savt» va «Mug'ulcha» yo'llari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni yetuk ustozlar va ulardan ta'lim olgan sozanda va hofizlar mukammal ijro eta oladilar. «Shashmaqom»da xalq musiqasi badiiyatining yuksak cho'qqilari mujassamlashgan. Maqom ashulalari Hofiz, Bedil, Jomiy, Kamoli Xo'jandiy, Navoiy, Ogahiy, Muqimiy kabi sharq klassik shoirlar nazmi bilan kuylanadi.

«Shashmaqom» (olti maqom) Buxoro shahrida maqomdon sozanda va xonandalar ijodida shakllangan. «Shashmaqom» saroy sharoitida ijro etilgan, rivojlangan bo'lib, o'z ichiga quyidagi qismlarni oladi:

1. «Buzruk» (katta, ulug').
2. «Rost» (to'g'ri. haqqoniy).
3. «Navo» (ohang, kuy).
4. «Dugoh» (ikki parda).
5. «Segoh» (uch parda).
6. «Iroq» (mamlakat nomi).

Maqomlarning har biri yirik shakldagi turkum asar bo'lib, 20 dan 45 tagacha bo'lgan katta va kichik hajmdagi maqom yo'llarini o'z ichiga oladi.

Maqomlarning ijrochilik uslublari to'g'risida aytib o'tadigan bo'lsak, hozirgi kunda to'rtta asosiy mahalliy uslublar mavjud. Bu Farg'ona — Toshkent, Xorazm, Buxoro—Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo. Ushbu mahalliy uslublar qadimdan etnik yaqin, lekin maqomlarni ijro etish uslublari turlicha, jumladan, Buxoro—Samarqand vohasida Shashmaqom qismlari ko'proq ijro etiladi. Xorazmda esa Xorazm maqomlari, vodiy vohalarida Farg'ona—Toshkent maqomlari barqarordir.

Maqom ijrochilari yillar davomida usta-shogird uslubida o'rganib, keyinchalik maqom maktabini tashkil qiladilar.

Mahalliy uslublar ham maqom maktablarida turlicha o'rgatiladi.

Hozirgi kunda maqomchilar ijro yoʻnalishi ijro jarayonida yaqqol koʻrinadi.

Maqomlarda asosiy musiqa asbobi tanbur hisoblanadi, doira musiqa asbobi esa hamisha maqomlarning usulini ushlab turishga yordam beradi.

Biz aytib oʻtgan shashmaqomda tanbur yetakchi musiqa asbobi hisoblanadi.

«Shashmaqom» murakkab musiqa asari boʻlib, uning ichki tuzilmasi quyidagicha:

1. Cholgʻu boʻlimi (mushkilot).
2. Ashula boʻlimi (nasr).

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. «Shashmaqom»ning yaratilish tarixi.
2. «Shashmaqom»ni dastlab qaysi hofizlar ijro etgan?
3. «Shashmaqom»ning yaratilishiga kimlar asos solgan?
4. «Shashmaqom» qaysi viloyatlarda mavjud?
5. «Shashmaqom»larni har bir viloyatda bir-biridan farqi nimada?
6. «Shashmaqom» nechta maqomdan iborat?
7. Maqomlar qanday oʻrgatiladi?

«SHASHMAQOM»NING CHOLGʻU BOʻLIMI – «MUSHKILOT»

«Shashmaqom»da cholgʻu boʻlimi alohida oʻringa ega. Cholgʻu boʻlimi «mushkilot» deb nomlanadi. «Mushkilot» – «qiyinchiliklar», «ogʻirlik» degan lugʻaviy maʼnoni anglatadi. Maqomning birinchi boʻlimida shu maqomga mansub barcha cholgʻu kuylari oʻrin olgan. Ular qator yirik hajmli hamda nisbatan ixchamroq asarlardan tarkib topadi. Cholgʻu boʻlimi quyidagi qismlardan iborat:

Tasnif – «sinflashgan», «tabaqalashgan», «yaratilgan» maʼnolarini bildiradi. Bu qism mushkilot boʻlimida asosiy qismni tashkil qiladi. Tasnif qismida butun maqomning bosh cholgʻu vazifasi yuklanadi.

Tarjiʼ – «qaytarish», «naqarot» maʼnolarini bildiradi. Tarjiʼ mushkilot boʻlimining ikkinchi qismi hisoblanadi. Tarjiʼda doira usuli joriy etilmagan, tasnifning doira usulidan foydalaniladi.

Gardun – «osmon», «falak», «aylana» maʼnolarini bildiradi. Gardun mushkilotning uchinchi qismi hisoblanadi va alohida doira usuliga ega.

Muxammas — «beshlik», «beshlangan» ma'nolarini bildiradi. Mushkilot bo'limida u to'rtinchi qismni tashkil qiladi. Muxammas o'ziga xos, hajman katta doira usuliga ega, shu bois, bu qism qolgan qismlarga qaraganda murakkab hisoblanadi.

Saqil — «og'ir», «qiyin» ma'nolarini bildiradi. Saqil cholg'u bo'limida yakunlovchi qism hisoblanib, hajm jihatidan murakkab doira usuliga ega.

Cholg'u bo'limining har bir qismi maxsus shaklda tuzilgan. Bular «xona» va «bozgo'y» nomi bilan mashhur.

Xona — «uy-joy» ma'nosini bildiradi. Bu qism cholg'u bo'limida asosiy rivojlanuvchi qism hisoblanib, band vazifasini bajaradi.

Bozgo'y — «qayta aytish» ma'nosini bildiradi. Bu cholg'u kuyning rivojlanish jarayonidagi ma'lum takroriy tuzilmasi hisoblanib, naqarot vazifasini bajaradi.

«SHASHMAQOM»NING ASHULA BO'LIMI — «NASR»

Shashmaqomning ashula bo'limi «nasr» deb nomlanadi. Nasr — «ko'mak», «yordam», «zafar», «g'alaba», «sochma asar» ma'nolarini bildiradi. Nasr ikki guruhga bo'linadi: cholg'u bo'limidan keyingi «nasr» deb ataladigan ashula bo'limi xilma-xil, katta va kichik, sodda va murakkab ashula namunalaridan tashkil topadi.

I. Ashula bo'limining birinchi guruh sho'balari quyidagi qismlardan iborat: 1. «Saraxbor» — bosh xabarlar («sar» — bosh, «axbor» — xabar) ma'nosini bildiradi. Bu qism ashula bo'limining bosh qismi hisoblanadi. 2. «Talqin» — «tushuntirmoq», «uqtirmoq» ma'nolarini bildiradi. 3. «Nasr» — «ko'mak», «yordam», «zafar», «g'alaba», «sochma asar» ma'nolarini bildiradi. Nasr atamasi nafaqat ashula bo'limini, balki ma'lum bir qismini tashkil qiladi. 4. «Ufar» — «harakatchan», «yengil» ma'nolarini bildiradi. Bu qism raqs-bopligi bilan boshqa qismlardan ajralib turadi.

II. Ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balarini «Savt» va «Mo'g'ulcha» nomli qism tashkil qiladi. «Savt» va «Mo'g'ulcha» quyidagi qismlardan iborat: 1. «Talqincha». 2. «Qashqarcha». 3. «Soqiynoma». 4. «Ufar».

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. «Shashmaqom»ning mushkilot (cholg'ʻu) bo'limi necha qismdan iborat?
2. Bu qismlarning nomi qanday ataladi?
3. «Shashmaqom»ning nasr (ashulalar) bo'limi necha qismdan iborat?
4. Har bir qism qanday nomlanadi va qanday ma'noni anglatadi?
5. Nasr necha guruhga bo'linadi?

3.6. Xorazm maqomlari

Xorazm maqomlari XIX asr boshlarida shakllangan bo'lib, ular ham shashmaqom kabi olti maqomdan iboratdir. Har bir maqom cholg'ʻu va ashula bo'limlaridan tashkil topadi. Bu bo'limlar xorazm maqomlarida «chertim yo'li» va «aytim yo'li» deb nomlanadi.

Ovozing seni

Oshiq G'arib va Shohsanam dostonidan

Xalq o'zi yet-qiz-gan a-ziz meh-mo-nim,
bo-la-ma o'x-shay-di o-vo-zing se-ni.
Tez xa-ba-rin ber-gil chiq-mas-dan jo-nim,
Og'-li-ma o'x-shay-di o-vo-zing se-ni.
Bo-la-ma o'x-shay-di no-li-shing se-ni

Xalq o'zi yetqizgan aziz mehmonim,
Bolama o'xshaydi ovozing seni.
Tez xabarin bergil chiqmasdan jonim
O'g'lima o'xshaydi ovozing seni
Bolama o'xshaydi nolishing seni.

Chertim yo'lida tasnif maqom, tarje' maqom, peshrav, muxammas, saqil va ufar nomli cholg'u kuylar bo'ladi. Maqomlarning cholg'u kuylari tanbur, bo'lamon, dutor, surnay yoki xalq cholg'u ansamblida ijro etiladi. Aytim yo'lida esa tasnif maqom, talqin, nasr, tarona, suvora, naqsh, faryod kabi ashula yo'llari mujassam etilgan. Maqom ashula yo'llarida Jomiy, Navoiy, Sakkokiy, Fuzuliy, Ogahiy kabi mumtoz shoirlarning asarlari qo'llaniladi. Xorazm maqomlarining mahoratli va taniqli ijrochilari Niyozjonxo'ja, K. Xorazmiy, Feruz, M. Xarratov, H. Boltayev, K. Otaniyozov, M. Yusupov kabi san'atkorlar ijro etishgan.

Xorazm vohasida ham maqomlar keng tarqalgan. Ular ham Buxoro 6 maqomi turkumidan iborat bo'lib, cholg'u va ashula yo'llaridan tarkib topgan. Xorazm maqomlarining usullari kuy va ohanglari shashmaqomga yaqin. Ammo ular mahalliy uslubda ijro etilishi bilan farq qiladi. Xorazm maqomlari tarkibida mutloq farq qiluvchi kuy va ashulalar ham mavjud.

3.7. Farg'ona – Toshkent maqomlari

Bu turdagi maqomlar shashmaqomdan farqli bo'lib, bir turkumga uyushmagan. Balki alohida-alohida bo'lgan kichik turkumlardan tashkil topgan. Xalqimizning «Munojot», «Segoh», «Bayot», «Bayoti Sheroziy», «Dugohiy», «Husayniy», «Surnay navolari» kabi sevimli kuy va ashula yo'llari shular jumlasidandir. Mazkur turdagi maqom yo'llari asosan Toshkent–Farg'ona vodiysida mashhur bo'lib, keng tarqalgani sababli ular «Farg'ona – Toshkent» maqomlari deb yuritiladi. Ularda vodiya tarkib topgan ashula, yalla, katta ashula janrlarining kuy-ohang, xususiyatlari hamda doira usullari o'zining yorqin ifodasini topgan. Hozirgi davrda maqomlarimiz to'la holda notaga cd va gram yozuvga yozildi. Ular ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu ishda akademik Yunus Rajabiy va kompozitor Matniyoz

Yusupovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'ldi. Toshkent davlat konservatoriyasidagi Sharq musiqasi bo'limida yuqori malakali maqomchilar tayyorlanmoqda. Endilikda maqomlarimiz chet el musiqashunoslari diqqatini jalb etmoqda. Hozir respublikamiz viloyatlarida o'nlab havaskor maqomchilar ansambllari soni ko'payib bormoqda. Buxorodan «Shavqiy» va «Nozanin», Boysundan «Shalola», Samarqanddan «Beshqarsak» folklor ansambllari va ko'plab onaxonlar ashula va raqs ansambllari xalqimiz orasida mashhurdir.

Dutor bayoti

O'zbek xalq kuyi



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xorazm maqomlarining yaratilish tarixi.
2. Xorazm maqomlari nechta maqomdan iborat?
3. Xorazm maqomlarida ashula yo'li va musiqa yo'li qanday ataladi?
4. Toshkent-Farg'ona maqomlari qanday nomlanadi?
5. Toshkent-Farg'ona maqomlarining boshqa viloyat maqomlaridan farqi?
6. Xorazm maqomlari qaysi shoirlar she'rlariga bastalangan?
7. Xorazm maqomlarini mahoratli ijro etgan hofizlar kimlar?

IV BOB. O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARINING HAYOTI VA IJODI

Mutal BURXONOV
(1916—2002)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasining muallifi, O‘zbekiston xalq artisti, Hamza va Berdaq nomidagi davlat mukofotlari sovrindori Mutal (Mutavakkil) Burxonov hayoti va ijodiy faoliyati zamonaviy o‘zbek professional san’atining rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir.



Mutal Burxonov 1916-yil 5-mayda Buxoro shahrida tug‘ildi. Bolaligidan musiqaga qiziqdi va mehr qo‘ydi. Bolalik davrida oldin eski diniy maktabda, so‘ngra yangi maktablarda o‘qidi. Tanbur chalishni avval amakisidan, so‘ngra otasi G‘iyos Abdug‘anidan o‘rgandi. 1928—1932-yillarda Samarqandda O‘zbekiston musiqa va xoreografiya institutida ta‘lim oldi. O‘qishni bitirgach, 1932—1935-yillarda Toshkentda Hamza va Dushanbeda A. Loxutiy nomidagi drama teatrlarida sozanda va musiqa rahbari lavozimlarida ishladi, musiqa bastalashga intildi. 1935-yilda Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan «O‘zbek opera studiyasi»da tahsil oldi. 1938-yilda Moskva konservatoriyasida professor S. N. Vasilenko sinfida o‘qishni davom ettirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ko‘ngillilar armiyasi safida Moskva shahri himoyasiga otlandi. 1942-yili qattiq betob bo‘lib Toshkentga qaytib davolandi, ijod bilan shug‘ullandi. 1946-yildan o‘qishini davom ettirib, 1949-yili Moskva konservatoriyasi kompozitorlik fakultetini muvaffaqiyatli tugalladi.

U talabalik davridayoq ilk ijodini atoqli shoir A. Loxutiy she‘rlariga bastalagan «Ey bulbul» romansi va «Buti nozaninam» (Mening go‘zalim) qo‘shig‘idan boshladi.

Mutal Burxonov «Maftuningman», «Samolyotlar qo‘nolmaydi», «Surayo», «Boy ila xizmatchi», «Abu Ali ibn Sino» kinofilmlariga

qo'shiqlar yozdi. U birinchilardan bo'lib romans janrini respublikamiz musiqiy hayotiga joriy etdi. Ulug' shoir Alisher Navoiy g'azallariga bastalagan «Tabassum qilmading» va Hofiz g'azaliga yakkaxon va simfonik orkestr uchun «Namedonam chi nom dorad» (Ismingni bilmayman) romans-poemasi alohida o'rin tutadi. Yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Gullagay O'zbekiston» kantatasi, «Bahor qo'shiqlari» vokal-simfonik poemasi, «Oq oltin» vals-qo'shiq poemasini yaratdi.

Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyiga bag'ishlab Abdulla Oripov bilan hamkorlikda «Alisher Navoiyga qasida» vokal-simfonik poemasini yaratdi. M. Burxonov birinchilardan bo'lib o'zbek, tojik, uyg'ur, afg'on va eron xalq qo'shiqlarini: «Go'zal qizga», «Sari kuxi baland», «Gulli gandum», «Bibigul» asarlarini xor uchun moslashtirdi. «Alisher Navoiy», «Hikmat», «Oygul va Baxtiyor» spektakllari uchun musiqalar yaratdi. Bolalar xori uchun «Vatan bizga mehribon», «Buxoroyi Sharif», «Ochil paxtalon», «Ey ulug' ustoz» kabi qo'shiqlarga kuy bastaladi. Yakkaxon xor va simfoniya orkestri uchun besh qismli «Abadiy xotira» nomli rekviyem yaratgan. Bu asar qatag'on yillarida qurbon bo'lgan o'zbek xalqining ulug' farzandlari xotirasiga bag'ishlangan.

Kompozitor Mutal Burxonov O'zbekiston musiqa madaniyati rivojlanishida buyuk xizmatlari uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo'ldi. «Mehnat shuhrati» medali, O'zbekiston, Tojikiston va Belarus hukumatlari faxriy yorliqlari bilan mukofotlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mutal Burxonov qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Mutal Burxonov qanday janrlarda asarlar yaratgan?
3. U qanday asarlarni xor uchun qayta ishlagan?
4. U bolalar uchun qanday asarlar yaratgan?

Muxtor ASHRAFIY (1912—1975)

Muxtor Ashrafiy, O‘zbekiston xalq artisti, Xalqaro va Respublika mukofotlari sovrindori, kompozitor, dirijor, muallim, yirik jamoat arbobi.

Muxtor Ashrafiy 1912-yil 11-iyunda Buxoroda tug‘ildi, juda yoshligidan boshlab musiqaga qiziqdi. Ashrafiy bolaligida madrasada, so‘ngra yangi tipdagi boshlang‘ich maktabda ta‘lim oldi. 1924-yilda musiqa texnikumida va Maorif institutida o‘qidi.



1928-yilda Samarqanddagi O‘zbek musiqa va xoreografiya institutiga o‘qishga kirdi. Mana shu yillarda uning dastlabki ijodiy ishlari — bir ovozli xorlar va qo‘shiqlari yaratilgan edi. 1929-yilda u Sh. Ramazonov va T. Sodiqov bilan birgalikda «Sadrash» marshini yaratdi va o‘zi talabalar simfonik orkestriga dirijorlik qildi.

1930-yilda Muxtor Ashrafiy O‘zbek davlat musiqali drama teatrining bosh dirijori qilib tayinlandi.

1934—1937-yillar davomida u Moskva konservatoriyasi qoshidagi opera studiyasida taniqli bastakor N. Vasilenkodan musiqa ijodi nazariyasi bo‘yicha ta‘lim oldi.

1937-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbek san‘ati dekadasiga dirijor qilib tayinlandi. Toshkentga qaytib kelgach, O‘zbek opera va balet teatrining bosh dirijori va badiiy rahbari lavozimiga tayinlandi.

1939-yil Muxtor Ashrafiy S. Vasilenko bilan birga «Bo‘ron» operasini yozdi (K. Yashin librettosi), oradan bir yil o‘tgandan keyin esa bu ikkala bastakorning boshqa bir asari — «Ulug‘ kanal» operasi yaratildi (K. Yashin va M. Rahmonov librettosi).

Ulug‘ vatan urushi yillarida Muxtor Ashrafiy «Jangga boraman», «Qasam», «Sevgilimga salom», «Jangda botir bo‘l» kabi vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar, «Turon», «Ulug‘ kanal» va «Sherali» asarlaridagi ayrim nomerlar asosida skripka bilan fortepyano uchun kichik pyesalar yaratdi.

1958-yil fevral oyida Toshkentda Ashrafiyning «Dilorom» operasi (K. Yashin va M. Muhamedov librettosi) sahnaga qo'yildi. So'ngra 1962-yilda uning boshqa bir operasi — «Shoir qalbi» (Izzat Sulton librettosi) yaratildi. M. Ashrafiy 1964-yilda B. Bargi pyesasi asosida «Mirzo Izzat Hindistonda» sahna asarini yozdi. 1963—1964-yillarda Sadridin Ayniy xotirasiga bag'ishlab «Temur Malik» simfonik poema ropsodiyasini, «Bayram uverturasi»ni, «Sadoqat» (Habibiy she'ri), «Ajoyib tun» (Y. Qurbon she'ri) va «Ko'zlari ofatijon» (T. To'la she'ri) qo'shiqlarini yozdi.

Bastakor 1965—1970-yillar mobaynida «Sevgi tumori» baletini, simfonik orkestr va ovoz uchun «Ona mehri» romansini, «Jangovar kunlarda» vokal simfonik poemasini, simfonik orkestr uchun «Subhidamda» xoreografik manzaralarini yaratdi. «Dilorom» va «Shoir qalbi» operalari musiqalari asosida simfonik orkestr uchun ikkita suita yozdi. Bundan tashqari kompozitor «Momaqaldiraqda tug'ilganlar», «Koniyyuta g'orining siri», «Dilorom» (film-balet) va «Qadimgi qal'a afsonasi» kinofilmlariga musiqalar bastaladi.

1964—1966-yillarda yangi tashkil topgan Samarqand opera va balet teatri direktori, badiiy rahbari va bosh dirijori, 1966—1971-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Akademik katta opera va balet teatri badiiy rahbari va bosh dirijori, 1971-yildan umrining oxirigacha Toshkent davlat konservatoriyasi rektori vazifalarini bajardi. M. Ashrafiy O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan. U «Shuhrat» ordeni, ikki marta davlat mukofoti, Hamza nomidagi respublika davlat mukofoti, J. Neru nomidagi Hindiston davlat mukofoti, Jamol Abdul Nosir nomidagi Misr davlat mukofoti sovrindori.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Muxtor Ashrafiy qachon va qayerda tug'ilgan?*
2. *Muxtor Ashrafiy qanday operalar yaratgan?*
3. *U qanday janrlarda ijod qilgan?*
4. *U qaysi rahbarlik lavozimlarida ishlagan?*

To'xtasin JALILOV (1896—1966)



O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor, sozanda To'xtasin Jalilov XX asr o'zbek musiqa tarixida katta o'rin egallaydi. U lirik ashula va kuylar, qirqaqa yaqin musiqali drama va komediyalar, «Tohir va Zuhra» operasini yaratib respublikamizda mazkur janrlarning taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shdi. Ustoz ijodiy izlandi, tinmay mehnat qildi, rahbarlik va jamoatchilik faoliyati bilan musiqa san'atida chuqur iz qoldirdi. U yetishtirgan yuzlab shogirdlar ham O'zbekiston musiqa san'ati ravnaqi yo'lida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

To'xtasin Jalilov 1896-yilda Andijon shahrida tug'ildi. Bolaligidan musiqaga qiziqib, 10 yoshligidayoq butun Farg'ona vodiysida «Ovozi yoqimli ashulachi» sifatida mashhur edi. To'xtasin Jalilov Qo'qonga borib, Eshon g'ijjakchi, Madamin doirachi, Yusufjon changchilardan ko'pgina cholg'u asboblari chalishni o'rgandi, 1919-yilda Andijon shahri milliy cholg'u ansamblida sozanda bo'lib ishladi. Keyinchalik ijrochilik, bastakorlik, pedagogik faoliyati yanada keng quloch yozdi. U yaratgan musiqali spektakllar teatr sahnalarida bir necha yillar davomida muvaffaqiyat bilan ijro etildi. To'xtasin Jalilov Toshkentdagi musiqali teatrga musiqa rahbari bo'lib tayinlandi, keyinchalik bu teatr Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatriga aylandi.

U 1935-yilda Londonda bo'lib o'tgan butun dunyo raqs festivalida qatnashib, katta muvaffaqiyat qozondi. U Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon teatr sahnalarida ko'plab musiqali dramalar yaratilishiga asos soldi.

To'xtasin Jalilov Toshkentdagi Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida bir necha yillar (1940—1949) badiiy rahbar bo'lib ishladi.

Muqimiy teatrida sahnaga qo'yilgan eng sara durdona

asarlarning yaratilishida T. Jalilovning xizmatlari katta bo'ldi. Muqimiy teatriga shon-shuhrat keltirgan «Qurbon Umarov», «Alpomish», «Muqimiy», «Nurxon», «Tohir va Zuhra» musiqali dramalari xalq olqishiga sazovor bo'ldi.

U o'ndan ortiq dramalarga musiqa yozdi: «Asrlar», «Nurxon», «Tohir va Zuhra», «Ravshan va Zulxumor», «Muqimiy», keyinchalik «Tohir va Zuhra» operasini yaratdi. Bolalar uchun esa konsertlar, qo'shiqlar, o'zbek xalq kuylari, pyesalar, suitalar yozdi.

Bastakor o'ttizinchi yillarda «Gulsara» musiqali dramasi uchun shuningdek, «G'unchalar», «Alpomish», «Surnaychi», «Ravshan va Zulxumor» spektakllariga kuy bastaladi. «Ona Vatan», «Oldinga bos, bolam», «Farhod qahramonlari» qo'shiqlarini yaratdi.

To'xtasin Jalilov 200 dan ortiq xalq sevib tinglaydigan dilbar qo'shiqlar muallifi hamdir. U o'z asarlarida o'zbek xalq musiqasi uslubining o'ziga xosligini, tabiiyligini, qochirimlarini saqlagan holda xalq qo'shiqlari va kuylariga yangi ohang, yangi mazmun baxsh etdi. Bastakor yaratgan qo'shiqlar bugungi kunda ham o'z qadr-qiyamatini yo'qotmay, xalqimizni mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

To'xtasin Jalilov O'zbekiston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvonlariga sazovor bo'ldi va bir qator orden va medallar bilan mukofotlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *To'xtasin Jalilov qachon va qayerda tug'ilgan?*
2. *To'xtasin Jalilov qanday janrlarda asarlar yaratgan?*
3. *U qanday teatrlarda ish faoliyatini olib borgan?*
4. *To'xtasin Jalilov o'zbek musiqasini rivojlanishiga qanday hissa qo'shgan?*

Muhammadjon MIRZAYEV
(1913—1999)

O'zbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev ajoyib qo'shiq, ashula va kuylari bilan el-yurt hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi. Uning yaratgan asarlari hayotni, sevgi-muhabbatni, vafu va sadoqatni, mardlik va jasoratni aks ettiradi.



Muhammadjon Mirzayev 1913-yil 13-avgustda Toshkent shahrida ishchi oilasida tug'ildi. 1920-yildan umumta'lim maktabida o'qidi. 1932-yilda Toshkent To'qimachilik kombinatiga ishga kirdi va bo'sh vaqtlarida temiryo'lichilar klubida tashkil etilgan havaskorlik to'garagiga qatnab, mandolina chalishni o'rgandi. 1936-yili O'zbek filarmoniyasi qoshida To'xtasin Jalilov rahbarligida tashkil topgan «O'zbek xalq cholg'ulari ansambli»ga ishga qabul qilindi. Bu yerda M. Mirzayevga rubobchi Yusuf Oxun qashqar rubobida kuylar chalishni o'rgatdi. Yosh sozanda tez orada ansamblda ishtirok etish bilan birga, musiqa ijrochiligi va ijodkorligi sirlarini o'rgandi hamda hayotiy maktabni shu ansamblda o'tadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbek filarmoniyasi qoshida bir nechta «Front konsert brigadalari» tuzildi. Shulardan biri 1942-yilda tashkil etilgan bo'lib, M. Mirzayev ham ular bilan birgalikda, frontda jangchilarga konsertlar berib xizmat qildi.

1943-yili «Farhod GES»i qurilishi munosabati bilan ishchilarga madaniy xizmat qilish maqsadida boshqarma qoshida «Musiqali drama teatri» tashkil topdi. O'zbekiston San'at Bosh boshqarmasi Muhammadjon Mirzayevni ushbu teatrga musiqa rahbari lavozimiga tayinladi. Uning mustaqil bastakorlik faoliyati shu jamoada boshlandi. Sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzayev zamonaviy mavzularda yangi-yangi jozibali qo'shiq va raqslarni yaratdi va ansambl ijro repertuarini boyitdi.

1948-yili Toshkent davlat konservatoriyasida «O'zbek xalq cholg'ulari» kafedrasida tashkil topdi. Bu dargohga M. Mirzayev birinchi talabalar qatorida o'qishga kirdi va 1953-yili bitirdi. Shu yildan

boshlab to umrining oxirigacha filarmoniya qoshidagi «Musiqqa bo'limi»da rubobchi-yakkanavoz vazifasida ishlab, xalqimizga xizmat qildi. Uning ijrochilik mahoratiga barcha tan berdi, yuqori malakali ijrochilik san'atini sevimli o'g'li Shavkat Mirzayevga meros qilib qoldirdi. U 1950—1980-yillarda o'z ustida ko'p ishladi, tinimsiz ijodiy mehnat qildi. Uning ashula va yallalari O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov ijrosida ilk bor yangradi, jumladan, «Qachon bo'lg'ay», «Sho'xi jononim mening», «Yor istab», «Yo'lingda», «Ko'zlaring», «Surating», «Yolg'iz», «Yana», «Shaydo bo'libman», «Zor etding», «Parvoz etib ket».

Tojikiston xalq artisti Xanifa Mavlonova ijrosida quyidagi ashulalari mashhur bo'lib ketdi: «Parvona bo'ldim», «Yuragingni o'ynatdimi», «Gulchehra yor», «Husningga bu shaydoni», «Tong otguncha».

Bastakor ko'p yillar davomida Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi «Bahor» raqs ansambli, O'zbekiston davlat filarmoniyasining «Shodlik», «Lazgi» ashula va raqs ansambllari repertuarini kuy va qo'shiqlar bilan boyitdi. U 300 dan ortiq kuy va qo'shiqlar, yalla va raqs kuylarini yaratdi. Bulardan: «Bahor valsi», «Dildor I va II», «Intizor etma», «Gulnoz», «Ey gul», «Uch dugona», «Ko'zlarimga ziyo ayla», «Chavandoz qizlar», «Assalom, kelin salom», «Toshkent nahori», «Dil kuylasin», «Go'zal vatanim», «Marg'ilon qizlari», «Shodlik» kabi kuylari keng qanot yozdi. Shuni aytish joizki, Moskvada o'tkazilgan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» dekadalarida, «Katta Farg'ona kanali», «Farhod GES», «Kattaqo'rg'on suv ombori», «Toshkent kanali» kabi yirik qurilishlarda ijrochiligi va bastakorligi bilan faol qatnashdi.

M.Mirzayev O'zbekiston musiqqa madaniyatining rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun orden va medallar bilan taqdirlandi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvonlari bilan mukofotlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Bastakor qayerda tug'ilgan va uning yoshlik yillari qanday o'tgan?
2. M. Mirzayev qanday asarlar yaratgan va qayerda ish faoliyatini olib borgan?
3. Uni mashhur qilgan asarlar nomini ayting.
4. Uning ustozlari va shogirdlari kim?

Fattoh Nazarov
(1919—1982)

O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist, dirijor, kompozitor, professor Fattoh Nazarov o'z ijodkorlik, dirijorlik, o'qituvchilik va jamoatchilik faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Uning yaratgan turli janrdagi kuy-qo'shiqlari bolalar bog'chalari, o'рта ta'lim va musiqa maktablarida keng qo'llanib kelinmoqda.



Fattoh Nazarov 1919-yil 1-yanvarda Bishkek shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. Fattohning musiqaga havasi juda erta uyg'ondi. U onasining allalari, dutor chalib, qo'shiq aytishlarini va baytlarini tinglab o'sdi. Mahallaning o'zbek va qirg'iz ahli to'yalarida yangragan musiqa sadolari uni o'ziga maftun qilar edi. Uning baxtiga umumta'lim maktabini bitirgan yili shahar musiqa studiyasi ochildi.

Fattoh Nazarov birinchilardan bo'lib klarnet chalishni o'rgana boshladi. Uning musiqiy qobiliyati va a'lo o'qishini nazarga olib, 1935-yil Ippolitov-Ivanov nomidagi Moskva musiqa bilim yurtiga o'qishga tavsiya etildi. Mazkur o'quv yurtida klarnet va violonchel mutaxassisliklari bo'yicha o'qidi. O'quv yurtini bitirish arafasida, 1939-yili harbiy xizmatga chaqirildi. U harbiy qism damli orkestrida klarnetchi bo'lib xizmat qildi, bu unga o'qishni bitirish imkonini berdi. Ikkinchi jahon urushi harbiy xizmatdan qaytishga yo'l qo'ymadi. 1941—1944-yillarda F. Nazarov oddiy askar bo'lib xizmat qildi.

Moskva konservatoriyasi qoshidagi harbiy dirijorlik fakultetida o'qigach, u 1945-yili ona shahriga qaytdi. Bishkek drama teatri musiqa rahbari va Qirg'iziston davlat filarmoniyasining xalq cholg'ulari orkestri dirijori lavozimlariga tayinlandi. 1947-yili F. Nazarov Toshkent davlat konservatoriyasining opera simfonik dirijorligi mutaxassisligi bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 1949—1950-o'quv yilidan boshlab Georgiy Mushel sinfida kompozitsiyadan dars ola boshladi. 1951-yili konservatoriyani dirijorlik sinfi bo'yicha bitirib, O'zbekiston radiosi qoshidagi

simfonik orkestr dirijori lavozimiga tayinlandi, so'ngra O'zbek filarmoniyasining simfonik orkestriga ishga o'tkazildi. 1955-yili yozgan IV qismli simfoniyasiga o'zi dirijorlik qilib, konservatoriyani bitirdi va ikkinchi marta diplom olishga muvaffaq bo'ldi.

1952—1958-yillarda Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan dirijor bo'lib ishladi.

1952—1982-yillarda konservatoriyaning o'zbek xalq cholg'ulari fakultetida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent va professor lavozimlarida ishladi.

F. Nazarov 1948-yilda skripka va fortepyano uchun bastalagan «Qo'shiq va raqs» kuyi, g'ijjak va fortepyano hamda skripka va fortepyano uchun poema, fortepyano uchun «Noktyurn», «Marsh», «Fuga», «Raqs», «Vals» kabi pyesalari, skripka va fortepyano uchun «Konsertino», g'ijjak va fortepyano, dutor va fortepyano, violonchel va fortepyano uchun pyesalar, bolalar simfonik orkestri uchun IV qismli suita, rubob uchun «Amudaryo» vals-konserti kabi asarlarni yaratdi. F. Nazarov «Ravshan», «Kuychelek kozli yar», «Aldangan qiz», «Afsonaviy shaxs», «Harflar jangi» musiqali dramalari, «Oygul va Baxtiyor» nomli radiopostanovkalari uchun musiqalar bastalagan.

Kompozitor simfonik orkestr, o'zbek cholg'ulari orkestri, damli orkestr, klarnet va estrada orkestri uchun 20 ga yaqin suita va pyesalar yaratdi. F. Nazarovning ijodiy faoliyatida ommaviy qo'shiq, ayniqsa, bolalar uchun yozilgan qo'shiqlar ustun turadi. Kattalar uchun «O'zbekiston», «Vatan mehri», «Terimchi qiz», «Qaydasan», «Qirg'iziston», «Kel, bu oqshom», «To'y taronasi», «Qaldirg'och», bolalar uchun «Sayra, bulbul», «Paxtaoy», «Bo'z to'rg'ay», «Oyijon», «Qish chog'lari», «O'quvchilar saroyi», «Mehribonim oyijon», «Dadajon» kabi qo'shiqlarni yaratdi. Kompozitor bolalar va kattalar uchun 150 dan ortiq turli mavzuda qo'shiqlar bastaladi.

F. Nazarov O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Toshkent shahridagi 23-bolalar musiqa maktabiga uning nomi berilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *F. Nazarov qayerda tug'ilgan va uning yoshlik yillari qanday o'tgan?*
2. *U qayerda o'qigan va ish faoliyatini olib borgan?*
3. *U qanday janrlarda asarlar yaratgan va ularning nomini ayting?*
4. *U bolalar uchun qanday asarlar yaratgan?*

Sobir BOBOYEV
(1920—2004)



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, atoqli kompozitor Sobir Boboyev ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan respublikamiz musiqa madaniyatiga katta hissa qo'shdi. Sobir Boboyevning opera, musiqali drama va komediyalari, simfonik, vokal-simfonik va xor asarlari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun asarlari, qo'shiq va romanslari ma'naviy mulkimizga aylandi.

Sobir Boboyev 1920-yil 30-dekabrda Toshkent shahrida tug'ildi. Otasi vafot etgandan so'ng, onasi 4 o'g'il bilan qoldi. Moddiy qiyinchiliklar sababli Sobir va ukasi Nosir bolalar uyida tarbiyalandi. Bu yerda Sobir havaskorlik to'garagiga qatnashib, dutor va tanbur chalishni o'zlashtira boshladi. 7-sinfni bitirgach, Toshkent Industrial texnikumida, keyin Pedagogika institutining tayyorlov kursida o'qidi. 1943-yili S. Boboyev hayotida burilish sodir bo'ldi, Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirdi, professor Boris Nadejdin sinfida tahsil oldi. 1949-yilda Turob To'la librettosi asosida «Zumrad» nomli bir pardali operasi bilan konservatoriyanı muvaffaqiyatli bitirdi.

1948—1955-yillarda O'zbekiston Kompozitorlar uyushmasi raisi lavozimida uzoq muddat faoliyat yuritdi. Samarqand opera va balet teatrida direktor, 1972—1976-yillarda Muhiddin Qoriyoqubov nomidagi O'zbek Davlat filarmoniyasi badiiy rahbari, 1969—1978-yillarda konservatoriya muallimi vazifalarida ishladi. Kompozitor fortepyano uchun pyesa, sonatina, raqs, klarnet va fortepyano uchun «Rapsodiya», simfonik orkestr uchun suita, xor jamoasi uchun «Navbahor», «Alla», «Fizkulturachilar qo'shig'i», «Xalqimga», «O'zbekiston», «Go'zal vodiy»,

«Do'stinga», «Sening qo'shig'ing» kabi romanslarga kuy bastaladi. S. Boboyev faqat sahnaviy musiqa asarlari yaratish bilan chegaralanib qolmay, qator simfonik, vokal-simfonik, lirik romanslar va qo'shiqlar, xorlar uchun asarlar yozdi. Musiqa tilining originalligi va yangiligi bilan, yorqin hamda qisqaligi bilan ajralib turardi. «Yor ketdi», «Qalb», «Meros» romanslari, «Tanovar I», «Bog' sayliga» o'xshash qator xalq qo'shiqlari tinglovchilarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Sobir Boboyev «Paxta bayrami» nomli IV qismdan iborat kantata, simfonik orkestr uchun II suita, K. Yashin asari bo'yicha «Fidokor», «Hamza» operalarini yaratdi. 1967-yilda Shukur Sa'dulla asari asosida bolalar uchun birinchi «Yoriltosh» operasini yaratdi. «Mayna Hasanova», «Ikki bilaguzuk», «Dalada bayram», «Oltin kamar» kabi musiqali dramalarini yozdi. Xorlar uchun bir qancha asarlarni qayta ishladi. U bolalar uchun «Dastyor qiz», «Xush kelibsiz», «Aziz ustozlar», «Mehnat qo'shig'i», «Yomg'irjon» «Yoshlar vals», «O'zbekiston» kabi qo'shiqlarni yaratdi.

Sobir Boboyev O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston davlat mukofoti laureati. «El-yurt hurmati» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. S. Boboyev qayerda tug'ilgan va uning yoshlik yillari qanday o'tgan?
2. U qayerda o'qigan va ish faoliyatini olib borgan?
3. U qanday janrlarda asarlar yaratgan va ularning nomini ayting.
4. U bolalar uchun qanday qo'shiqlar yaratgan?
5. U bolalar uchun yaratgan birinchi operasining nomini va mazmunini aytib bering.

Doni ZOKIROV
(1914—1985)

O'zbekiston xalq artisti, sozanda, dirijor, murabbiy, jamoat arbobi, kompozitor Doni Zokirov ajoyib qo'shiq, romans, musiqali drama, balet, simfonik va xalq cholg'ulari orkestri uchun bastalagan musiqiy asarlari bilan o'zbek musiqa madaniyatini boyitdi.

Doni Zokirov 1914-yil 28-dekabrda Samarqand shahrida tug'ildi. U bolaligidan musiqaga qiziqdi. 1926-yil o'rta ta'lim maktabiga o'qishga bordi va maktabdagi musiqa to'garagiga qatnashdi. Nay, dutor, g'ijjak chalishga qiziqdi. Mashhur san'atkor Muhiddin Mavlonovdan o'zbek va tojik xalq merosini va ijrochilik sirlarini o'rgandi. 1929-yilda Samarqanddagi N. N. Mironov rahbarligidagi musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutiga o'qishga kirdi. 1929—1935-yillari Respublika musiqali drama teatrida sozanda bo'lib ishladi. Mazkur teatrn tashkil qilgan ulug' san'atkor Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, usta Olim Komilovlardan saboq oldi va birga ishladi.

1936-yilda Toshkentda O'zbekiston Davlat filarmoniyasi ochildi va shu ansamblga konsertmeyster lavozimiga ishga taklif qilindi, keyinchalik musiqa rahbari bo'lib tayinlandi. 1940—1948-yillari Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida, so'ngra O'zbekiston Davlat radioeshittirish qo'mitasi qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida dirijor bo'lib ishladi.

1940—1942-yillari Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov kursida o'qidi, lekin urush tufayli o'qishni 1953-yili bitirdi. O'zbek ashula va raqs ansamblida badiiy rahbar bo'lib faoliyat ko'rsata boshladi. 1957-yili O'zbekiston radioeshittirish qo'mitasi qoshida O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestriga bosh dirijor va badiiy rahbar lavozimiga tayinlandi.

1934-yilda birinchi yirik ijodi Z. Fatxulinning «G'unchalar» pyesasi uchun bastalagan musiqasidir. U ilk ijodiy yutug'idan keyin



qo'shiq va ashulalar yaratdi. Jumladan: «Ona orzusi», «Zafar topib», «Ol qasos», «Jangda bardam bo'lib» kabi vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar yozdi. Alisher Navoiyning «Orazi» va «O'rtanur» g'azallariga fortepyano jo'rligida qo'shiqlar, simfonik orkestr uchun suite, O'zbek xalq cholg'u asboblari ansambliga III qismli «Mehnat fronti» nomli suite, «Orzugul» va «Yoriltosh» spektakllariga musiqa bastaladi. D. Zokirov musiqali sahna asarlar yaratishga katta e'tibor berdi. «So'nmas chiroqlar», «Dalada bayram», «Vatan qirg'oqlari», «Yoshlikda bergan ko'ngil», «Hayot mash'ali», «Mening jannatim», «Shahzoda va yetim qiz» musiqali dramalarini yaratdi.

Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri sahnasida «Oynisa» baleti, «Zaynab va Omon» operasi tomoshabinlarga havola etildi. «Amirlikning yemirilishi», «Qutlug' qon», «Yor-yor» kinofilmlariga musiqalar, simfonik orkestr uchun «Hamza» nomli poemani yaratdi. Alisher Navoiy g'azallariga bastalagan «Ko'rmadim», «Ey sabo», «Bo'lmasa», «Ayb etmangiz», Turob To'la she'riga «Bulbul» nomli romanslari simfonik orkestr jo'rligida mashhur bo'lib ketdi. Yuzdan ortiq ashula, ommaviy xor qo'shiqlarini yaratdi. Bularga «O'zbekistonim», «Tinchlik qo'shig'i», «Paxtakor diyor», «Hayot gulshani» kabilar misol bo'la oladi. O'zbek mumtoz musiqa namunalarini qayta ishlab, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri, yakka cholg'ular va orkestrga moslashtirdi. Bular orkestr uchun: «Yovvoyi Chorgoh», «Fig'on», «Qaytarma», «Cho'li Iroq», «Farg'onacha», «Savti navo», «Mirzadavlat», «Nasrullovi», «Tasnifi dugoh», «Ufori navo», «Rajabiy», «Jazoir». Bolalar uchun «Sayohat — rohat» «Kungaboqar», «Oppoq o'tim», «Kapalak va handalak», «Bog'da pishdi, uzumlar», «Yangi yilim — yaxshi yilim», «Kitob mening do'stimsan», «Ko'ylagim», «Bolalar vals», «Baxtiyorlar qo'shig'i», «Olma» qo'shiqlariga kuy bastaladi.

Doni Zokirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo'ldi. Orden, medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. D. Zokirov qachon va qayerda tug'ilgan?
2. U musiqa olamiga qanday kirib kelgan?
3. U qanday janrlarda asarlar yaratgan va ularning nomini ayting?

To'liqin TOSHMATOV (1934)



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, g'ijjakchi, dotsent, kompozitor To'liqin Toshmatov 200 dan ortiq qo'shiqlar hamda boshqa janr va shakllarda musiqa asarlari yaratib, ijro jamoalarining repertuarlarini boyitib, muxlislarning olqishlariga sazovor bo'lmoqda.

To'liqin Toshmatov 1934-yil 30-dekabrda Toshkent shahrida ishchi oilasida tug'ildi. U bolalik chog'idan o'zbek xalq cholg'u asboblari chalishga qiziqdi. 1949-yili R. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatida o'qidi. Mazkur maktabni g'ijjak sinfi bo'yicha bitirdi. 1955-yili Toshkent davlat konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'u asboblari fakultetining g'ijjak sinfidagi Y. Sabzanovdan tahsil oldi. 1969-yili o'qishni muvaffaqiyatli bitirdi. Konservatoriyada o'qib yurgan paytlarida musiqa bastalashga ham qiziqdi va 1961-yili kompozitorlik fakultetining professori Boris Zeydman sinfidagi tahsil olib, 1966-yili o'qishni ikkinchi marotaba bitirdi.

To'liqin Toshmatov mehnat faoliyatini talabalik davridan boshladi. U 1957—1958-yillarda «Bahor» raqs ansamblida, 1958—1978-yillarda O'ztele-radio qo'mitasida O'zbek xalq cholg'ulari orkestrida g'ijjakchi, 1976—1982-yillarda A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining xalq cholg'ulari kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent lavozimida va R. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatida o'qituvchi bo'lib ishladi.

T. Toshmatov turli janr va shakllarda rang-barang asarlar yaratdi. Ular qatoridan: ikkita simfoniya, simfonik uvertura, to'rt qismli vokal-simfonik turkum, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri

uchun: «Bayramona uvertura», «Assalom O'zbekiston», «Yangi Toshkent» kantatasi, «Samarqand» suitasi, rubob va orkestr uchun suita, «Qo'shiq va raqs», nay va orkestr uchun ikki qismli «Nay yallasi», chang va orkestr uchun «Rondo», orkestr uchun «Shohimardon marshi». «Oltin diyor» uverturasi, to'rtta preludiya, 10 ta variatsiya, bolalar uchun «Pyesa», «O'yna, dilbar» asarlari va boshqalar o'rin olgan. Kompozitor ijodida qo'shiq janri muhim o'rin tutadi. «To'y yallasi», «Ona Vatanga», «Ishon», «Gullar sochay yo'llingga», «Quyosh o'lkasi», «Toshkentim», «Chaman aylab kel», bolalar uchun «Ayiq polvonlar bog'chasi», «Baxti erkato'y», «Bilim yurtimiz», «Mashinam», «Bahor», «Quloqsiz», «Tut», «A'lochi o'quvchi». «Bir chigitdan ming chigit», «Gullola», «Gulshan diyor», «Mening Vatanim» shular jumlasidandir.

Sahna asarlari: «Inbuzarlar» musiqali dramasi, «Ur, to'qmoq», «Muzaffar quyosh farzandi», «G'oyibdan paydo bo'lgan shahar» spektakllariga musiqalar bastaladi.

To'lqin Toshmatov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *T. Toshmatov qayerda tug'ilgan va uning yoshlik yillari qanday o'tgan?*
2. *U qayerda o'qigan va ish faoliyatini olib borgan?*
3. *U qanday janrlarda asarlar yaratgan?*
4. *T. Toshmatov bolalar uchun qanday qo'shiqlar yaratgan?*

G'ofur QODIROV (1917—1985)



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, dotsent, kompozitor G'ofur Qodirov ijodi, o'qituvchilik va jamoat faoliyati bilan o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U yaratgan jozibali qo'shiqlar, simfonik va sahna musiqasi, ayniqsa, bolalar uchun yaratgan asarlari zamonaviy musiqa san'atimizni boyitdi.

G'ofur Qodirov 1917-yil 1-fevralda Toshkent shahrida bog'bon-dehqon oilasida tug'ildi. Yetti yoshidan mahalladagi eski maktabda o'qidi. 1928-yili 54-umumta'lim maktabining 6-sinfini bitirdi. 1933-yilda O'rta Osiyo san'at maktabiga o'qishga kirib, 1936-yil bitirdi. Ta'lim olgan yillarida badiiy havaskorlik to'garaklari, xor jamoasiga qatnashdi va o'zbek xalq cholg'ulari ansamblida dutor va tanbur chertishni o'rgandi. 1936-yili u Toshkent davlat to'qimachilik institutiga o'qishga kirdi. Mazkur institutning badiiy havaskorlik xori bilan 1937-yilda o'tkazilgan olimpiadada ishtirok etdi. Shundan keyin G'ofur Qodirov musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qaror qildi. O'sha yili uning musiqa qobiliyatini sezgan kompozitor Nikolay Mironov maslahati bilan Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirdi 1940-yili kompozitorlik mutaxassisligi va cholg'ulashtirish bo'yicha ta'lim olib, 1945-yil konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirdi. O'sha yili Hamza nomidagi Toshkent davlat bilim yurtiga musiqa nazariyasidan dars berishga yo'llanma bilan yuborildi. 1959-yili u cholg'ulashtirishdan dars berishga, konservatoriyaga taklif qilindi va 1969-yili dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi.

1971—1975-yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi hay'atining mas'ul kotibi lavozimida ishladi. Yillar davomida G'. Qodirov pedagogik va jamoatchilik faoliyatining birligida ijod qilib, turli shakl va janrlarda fortepyano uchun pyesalar: «Rondo»,

«Raqs», «Suita», «Sonata», «Preludiya va opera», violonchel va fortepyano hamda klarnet va fortepyano uchun pyesalar, torli kvartet, simfonik orkestr uchun «Marsh», «Suita», «Simfoniyyeta», fortepyano joʻrligida Navoiy gʻazallari asosida «Gʻazal» romansi, «Mard yigit» qoʻshigʻi kabi asarlarni yaratdi. Bolalar teatrlarida sahna yuzini koʻrgan «Qari chol va boʻri» nomli spektakliga 1944-yil musiqa bastaladi.

Oʻziga xos uslubda koʻproq ovoz uchun simfonik, vokal-simfonik, estrada, xalq cholgʻulari orkestri, ayniqsa, bolalar uchun turli shakl va janrlarda koʻplab asarlar yaratdi. Shuni aytish joizki, u oʻz ijodiy faoliyatining hamma davrlarida yakkaxon, xor jamoalari va estrada guruhlariga qoʻshiqlar bastalashga koʻproq eʼtibor berdi. Uning qoʻshiqlari ohangdorligi, dilkashligi, hayotiyligi, sevgi-muhabbatni keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi va davr nafasi yaqqol sezilib turadi.

Masalan: «Oʻzbekistonim», «Oʻlkamga», «Yoshlar marshi», «Mirzachoʻl», «Oq oltin taronasi», «Doʻstlik festivali», «Paxta», lirik estrada qoʻshiqlaridan «Mirzachoʻl yor-yori», «Koyimang, oyijon», «Goʻzal Toshkent» va boshqalar. Shuningdek, bolalar uchun yaratgan qoʻshiqlari nota toʻplamlarida chop etildi: «Pillachi qiz», «Maktabjon — oftobjon», «Baxtli avlod», «Oʻynab ber», fortepyano uchun pyesalar va «Oʻzbek raqslari» toʻplamlari nashrdan chiqdi. Kompozitor turli cholgʻu ansambli, orkestr, yakkaxon, ansambl va xor uchun «Maktabjon — oftobjon» IV qismli vokal-simfonik suita, «Biz yosh oʻqituvchilar» IV qismli kantata, «Oq oltin», «Biz istiqlol egasimiz» V qismli vokal-simfonik suitasi, «Dangasalik — kasallik», «Ota-onalarga», «Bobomlar bogʻbon», «Ona qoʻllari», «Gunafsha», «Laylak» kabi qator qoʻshiqlarni yaratdi.

Kompozitor Gʻofur Qodirov Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi faxriy unvoniga sazovor boʻlgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Gʻ. Qodirov qayerda tugʻilgan va uning yoshlik yillari qanday oʻtgan?
2. U qanday janrlarda asarlar yaratgan?
3. Uning asarlari boshqalardan nimasi bilan ajralib turadi?
4. U bolalar uchun qanday asarlar yaratgan?

Komil KENJAYEV
(1939)

Ko'p qirrali kompozitor Komil Kenjayev musiqaning turli janr va shakllarida rang-barang jozibali asarlar yaratdi. Uning simfonik orkestr uchun, turli cholg'u ansambllar uchun, teatr, va ayniqsa, estrada orkestri va vokal-cholg'u ansambllari uchun musiqalari, qo'shiqlari musiqa shinavdalarining olqishlariga sazovor bo'ldi. U pedagoglik va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shdi.



Komil Kenjayev 1939-yil 21-dekabrda Dushanbe shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. Komil bolaligidan musiqaga qiziqdi. 1947-yili o'rta ta'lim maktabiga o'qishga kirdi. 1953-yili bolalar musiqa maktabining fortepyano sinfida saboq ola boshladi va Dushanbe musiqa bilim yurtida o'qishni davom ettirdi. 1960-yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirib, professor Boris Zeydman sinfida tahsil oldi. U turli janr va shakllarda musiqa bastaladi. 1965-yili «Lirik simfoniya» asarini taqdim etib, konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirdi va mustaqil ijodga yo'llanma oldi.

Kompozitor K. Kenjayev mehnat faoliyatini 1957-yilda Dushanbe shahridagi 24-bolalar bog'chasida sozandalikdan boshladi.

1960—1961-yillarda Toshkentdagi maktablarda musiqa o'qituvchisi bo'lib ishladi. Konservatoriyani bitirgach, Tojikiston Respublikasining «Xo'jand» musiqa bilim yurtida musiqa nazariyasidan dars berdi.

1966—1972-yillari O'zbekiston Madaniyat vazirligining San'at Bosh boshqarmasidagi repertuar kollegiyasida musiqa muharriri lavozimida ishladi. 1972—1973-yillari Mannon Uyg'ur nomidagi Teatr va rassomchilik institutida musiqa nazariyasi fanidan dars

berdi. 1973—1984-yillarda R. M. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internat direktori lavozimida ishladi. 1984—1986-yillari M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida rektor lavozimida ishladi. Kompozitorning mustaqil ijodiy faoliyati konservatoriyani bitirgandan so'ng, 1965—1980-yillarda jo'sh urdi va barakali ijod qildi.

1965-yili simfonik orkestr uchun «Yoshlik» uverturasi, 1966-yili torli cholg'u orkestr uchun «Simfoniyyetta», 1967-yili violonchel va orkestr uchun «Konsert», o'zbek xalq cholg'u asboblari uchun 2 ta suita va «Konserttino», 1969-yili «Olmos otin», «Umirxo'janing nayrangi», 1982-yili «Oq buloq parizodasi» kabi musiqali dramalarni yaratdi. Respublika davlat qo'g'irchoq teatrida «Ovdagi hodisa», «Kenja qiz» asarlarini yozdi. Bolalar xor jamoasi uchun «Kelajak bizniki», «Biz tinchlikni istaymiz», «Kichkintoyimiz — gijingtoymiz», «Yerga dovrug' solamiz», «Sen bilan do'stlashdim», «Paxtaoy», «O'zbek qizlari», «Kimki bo'lsa yig'loqi», «Baxtiyorlar qo'shig'i», «Bir jahon bolalarmiz», «Ikkisiz, ikki yilsiz», «Beshga teng birinchi», «Xat yozaman do'stinga», «Paxtajonim» kabi bolalar uchun 100 ga yaqin qo'shiqlar yaratdi. U 1982—1984-yillar O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining Bolalar musiqa komissiyasi raisi, 1982—1987-yillari taftish komissiyasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Komil Kenjayev O'zbekiston va Estoniya hukumatlarining faxriy yorliqlari va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi nishoni bilan mukofotlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1. K. Kenjayev qayerda tug'ilgan va uning yoshlik yillari qanday o'tgan?*
- 2. U ish faoliyatini qayerlarda olib borgan?*
- 3. U qanday janrlarda asarlar yaratgan va ularning nomini ayting?*
- 4. U bolalar uchun qanday asarlar yozgan?*

Sonya ABRAMOVA (SONYA PINXASOVNA)
(1930)



Ko'p qirrali kompozitor Sonya Abramova musiqaning turli janr va shakllarida rang-barang jozibali asarlar yaratdi. U opera, simfonik orkestr, turli cholg'u ansambllar, bolalar va vokal-cholg'u ansambllari uchun musiqalar, qo'shiqlar yaratib, musiqa shinavandalarining olqishlariga sazovor bo'ldi. U pedagoglik va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shdi.

Sonya Abramova 1980-yil O'zbekistonda tug'ilgan. Yoshligidan musiqaga qiziquvchan, qobiliyatli qiz bo'lgan. U musiqa maktabida, Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida so'ngra Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida tahsil olgan. Bolalarni juda sevgan va ular uchun juda ko'p qo'shiqlar va qo'shiqlar to'plamini yaratgan.

Bulardan «Buvijonim buvijon», «Qo'g'irchog'im», «Shamol, shamol», «Nasibaning qo'shig'i», «Onajonim», «Buvijonim kelyapti» kabi yuzdan ortiq qo'shiqlarni yaratgan.

Sonya Abramova turli janr va shaklda musiqiy asarlar bastalagan. Uning orkestr va klarnet uchun konserti, «Tamara» bir aktli operasi, skripka uchun ikkita pyesa, fortepyano uchun pyesalar, romanslar, vokalizlar, goboy cholg'u asbobi uchun ikkita pyesa, bolalar xori uchun qo'shiqlar va bolalar bog'chasi uchun musiqali o'yinlar yaratgan. U turli janr va shaklda musiqiy asarlar bastalagan.

Kompozitor Sonya Abramova pedagogik faoliyatini musiqa maktablarida, o'quvchilar ijodiyot saroylarida, musiqa bilim yurtlarida, Toshkent davlat konservatoriyasida, Nizomiy nomidagi TDPU musiqa fakultetida davom ettirdi. U bir necha yillar davomida yetuk shogirdlar yetishtirdi. Uning asarlarini yoshlar va bolalar sevib ijro etib kelmoqdalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1. Kompozitor S. Abramova qayerda va qachon tug'ilgan?*
- 2. U qanday janrlarda ijod qilgan va faoliyatini qayerda olib borgan?*

Rustam ABDULLAYEV
(1947)

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, Respublika davlat mukofoti sovrindori, kompozitor Rustam Abdullayev zamonaviy o'zbek musiqa san'atining zabardast ijodkorlaridan biridir. Sharq va G'arb mumtoz musiqiy san'atlarining an'analari izidan borib, turli janr va shakllarda musiqiy asar yaratib, Vatanimiz musiqiy madaniyatining rivojlanish jarayoniga samarali hissa qo'shib kelmoqda.



Rustam Abdullayev 1947-yil 12-fevralda Xorazm viloyati Xiva shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. Otasi Abdulla Otajonov va onasi Gavhar Matyoqubovalar farzandlarining musiqaga qiziqishini sezib, musiqa maktabiga olib borishdi. Rustam Abdullayev o'rta ta'lim maktabida o'qib yurgan yillari, musiqa maktabiga qatnab, rubob chalishni o'rgandi. 1962-yil Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kirdi. O'quv yurtida Rustam musiqiy qobiliyati, mehnatkashligi bilan boshqalardan ajralib turar edi. O'quv yurtining nazariy bo'limida Rumil Vildanovdan kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi. 1965-yili Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kirib, taniqli kompozitorlar Rumil Vildanov va Boris Giyenkadan tahsil olib, 1972-yili fortepyano uchun konsert bilan muvaffaqiyatli bitirdi.

R. Abdullayev konservatoriyada o'qib yurgan yillaridayoq iqtidorli kompozitor va mohir pioninochi sifatida tanila boshladi. Qozog'istonda o'tgan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» kunlarida qatnashib, o'zining fortepyano konsertini simfonik orkestr bilan ijro etdi va muvaffaqiyat qozondi. Shuningdek, Gruziyada, Moskva shahrida o'tkazilgan yirik anjumanlarda «Xirosima faryodi» va «Hijron» nomli asarlari bilan ishtirok etib, laureat unvoniga sazovor bo'ldi. R. Abdullayev 1974-yil Toshkent davlat konservatoriyasi asissentura-stajirovka o'qishiga kirdi. Professor Boris Zeydmandan saboq oldi. 1976-yildan boshlab, Toshkent davlat konservatoriyasida bastakorlik kafedrasida, 1995-yildan buyon O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi lavozimlarida ishlab

kelmoqda. Rustam Abdullayev turli janrlarda qator musiqiy asarlar yaratdi. Bular orasida uchta yirik asari sahna yuzini ko'rib, shinavandalar olqishiga sazovor bo'ldi. Jumladan: «Sadoqat» nomli operasi, «Shoshma quyosh» nomli balet oratoriyasi va «Xiva ordeni» nomli operasi. Kompozitor R. Abdullayevning ijodida simfonik, vokal-simfonik, fortepyano musiqalari asosiy o'rin egallaydi. 3 ta simfonik poema, fortepyano uchun 10 ga yaqin asarlar shular jumlasidandir.

U butun dunyo bo'yicha o'tkazilgan «Yosh kompozitorlar»ning ko'rik-tanlovlari va festivallarida ishtirok etib, ko'p marotaba mukofot va laureatlik unvonlariga sazovor bo'ldi.

20 ga yaqin davlatlarda asarlari ijro etilib, Respublika va Xalqaro ko'rik-tanlovlar laureati bo'lib, olqishlarga sazovor bo'lmoqda. O'zi ham kompozitor va ijrochi sifatida ishtirok etib, musiqa muxlislari e'tiborini qozonmoqda.

So'nggi yillar ichida R. Abdullayev romans va qo'shiq janrlarida barakali ijod qilib kelmoqda. Uning qo'shiqlari xalq hofizlari, dutorchilar ansambli, estrada qo'shiqchilari ijrosida ommalashib ketmoqda. Bular: «To'ylaring muborak», «Turon turnalari», «Go'zal Vatanim», «Piyola» kabi asarlardir.

Rustam Abdullayev O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun mazmundor, jozibali qo'shiqlar yaratib kelmoqda. Jumladan: «Olam gulga to'laversin», «Charxpalak», «Parvozdagi qushchalar», «Mustaqillik lolalarimiz», «Do'stlik qo'shig'i», «Shodlik va tinchlik», «Qoshiq-qoshiq», «Gullola» kabi juda ko'p qo'shiqlarni yaratdi.

Kompozitor Rustam Abdullayev O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi faxriy unvoniga va Respublika davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *R. Abdullayev qayerda tug'ilgan va uning yoshlik yillari qanday o'tgan?*
2. *U qayerda o'qigan va ish faoliyatini olib borgan?*
3. *U qanday janrlarda asarlar yaratgan?*
4. *R. Abdullayev bolalar uchun qanday asarlar yaratgan?*

Habibulla RAHIMOV (1946)

Zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atining namoyandalaridan biri Habibulla Rahimov turli mavzu, shakl va janrlarda xilma-xil, yetuk asarlar yaratib, musiqa shinavandalarini xushnud etib kelmoqda.

Habibulla Rahimov 1946-yil 31-oktabrda Tojikiston Respublikasi Xo'jand viloyatining Nav tumanida taniqli sozanda G'aybulla Rahimov oilasida tug'ildi. To'ng'ich farzand bo'lgan Habibulla ota kasbini bolaligidan egallay boshladi. Sadirxon Hofiz nomidagi Xo'jand davlat musiqa bilim yurtida tahsil oldi. G'ijjak chalish bilan bir qatorda, unda kuy bastalashga ishtiyoq tug'iladi. Musiqa bilim yurtini bitirgach ustozlarining maslahatiga binoan, 1964-yili M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasi kompozitorlik fakultetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirib, Boris Giyenko sinfida tahsil oladi. 1974-yili Davlat imtihoniga shoir To'lqin so'ziga yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun «Osvensim» nomli oratoriyasini taqdim etdi. 1974—1976-yillarda konservatoriyada asissentura-stajorlikda professor Boris Zeydman sinfida kasb malakasini oshirdi.

H. Rahimov konservatoriyada o'qish bilan bir paytda 1969—1974-yillarda Respublika damli cholg'ular maktab-internatida musiqa nazariyasi fanidan o'qituvchilik qildi. 1977—1989-yillarda A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi. «Partitura o'qish va cholg'ulashtirish» fanidan dars berdi. 1989-yildan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasida ushbu fan bo'yicha talabalarga saboq berib kelmoqda. H. Rahimov yaratgan simfonik va vokal-simfonik asarlar O'zbekiston milliy simfonik orkestri repertuarini yanada boyitdi. Simfonik orkestr uchun: «Simfonik poema», Ibn Sino she'rlariga «Beshta ruboiy», ovoz va simfonik orkestr uchun Uvaysiy g'azallariga «Beshta» romans, «Sayil



bayram» uverturasi, «Segoh» simfoniyasi, «Rost», «Raqs» va «Tong» kuylari, ud va kamer orkestri uchun «Fantaziya», dutor va kamer orkestr uchun «Qo'shtor», rubob va orkestr uchun «Arabcha poema»larni yaratdi.

H. Rahimov o'zbek cholgu orkestri uchun ham bir qator asarlar yaratdi. Jumladan: «Qo'shiq va raqs», «Armug'on», «Naqsh va tarona», «Tarona va ufor» pyesalari, «Muborakbod» uverturasi, «Yoshlik bayrami» konsertinosi, «Noma'lum askar xotirasi» poemasi, «Yaponcha raqs» va Navoiy g'azallariga «Poema» kabi qator musiqiy asarlarni yaratdi. Kompozitor damli cholg'ular uchun ham 10 dan ziyod asarlarni yozdi. 1975-yili Uyg'un bilan hamkorlikda «Parvona» nomli ilk musiqali dramasini yaratdi. «Kelin tanlov», «Mushkul savdo» musiqali komediyalari 1997-yili sahna yuzini ko'rdi. «Ona qalbi», «Alpomish va Barchinoy» operalarini yaratdi.

H. Rahimov ijodida qo'shiq va romanslar alohida o'rin tutadi. Jumladan: «Sog'inganda» «Uzoqda», «Bo'ron», «Mening sevgim», «Yulduzlar» kabi romanslar. Fortepiano uchun 18 ta xalq kuylarini moslashtirdi, 16 ta asardan iborat «Albom», g'ijjak va fortepyano uchun «Ballada» va sonatalar yaratdi. H. Rahimov respublikamizda o'tkazilgan eng yaxshi qo'shiqlar tanlovining ko'p yillar sovrindori. Kompozitor bolalar uchun «Do'mboqchalar qo'shig'i», «Oy bo'lamiz — toy bo'lamiz», «Buxoro», «Samarqand», «Sho'x bolaman», «Muchal qo'shig'i», «Men g'unchaman», «Tilla qo'ng'iz» va «Bolalar» kabi qo'shiqlarga kuy bastaladi.

Habibulla Rahimov «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi unvoniga sazovor bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Kompozitor Habibulla Rahimov qachon va qayerda tug'ilgan?*
2. *Uning birinchi oratoriyasi nechanchi yilda yozilgan va nomi nima?*
3. *Kompozitor H. Rahimovning simfonik orkestr uchun yaratgan asarlarining nomini ayting.*
4. *U bolalar uchun qanday asarlar yaratgan?*

Shermat YORMATOV
(1939)



O'zbekiston xalq artisti, xor dirijori va murabbiy, bastakor Shermat Yormatovning mehnat faoliyati ko'p ovozli bolalar xor ijrochiligini rivojlantirishda alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston teleradiosi huzurida 1967-yilda o'zi tashkil qilgan «Bulbulcha» bolalar jamoasi respublikamiz madaniy hayotida katta rol o'ynab kelmoqda. Sh. Yormatov o'ttiz yildan ortiq davr ichida xor repertuarini boyitishda

kompozitor va shoirlar bilan hamkorlik qildi.

Shermat Yormatov 1939-yil 17-oktabrda Farg'ona viloyati Log'on qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. 1947-yilda umumta'lim maktabiga o'qishga bordi va havaskorlar to'garagiga qatnashdi. U tez orada maktabda ajoyib ovozi bilan mashhur bo'lib qoldi, tuman va viloyat festivallari hamda ko'rik-tanlovlarida mukofotlar egasi bo'ldi. Sh. Yormatov maktabni bitirib, 1959-yili Toshkent Madaniyat texnikumiga o'qishga kirdi. 1962-yilda Sh. Yormatov istisno tariqasida kirish imtihonlarisiz Toshkent davlat konservatoriyasiga qabul qilindi. U talabalik yillari musiqa bastalash sirlarini o'zlashtirish maqsadida kompozitor Pak Endindan saboq oldi. Konservatoriyaning xor dirijorligi fakultetini tugatib, O'zbekiston teleradiosi huzuridagi Botir Umidjonov rahbarlik qilgan xor jamoasiga dirijor vazifasiga tayinlandi. Mohir xormeystr Sh. Yormatov o'z tajribasini talabalarga tatbiq etish maqsadida o'quv yurtlarida ustoz-murabbiy sifatida xizmat qilib kelmoqda. 1990-yildan buyon A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida dotsent vazifasida ishlab kelmoqda.

U 1996—1999-yillarda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi raisining birinchi o'rinbosari lavozimida, 2000—2002-yillarda Y. Rajabiy nomidagi Toshkent musiqa-pedagogika bilim yurti direktori lavozimida ham ishladi. 1961-yili Toshkentdagi 99-

maktab qoshida respublikada ilk bor o'zbek bolalar xor jamoasini yaratdi. Bu xor jamoasi tobora rivojlanib, Respublika bolalar ijodiy markazining «Boychechak» xor studiyasiga aylandi. 1970-yili davlatimizning respublikada qo'shiq va xor san'atini rivojlantirish haqidagi qaroriga asoslanib, O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshida namunali bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bu jamoaga Shermat Yormatov badiiy rahbar va bosh dirijor qilib tayinlandi. Keyinchalik bu xor jamoasini Sh. Yormatov «Bulbulcha» ashula va raqs ansambliga aylantirdi. Hozirgi kunda bu ansamblning shuhrati butun olamga mashhur. Unda 700 dan ziyod turli yoshdagi bolalar ishtirok etadi.

Kompozitor Sh. Yormatovning ijodida qo'shiq janri ustuvor turadi. Jumladan: «G'ildiragim», «Islom bobo», «Oymomajon rom bo'ldi», «Bu go'zal o'lka», «Dadamlarga o'xshasam», «Qor», «Sumalak», «Oy Vatanim» kabi qo'shiqlar, «Maysa», «Boychechak», «Qari chumchuq chaqimchi», «Yalpiz», «Dorboz», «Keldi Navro'z» kabi o'zbek xalq qo'shiqlarini bolalar xori uchun qayta ishladi. O'smirlar uchun «Assalom hayot» nomli V qismli kantata, bolalar xalq termalari asosida vokal-xoreografik suitasini yaratdi. Uning qo'shiqlari turli nota to'plamlari va musiqa darsliklariga kiritilgan. Sh. Yormatov hammualliflikda umumta'lim maktablari uchun musiqa darsliklarini yaratdi va nashrdan chiqardi.

Shermat Yormatov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, «Sog'lom avlod uchun» ordeni, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Sh. Yormatov qayerda tug'ilgan va yoshlik yillari qanday o'tgan?*
2. *U qanday janrlarda ijod qilgan?*
3. *Bolalar xorining rivojlanishiga qanday hissa qo'shgan?*
4. *U bolalar uchun qanday asarlar yaratgan va nomini ayting?*

Nadim NORXO'JAYEV (1947)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, kompozitor Nadim Norxo'jayev o'zining jozibali musiqiy asarlari, ayniqsa, estrada va bolalar uchun yaratgan qo'shiqlari bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi.

Nadim Norxo'jayev 1947-yil 24-dekabrda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. Nadimning ota-onalari o'g'illarining musiqaga qiziqishini sezib, umumta'lim maktabining 5-sinfidan R. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatiga berdilar va u bu yerda tanbur chalishni o'rgana boshladi. Nadimning musiqa nazariyasi va bastakorlikka qiziqishini inobatga olgan holda, uni 1963-yili Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o'tkazishadi.

Mashhur kompozitor Rumil Vildanovdan musiqa sirlarini o'rgandi. 1967-yili simfonik orkestr uchun bastalagan «Suita»si bilan a'lo baholarga o'qishni bitirdi. O'sha yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirdi. Bu oliy dargohda kompozitorlik bo'yicha Georgiy Musheldan, cholg'ulashtirishdan Aleksandr Kozlovskiydan saboq oldi. N. Norxo'jayev konservatoriyani imtiyozli diplom bilan bitirib, Bekobod musiqa bilim yurtiga ishga yo'llanma oldi. Harbiy xizmatni o'tab yurgan davrda vokal-cholg'u estrada ansamblini tashkil etib, konsertlar bera boshladi. U o'z faoliyatida qo'shiq janriga ko'proq ahamiyat berdi. 1968—1972-yillarda musiqa maktabida, 1972—1975-yillari Bekobod musiqa bilim yurtida, musiqa maktabida o'qituvchi va bo'lim mudiri bo'lib ishladi. 1975—1976-yillarda «Melodiya» firmasining ovoz yozish studiyasida bosh muharrir vazifasida ishladi. A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent bo'lib, ayni paytda Y. Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qituvchi,



1998-yildan buyon Toshkent davlat konservatoriyasi estrada ijrochilik kafedrasini mudiri, 2003-yildan professor lavozimida ishlab kelmoqda.

N. Norxo'jayev fortepyano uchun 3 ta pyesa, 4 ta preludiya, 2 ta variatsiya, sonatina, «Luqmalar» nomli miniaturalar turkumi, so'zsiz qo'shiq, fortepyano uchun 2 ta sonata, skripka va fortepyano uchun pyesa, torli kvartet, fortepyano va simfonik orkestr uchun «Konsertino», IV qismli simfonik suita, I qismli simfoniya va ko'pgina qo'shiqlar yaratdi.

N. Norxo'jayev ijodida qo'shiq ustuvor ahamiyat kasb etadi. U zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq estrada va bog'cha bolalari hamda maktab o'quvchilariga atab qo'shiqlar yaratdi. Yosh bastakorning bolalar uchun 1975-yilda yozgan «Hakkalar» ilk estrada qo'shig'i «Paxtaoy» nomli vokal cholg'u ansambli ijrosida mashhur bo'lib ketdi. Jumladan, «Yaxshi bola», «Dangasa», «Eh, orzular», «Antiqa musobaqa», «Diyor madhi», «Balig'im», «Salom bergan bolalar», «Sayyoraxon», «Chamandagi gullarmiz», «Boboxo'roz», «Dono bola» kabi qo'shiqlari «Bulbulcha» bolalar xori ijrosida o'rnamalashib ketgan. Bolalar xori uchun «Hafta» kantatasi, «Daraxtlar suhbatini» xor suitasi, o'zbek xalq qo'shiqlarini xor uchun qayta ishladi. «Osmondagi oy», «Chori chamber», «Kavushim», «Chuchvara qaynaydi» qo'shiqlari shular jumlasidan.

Nadim Norxo'jayev O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni bilan taqdirlangan. U respublika «Ofarin — 2000» ko'rik-tanlovi sovrindori, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi qo'shiq sho'basini raisi, respublikamizda o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlarda jyuri hay'atlarining faol ishtirokchisi bo'lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *N. Norxo'jayev qayerda tug'ilgan va uning yoshlik yillari qanday o'tgan?*
2. *U qanday janrlarda asarlar yaratgan?*
3. *Uning pedagogik ish faoliyati qanday o'tgan?*
4. *U bolalar uchun qanday asarlar yaratgan?*

Dilorom OMONULLAYEVA (1959)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, kompozitor Dilorom Omonullayeva O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga estrada qo'shiqlari va boshqa asarlari bilan kirib keldi. U o'zining ijodiy faoliyati bilan respublika musiqa san'atining rivojlanishiga samarali hissa qo'shib kelmoqda.



Dilorom Omonullayeva 1959-yil 1-oktabrda Toshkentda musiqachilar oilasida tug'ildi. Diloromning qalbiga ona allalari bilan birga musiqiy mo'jizalar kirib keldi. Qobiliyatli qizcha V. Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida fortepyano sinfi bo'yicha o'qiy boshladi. 12 yoshida esa professor Boris Zeydman sinfida kompozitsiyadan ham qo'shimcha saboq oldi. Ilk asarlari orasida torli orkestr, urma cholg'ular va fortepyano uchun 5 qismli suitasini milliy simfonik orkestri ijro etdi va muvaffaqiyat qozondi.

Dilorom Omonullayeva 1978-yili maktabni muvaffaqiyatli bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida professor Boris Zeydman sinfida o'qishni davom ettirdi, kompozitor Rumil Vildanov sinfida o'qishni imtiyozli diplom bilan bitirdi. Yosh mutaxassis talabalik davridayoq Hamza xotirasiga bag'ishlangan fortepyano uchun «Sonata I», «Samarqand manzaralari» V qismli suitasi, «Sonata II», bir necha romanslar va III qismli kvartet, fortepyano va fleyta uchun «Pomir eskizlari» polifonik pyesalarni yaratdi.

D. Omonullayeva 1984—1986-yillarda yo'llanma bilan Guliston san'at bilim yurtida musiqa fanidan dars bera boshladi. 1986—1990-yillarda D. Omonullayeva konservatoriyada professor To'liqin Qurbonov sinfida asisstanturani bitirdi, so'ngra 1990—1993-yillarda konservatoriyada «Bastakorlik va cholg'ulashtirish kafedrasida» o'qituvchi, 1993-yildan V. Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida o'qituvchi bo'lib ishladi.

D. Omonullayevaning ijodiy faoliyatida zamonaviy estrada qo'shiqchilik san'ati ustuvor turadi. U zamondosh shoirlardan

U. Azimov, E. Obidov, N. Narzullayev, Z. Mo'minova, X. Xudoyberdiyeva va boshqalarning she'rlariga, turli mavzularda 100 dan ortiq qo'shiqlar yaratdi. Ular «Siz yoqqansiz menga hamisha», «Yomg'ir yog'di», «Saraton», «Sen qaydasan», «Ikki daraxt», «Azizim», «Yig'lama», «Yolg'on dunyo» va boshqalar. Kompozitor turli yoshdagi bolalar uchun ham ko'p qo'shiqlar bastaladi. Uning qo'shiqlari teleradio to'lqinlarida doimo yangrab kelmoqda. 1984-yil shoira Nodira g'azallariga 2 ta romans yozdi.

D. Omonullayeva musiqa san'atining boshqa janr va shakllarida ham asarlar yaratdi: fortepyano va simfonik orkestr uchun konsert, xor va orkestr uchun suita, kamer cholg'ular uchun musiqiy asarlar, jumladan, «Baxtimiz taronasi», «Istiqloq madhiyasi», fortepyano uchun sonata, fortepyano uchun «Bolalar albomi», 5 ta kichik pyesa, «Kichikintoylar uchun musiqa» to'plamiga 20 ta qo'shiq va 30 ta raqs kuylari kiritilgan, «Topishmoq aytiluv», «Topishmoq qo'shiqlar», «Alifbe qo'shiqlari» va boshqalarni Teleradiokompaniyaning «Bulbulcha» xor jamoasi simfonik estrada jo'rligida ijro etib kelmoqda. Shuningdek, 1997-yil Usmon Azim she'riga «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali madhiyasini yaratdi. O'zbek Milliy teatri ochilishi munosabati bilan «Milliy teatr madhiyasi» va vatanparvarlik mavzusida 30 ga yaqin qo'shiqlar yaratgan.

Dilorom Omonullayeva «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni, «Ofarin» mukofoti sohibi, «O'zbekiston — Vatanim manim» va boshqa tanlovlar sovrindori.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Dilorom Omonullayeva qachon va qayerda tug'ilgan, uning yoshlik yillari qanday o'tgan?*
2. *U qanday janrlarda ijod qilgan?*
3. *«Sharq taronalari» festivali uchun qanday asar yaratgan?*
4. *U bolalar uchun qanday asarlar yaratgan?*

Avaz MANSUROV (1957)

O'zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindori, Toshkent davlat konservatoriyasi kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasida professori, kompozitor Avaz Mansurov o'zining uslubi bilan alohida ajralib turadi. Kompozitor turli janrlarda, ayniqsa, qo'shiqchilikda barakali ijod qilib kelmoqda.



Avaz Mansurov 1957-yil 2-noyabrda Qo'qon shahrida tug'ildi. Avazning bolalik yillari teatr sahnasida hamda mashhur xonanda va sozandalarning musiqa va she'riyat davralarida o'tdi. Dastlab musiqa maktabida, so'ngra Qo'qondagi musiqa bilim yurtining «Musiqa nazariyasi» bo'limida a'lo baholar bilan o'qidi.

1982-yilda M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining «kompozitsiya va cholg'ulashtirish» kafedrasini Boris Zeydman sinfida, 1986-yili asisstanturani professor Feliks Yanov-Yanovskiy rahbarligida bitirdi.

Kompozitor A. Mansurov ish faoliyatini 1973-yilda Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining orkestrida sozandalikdan boshladi. 1981—1983-yillarda o'qish bilan bir qatorda Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi bolalar musiqa maktabida ishladi. 1982-yili konservatoriyada o'qishni bitirgach, kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasida pedagog lavozimida asisstanturada qoldirildi. Mazkur kafedrada katta o'qituvchi, dotsent, «Sharq fakulteti» dekani, «Kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedra»si mudiri va 2000-yildan boshlab konservatoriyada o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimida ishlamoqda.

A. Mansurov birinchi ijodiy qalamini fortepyano uchun «Qizcha va tulki», «Qo'rqinchli tush» ertaklariga musiqa bastalashdan boshladi. Skripkachilar ansambli uchun «So'zsiz qo'shiq», fortepyano uchun «Tokkata-preludiya» va bir necha qo'shiqlar yaratdi. A. Mansurovning ijodiy faoliyatida kamer vokal

janrlar ustunlik qiladi. Uning ovoz skripka va fortepyano uchun yozgan «Muhabbat» lirik turkumi, 10 dan ortiq romanslari musiqiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. Ayniqsa, bolalar qo'shiqlarini yaratishda A. Mansurov yuqori natijalarga erishdi. O'ztelekomiya kompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi ijrosida yangragan «Quyosh bilan suhbat», «Kel, baxt kuyin kuylaylik», «Oq kabutar parvozi», «Hur respublikam», «Muzqaymoq», «Tomchilar qo'shig'i», «Dakan xo'roz», «Quvnoq bolalar», «Qo'shig'im, jon qo'shig'im», «O'zbekiston onajon» kabi 100 dan ortiq qo'shiqlari mashhur bo'lib, kompozitorga shuhrat keltirdi. Kompozitor estrada janrida ham unumli ijod qilib kelmoqda. «Navro'z», «Chimyon», «Chaman-chamanim», «Talabalar qo'shig'i», «Oydin yo'l» kabi estrada qo'shiqlari shular jumlasidandir. Kompozitor A. Mansurovning ijodiy faoliyatida teatr sahna asarlariga musiqa bastalash ham ustuvor turadi. Jumladan: «Hayvonlar sultoni», «Sharq afsonasi», «Qo'ng'iroqli yolg'onchi», «Xo'ja Nasriddinning 41-pashshasi», «Ur, to'qmoq» musiqali komediyalarni yaratdi.

Simfonik orkestr uchun ikkita simfoniya, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun uvertura, damli cholg'ular orkestri uchun «Karnay sadosi» va «Askarlar marshi», «Sug'diyona» kamer cholg'u asarlari, fortepyano uchun «Hayvonot bog'ida sayr» kabi musiqali asarlarni yaratdi.

Avaz Mansurov O'zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindori, O'zbekiston Respublikasi faxriy yorlig'i, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Kompozitor A. Mansurov qachon va qayerda tavallud topgan?*
2. *Kompozitor A. Mansurov ish faoliyatini nechanchi yilda qayerda boshlagan?*
3. *Uning fortepyano uchun bastalangan ertaklari nomlarini ayting.*
4. *Kompozitor A. Mansurovning bolalar uchun yaratgan asarlari nomini ayting.*

V BOB. XORIJ MUSIQA MADANIYATI TARIXI

Xorij musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanish davri asosan XVI –XVII asrlarga to'g'ri keladi. Unda yashab ijod qilgan buyuk kompozitorlarning xorij musiqa madaniyatiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Xorij musiqa madaniyatining umum tarixiy shart-sharoitlari, g'oyaviy estetik qarashlari musiqiy hayot ta'lim ijrochilik san'atining eng yorqin, sermahsul asarlarning yaratilishi iste'dodli xorij kompozitorlarining tarixiy voqealarga bo'lgan munosabatlarida o'z aksini topgan. Xorij kompozitorlari yaratgan tarixiy ijod namunalari yuksak madaniyatga ega bo'lgan klassik musiqa va jahon musiqasi rivojlanishida o'chmas iz qoldirdi.

«Klassika» so'zining ma'nosi lotincha «Klassik uz» so'zidan olingan bo'lib «Namunaviy», «Yetuk» degan mazmunni anglatadi. Ko'pincha klassik musiqa klassik mumtoz adabiyot bilan uyg'unlikda vujudga keladi. Klassik musiqa asari chuqur mazmun murakkab tuzilishga qaramay badiiy yetukligi tufayli oson idrok etiladi. U shunday boy xazinaki, uni tinglagan sari tinglaging kelaveradi. Har bir qayta tinglaganda esa yangi badiiy qirralar ochilaveradi.

XVII asrga qadar G'arbiy Yevropada asosan Cherkov va Cherkovga aloqador bo'lmagan dunyoviy musiqa yaratilar edi. Xalq kuylarini chalish yoki kuylash Cherkov tomonidan man qilingan edi. Cherkov musiqasi bir ovozlik va ko'p ovozlik xor asarlari ko'rinishida rivojlanardi. Xalq musiqasi esa faqatgina sayyor xonanda va sozandalar tomonidan ijro etilar edi, xolos. Keyinchalik esa xalq musiqasining musiqiy janrlari, badiiy yo'nalishi, ijrochilik uslubi rivojlanib, yangi chuqur mazmunga ega bo'ldi. Xalq musiqa ijodi xilma-xil mazmunda keng xalq ommasiga manzur bo'ladigan ohangdor lirik qo'shiqlar, jozibador raqslar, cholg'u musiqasi muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi.

XVII–XVIII asrlarda opera san'ati paydo bo'ldi. G'arbiy Yevropada musiqa adabiyoti opera janrini vujudga kelgan davridan boshlab gurkirab butun dunyoga mashhur bo'ldi. G'arbiy Yevropaning yirik kompozitorlaridan I.S. Bax, Iozef Gayden, V.A. Mosart, L.V. Betxoven, Frans Shubert, Fridrix Shopen, Frens List, Juzeppe Verdi, Jorj Bize, Edvar Grik ijodining badiiy betakrorligi bilan jahon musiqa madaniyatining rivojlanishiga ulkan

hissa qo'shdilar. Ularning asarlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari, inson qadriyatlarining erkinligi va baxt-saodat yo'lidagi kurashi, xalqlar do'stligi va mehr-oqibati haqida kuylanadi. Bu yirik asarlar, operalar dastlab regitativ (musiqiy so'zlama), so'ngra ariya va xorlar kiritildi. Bora-bora orkestr muhim rol o'ynay boshladi.

Opera san'ati XVIII asrga kelib maishiy mavzularda yuzaga kela boshladi. Opera san'ati XIX asrga kelib juda tez rivojlanib uning yo'nalishi turli mamlakatlarda turlicha bo'ldi. Opera san'atining vatani Italiya bo'lgani sababli ko'plab mashhur opera kompozitorlari Italiyada yetishib chiqdi. Bulardan «Sevimli Sartarosh», «Vildelt Tell» operasini yaratgan Jorg Rossini, «Pugaviata», «Aida», «Rigoletta» operalarini yozgan Juzeppe Verdi, «Chio Chio San», «Floriya Toska», «Bagema» operalarini yaratgan Puchini kabi kompozitorlar opera san'atining rivojlanishiga asos solganlar.

XVII asrning birinchi yarmida cholg'u musiqasi tarixida yangi davr boshlandi. Bu vaqtga kelib musiqiy san'at demokratlashtirildi. Unda keng omma uchun o'z eshiklarini ochgan orkestr kapellalari, konsert tashkilotchilari kabi demokratik madaniyat o'choqlari vujudga keldi. Vebna, London, Parij, Drezden, Milan kabi ko'plab saroy orkestr kapellalari va kichik kamer ansambllari cholg'u madaniyatining markazlariga aylandi. Atoqli kompozitorlar o'z davrining taniqli ijrochilariga aylandi. Bulardan Skarlatiniy Klavessinchiy, Bokeriniy — vealanchelchi, Vialdi — skripkachi, Mosart — klavesin va fortepyanochi bo'lib tinglovchilarni lol qoldirishdi. Cholg'u musiqasining eng muhim xususiyatlaridan biri grammafon garmoniya uslubining ustunligi edi.

XVII asr cholg'u musiqasi sohasida turfa janrlari bilan sonata, trio, kvartet, konsert, simfoniya, «Sonata-Simfonik turkum» deb ataluvchi janrlar paydo bo'ldi. «Sonata-simfonik turkum» odatda 3- yoki 4-«Sonata, Allegrosi og'ir qism, Menu, et, final» qismlaridan iborat.

XVIII asrda klavir musiqasining rivojlanishida «berlinlik», «gamburgerlik» Bax deb nom olgan Filip Baxning ijod yo'nalishi ko'p jihatlari bilan o'zining otasi Iogan Sebastyan Baxning amalga oshirgan ishlariga qarama-qarshi edi. Shunga qaramay, F.E. Bax

klavir uchun 100 ga yaqin sonatalar, konsertlar fantaziyalar, kichik hajmdagi asarlar yaratib yuksak natijalarga erishdi. Klavir sonatasi sohasida Iossif Gayden, V.A. Mosart va L. V. Betxovenlarning fortepyano sonatalariga yo'l ochib berdi. F.E Bax musiqasining ehtirosli, shiddatli his-hayajonliligi bilan bir qatorda ilg'or nemis adabiyotini qamrab olgan davridagi adabiy-badiiy harakatlari va madaniyatini ko'rsatib bera oldi. Shu davrda juda ko'plab cholg'u musiqalari yaratildi, skripkaboqlik san'ati rivojlandi. Nikollo Pogoneni, Vivaldiy Korelli kabi mashhur skripkachilar sozandachilik san'atini butun dunyoga tanitdi. Ayniqsa, organ musiqasi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Organ uchun faqat diniy mazmundagi asarlar emas, balki dunyoviy fuga, preludiya, fantaziyalar yaratildi.

Xorijiy kompozitorlar tomonidan yirik shakldagi asarlar bilan bir qatorda kichik shakldagi lirik va raqs xarakteridagi asarlar yaratilib butun dunyoga mashhur bo'ldi. I.S. Bax, L.V. Betxoven, V.A. Motsart, D. Verdiy, F. Shopen, P. Chaykovskiy, M. Glinka, Edvar Grik, J. Bize, M.P. Musorgskiy kabi buyuk kompozitorlarning asarlari o'zining betakrorligi bilan jahon musiqa madaniyati oltin xazinasini yanada boyitdi. Bu asarlarda oliy insonparvarlik g'oyalari inson qadriyatlari erkinligi, baxt-saodati yo'lidagi kurashi kuylanadi.

Har bir xalq ta'limida musiqa tarbiyasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi va ilmiy-metodik yutuqlari boshqa millatlarning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

IOGANN SEBASTYAN BAX

(1685–1750)



Chet el kompozitorlari ichida dunyoga mashhur bo'lgan Iogann Sebastyan Bax 1685-yil nemis shaharlaridan Bonn shahrida tug'ildi. I.S. Baxning musiqaga bo'lgan qobiliyati juda erta namoyon bo'ldi. Lekin atrofdagilarning unga befarqligi sababli, o'n besh yoshida o'zi mustaqil hayot boshlashga qaror qiladi va boshqa shaharga ko'chib ketadi. Gimnaziyani tugatgach, universitetga o'qishga kirishga yo'llanma berishadi. Lekin u bu imkoniyatlardan foydalana olmaydi, chunki yashash va o'qish uchun mablag' topa

olmaydi.

Ish topish maqsadida bir necha marta shahardan shaharga ko'chib yuradi, lekin qoniqarsiz mehnat sharoitlari, kamsitishlar unga yoqmaydi. Shunga qaramasdan u ijod qilishdan to'xtamaydi, yangi bilimlar o'rganib, maqsadi sari intiladi. Bax mashhur san'atkorlar, musiqachilar, organchilar bilan tanishib ularning ijro uslubini o'rganar edi.

I.S. Bax mashhur organchi, musiqachilarning ijrosini tinglash uchun boshqa shaharlarga piyoda boradi. Uning ijrochilik qobiliyati kun sayin rivojlanib borar edi. U zamondoshlari ichida eng yaxshi organ va klavish ijrochisi edi. Buni hatto Baxning rahbarlari tan olishga majbur bo'ladi.

Dastlab Beymar shahrida yashay boshlaydi, knyaz kapellasiga skripkachi sifatida ishga kiradi. U yerdan qoniqmasdan boshqa shahardagi yangi cherkovga organchi lavozimiga ishga kiradi va bu shaharda o'zining kompozitorlik ijodini davom ettiradi. Bu yerda u organ uchun, skripka va orkestr uchun, xor uchun kantatalar yoza boshlaydi. Myulxauzen shahrida Bax «Tanlangan kantata»ni yozadi. Ushbu kantata Baxning hayoti davomida nashr etilgan yagona asardir.

1717-yilda I.S. Bax oilasi bilan Kyoteng shahriga ko'chib keladi. Kyoteng shahzodasi saroyida Bax «kamer musiqasi direktori» lavozimiga tayinlanadi. U asosan klavish va orkestr uchun musiqalar

bastalar edi, shahzoda kuylaganda unga joʻr boʻlish va uni klavesinda chalish orqali shahzodaning koʻnglini olar edi.

Kyotengda Bax ikki ovoqli invekunalar yaratdi. «Хорошо темпированный клавир» deb atalgan katta kitobi birinchi jildini tashkil qiluvchi 24 prelyudiya va fugarolarni yozib tugatdi. U oʻgʻillari bilan ustoz-shogird boʻlib, musiqa yozish va skripka, klavesinda chalish sirlarini oʻrgatdi. Ularga fransuz va ingliz tillarini oʻrgatdi. Xotining vafotidan soʻng u boshqa ayolga uylanadi va Leyptsig shahriga koʻchib oʻtadi. Xotini unga yaxshi doʻst, yordamchi boʻlib, unga dalda berib turadi. U Avliyo Foma cherkovida xizmat qila boshladi. Bu yerda u eng yaxshi vokal-cholgʻu asarlarini, koʻpgina kantatalar, «Motam odosi», «Minor» pyesalarini yaratdi.

Yirik vokal cholgʻu asarlari bilan bir qatorda, mashhur «Italiyancha konsert» yozdi. Keyinroq «Хорошо темпированный клавир»ning ikkinchi jildini tugatdi. Unga 24 ta yangi prelyudiya va fugalar kiritdi. Kompozitor pedagogik adabiyot yaratishga koʻproq vaqt ajratib, boshlovchilar uchun kichik preludiyalar, ikki va uch ovoqli invensiyalarni darslik sifatida yaratdi.

Bundan tashqari koʻplab cholgʻu sadolar uchun skripka, fartensiya, klavesinlar uchun musiqiy asarlar yaratdi. Mashhur skripkachilar Nikolo Pogonini, Vivaldi Korelli bu asarlarni ijro etib, sozandachilik sanʼatini butun dunyoga tanitdilar. Ayniqsa, organ musiqasi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Oldin organ uchun faqat diniy mavzudagi asarlar ijro etilsa, endi esa dunyoviy asarlar fuga, prelyudiya, fantaziyalar yaratdi.

I.S. Bax oʻzining betakror, goʻzal, lirik, yirik va kichik shakldagi asarlari bilan jahon musiqa madaniyatining oltin xazinasini yanada boyitdi va butun dunyoga tanitdi. I.S. Bax 1750-yili vafot etdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Bax qachon va qayerda tugʻilgan?
2. Bax necha yoshdan musiqa yozishni boshladi?
3. Nima uchun Germaniyada «har bir musiqachini Bax deb va har bir Baxni musiqachi» deb atashar edi?
4. Bax qanday janrdagi asarlarni yaratgan?

VOLFGANG AMADEY MOTSART (1756–1791)



Chet el kompozitorlari ichida dunyoga mashhur bo'lgan kompozitor, avstriyalik Volfgang Amadey Motsartdir. U 1756-yil 27-yanvarda Avstriyaning kichik bir shaharchasi Zalsburgda saroy kompozitori va organchisi Leopold Motsart oilasida dunyoga kelgan. Motsartning musiqaga bo'lgan qobiliyati 3 yoshidan boshlab yaqqol sezila boshlagan. U soatlab klavesinda shug'ullanar, opasi, 8 yoshli Annaning chalgan kuylarini bir eshitishda xatosiz, aynan qaytarib chalib bera olar edi.

Otasi Leopold o'g'lining musiqiy qobiliyatiga tan beradi va Anna bilan bir qatorda Volfgang bilan ham astoydil shug'ullana boshlaydi. Volfgang Motsart 6 yoshida klavesinda yaxshi chala oladigan darajaga erishadi va birinchi asarlarini, kichik hajmdagi pyesalarini yoza boshlaydi.

Yetti yoshga kirganda Motsart opasi Anna bilan Fransiya qirolining rezidensiyasi — Versal saroyida konsert beradi. Bolalar dastlab bir nechta murakkab asarlarni chalib hammani hayratga solishadi. Keyin Volfgang Motsart skripkasini olib bir qancha asarlarni nihoyatda katta mahorat bilan chalib beradi. Opasi Anna unga klavesinda jo'r bo'ladi. Saroyga to'plangan mehmonlar Volfgang bilan qiziqib qolishadi. U birinchi marta ko'rayotgan notanish asarlarni ham notaga qarab to'xtamasdan, qiyomiga yetkazib ijro etadi. Berilgan musiqa bo'lagini ham xilma-xil bezaklar qo'shib turlicha chalib beradi. Mehmonlar chalgan musiqa bo'lagini ko'zi bog'liq holda hech qiynalmay chaladi. Hatto bokallarning bir- biriga urishtirilishidan chiqqan tovushlarni ham aniq chalib beradi. Qo'shiq kuylamoqchi bo'lgan ayrim mehmonlarga klavesinda adashmasdan jo'r bo'lib turadi. Berilgan barcha topshiriqlarni hozirjavoblik bilan yechib berib, butun parijliklarni qoyil qoldiradi.

Uning nomi boshqa shaharlarga ham yoyildi. U bir necha yil

davomida Vena, Parij, London, Gana, Brussel, Jeneva kabi shaharlarda konsertlar berdi.

Otasi Leopold o'g'li Volfgangga musiqa yozish sirlari hamda kompozitsiyalarni mukammal o'rgatib bordi. Natijada 8 yoshli Motsartning birinchi kitobi Parijda bosilib chiqdi. Motsart o'n ikki yoshida o'zining birinchi operasini yaratdi.

Volfgangning otasi bolalarining har tomonlama keng bilim olishiga sharoit yaratib berdi. Yosh Motsart chet tillari, tarix, geografiya, arifmetika va boshqa fanlardan ham yetarlicha bilim oldi. U Parij va London opera teatrlariga hamda simfonik orkestr konsertlariga tez-tez borib turardi.

Volfgang Motsartning Italiyaga otasi bilan qilgan safari uning hayotida o'chmas iz qoldiradi. Italiya shaharlarining boy arxitekturasi, dilbar tabiati, muzey va teatrlari yosh Motsartni yanada ilhomlantirdi.

Bir necha oy davomida Motsart Italiyadagi eng yetuk musiqa nazariyotchisi Padre Martinidan kompozitorlik sirlarini o'rganadi. O'qish oxirida 14 yoshli Motsart sinovlardan oliy darajada o'tib, Boloniya Musiqa akademiyasining faxriy a'zosi diplomini olishga muvassar bo'ldi.

Yangi taassurot va yangi ilhomlar bilan u juda ko'plab musiqa asarlari yaratdi. «Figaroning uylanishi», «Sehrli nay» operalari, ko'plab simfoniylar, fortepyano uchun yozilgan sonatalar, konsertlar va xor uchun qo'shiqlar uning ijod mahsuli bo'ldi.

Ammo mahalliy aristokratlar Volfgang Amadey Motsartning buyuk iste'dodini yetarlicha qadrlashmadi. Unga xizmatkor, boy va badavlat kishilarning ko'nglini olish uchun xizmat qiluvchi oddiy bir qiziqchi sifatida qarashdi. Motsart esa musiqaga hayotiy zarurati bo'lgan muhim ish deb qarardi.

Volfgang Amadey Motsart hali «Sehrli nay» operasini tugatmasdan, uning oldiga qora kiyimdagi bir odam kelib, «Rekviyem»ga buyurtma berib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Motsart g'alati bir sharoitda buyurtmani qabul qiladi va boshqa u odamni ko'rmaydi. Motsart bu buyurtmani o'limi yaqinlashib kelayotgan bemor sifatida qabul qiladi.

«Rekviyem» — Motsartning eng ulug' asarlaridan biridir.

An'anaviy lotin matniga dafn marosimida ijro etish uchun yozilgan bu asar o'z musiqasiga ko'ra, sig'inish aqidalari doirasidan chiqib ketadi. Xor, vokal kvarteti va simfonik orkestr vositalarida Motsart chuqur insoniy tuyg'u va iztiroblarni mujassamlashtiradi: unda odamlardagi ruhiy ziddiyatlar drammatizmi, qiyomatning dahshatli manzaralari, yaqinlarni yo'qotishdagi buyuk qayg'u va alam, insonga bo'lgan ishonch va muhabbat aks etgan. Motsart «Rekviyem»ni oxiriga yetkaza olmaydi: ushbu buyuk asar ustidagi ishni o'lim uzib qo'yadi. Qolgan eskizlardan, qoralama yozuvlardan foydalangan holda bu asarni Motsartning shogirdi Zusmayer oxiriga yetkazgan.

Wolfgang Amadey Motsart 1791-yil 5-dekabrda vafot etdi.

Motsart hammasi bo'lib 36 yil umr ko'rdi. Ammo shu qisqa davr ichida boy musiqiy meros qoldirdi. Butun dunyo kishilari uni buyuk kompozitor sifatida tan olishadi va uning asarlarini sevib tinglaydilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Motsart qachon va qayerda tug'ilgan, uning yoshligi haqida gapirib bering.*
2. *V. Motsart necha yoshdan boshlab musiqa asarlarini yarata boshladi?*
3. *Motsart o'zining birinchi operasini necha yoshda yozgan?*
4. *Motsartning keng bilim olishi uchun qanday sharoitlar yaratilgan?*
5. *Motsart qaysi shaharlarda konsertlar bergan va ijod qilgan?*
6. *Motsart qachon Boloniya musiqa akademiyasining faxriy a'zosi diplomini olgan?*

LYUDVIG VAN BETHOVEN (1770–1827)



Lyudvig Van Betxoven Germaniya-ning Reyn daryosi bo'yida joylashgan uncha katta bo'lmagan Bonn shahrida 1770-yilda dunyoga keldi. Uning bobosi ham, otasi Iogann ham ko'p yillar mobaynida saroy musiqachisi, ashulachi bo'lib ishlashgan.

Betxovenlarning oilasi kambag'alchilikda kun kechirardi. Lyudvig juda ham kamgap, o'z xayollari bilan yuradigan va odamovi bola edi. Ammo u musiqani jon-

u dili bilan sevardi. Otasi bolalarining musiqachi bo'lishini istamas edi. Shuning uchun ham yosh Lyudvig otasidan yashirincha skripka chalishni o'rganib oldi.

O'g'lining skripka chalishini tasodifan eshitib qolgan Iogann avval o'g'lini nihoyatda qattiq koyidi, so'ng Lyudvigning iste'dodli ekanini sezib, undan ikkinchi Motsart tayyorlamoqchi bo'ldi va bu orqali boyib ketish payiga tushdi. Iogann yosh Lyudvigga klavesin va skripkada chalishni mashq qildirib boshladi. Ammo uning olib borgan mashg'ulotlari asosan gamma mashqlarini chaldirishdan iborat bo'lar edi. Lyudvig eshitgan musiqalarini tezda mustaqil o'rganib olar va anchagina asarlarni yod chaldirdi.

Oradan ma'lum vaqt o'tganidan so'ng, otasi Iogann 1778-yilda 8 yoshli Lyudvigni jamoat oldiga birinchi bor musiqiy chiqishini tashkil qiladi.

Konsert muvaffaqiyatli yakunlanadi va yosh, iste'dodli Lyudvig Van Betxovenning nomi xalq ichida tezda mashhur bo'lib ketadi. Endi unga maxsus o'qituvchilar chaqira boshlashadi. Organchi Nefe uning asosiy o'qituvchisi va qadrdon do'sti bo'lib qoldi.

Tez orada Lyudvig klavesin, skripka va organda yaxshi chala oladigan, asarlarni erkin improvizatsiya qilib (turlicha bezak va shakllarda) chaladigan bo'ldi. Lyudvigni umumiy ta'lim maktabiga berish uchun oilaning mablag'i yetishmas edi. Juda katta mehnat

evaziga Lyudvig maktabda o'qitiladigan fanlarni mustaqil o'rganib oldi. U ayniqsa, nemis tili va adabiyotini, qadimgi filosoflarning asarlarini mukammal bilardi.

Oilaning nochor ahvoli Betxovenni yoshligidan ishlashga majbur qildi. U saroy kapellasida organ chaluvchining yordamchisi bo'lib ishlay boshladi.

Lyudvig Van Betxoven yoshligidan boshlab asarlar yozishga qattiq kirishdi. Ayniqsa, uning yaratgan sonatalari va simfoniyalari butun dunyoga mashhur bo'lib ketdi.

Barcha qiyinchiliklarni yengib, Lyudvig Van Betxoven 17 yoshida Venaga keladi. U yerda Betxoven, Wolfgang Amadey Motsart bilan uchrashmoqchi bo'ladi. U bilan uchrashib, menga topshiriq bering deb, Motsartdan iltimos qiladi. Motsart unga polifonik bayonli ikki misrani topshiriq qilib beradi. Betxoven mashhur bastakorning bergan topshirig'ini a'lo darajada bajaradi. Darslar miqdorini ko'paytirish maqsadida u qo'shimcha ish topishga harakat qiladi. Bundan tashqari oilasi ham ijtimoiy tomondan og'ir ahvolda bo'ladi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida u juda ko'p ishlaydi. Bunday og'ir yuk, uning sog'lig'iga putur yetkaza boshlaydi. Shunga qaramay Betxoven allaqachon taniqli, mashhur san'atkor bo'lib, Yevropaning eng yetuk, pianinotchilari bilan bir qatorda edi. Yosh musiqachi o'zining baxt yulduzlari porlagan onlariga yetib keldi. Betxoven 22 yoshida «Bonn davri» deyilgan bosqichga yetib keldi va ko'p asarlar yozib, barchani hayratda qoldirdi.

Bu orada Betxoven Venaning mashhur musiqachilaridan biri bo'lib tanildi. Bu davrda Betxoven o'zining uslubiga sayqal bera boshlaydi va yangilik yaratishga harakat qilib, yorqin ijodkor sifatida shakllanadi. San'atini tasdiqlash uchun keskin kurash olib borayotgan davrida Betxoven og'ir kasalga uchraydi, uning eshinish qobiliyati yo'qola boshlaydi. Shunga qaramay, L.V. Betxoven o'zini yo'qotmay, aqli, fahm-farosati bilan kasallikni yengishga harakat qiladi. Buyuk bastakor yuragini 16 yoshli aristokrat qiz zabt etadi. Qiz ham sevgiga qarshi chiqmaydi. Betxoven o'zida yana yangi kuch seza boshlaydi va bu go'zal nafosatli, hayoli-iboli qizga atab «Lunnaya sonata»sini yozib bag'ishlaydi. Lekin qizning xonadoni

Betxovenni qabul qilmaydi, chunki ular musiqachilarni ikkinchi darajali insonlar sifatida tan olishardi. Bu qizni boshqa grafga turmushga berishadi.

Hayotining oxirgi yillarida Betxoven og'ir qiyinchiliklarga duch keldi. Qizamiq kasali oqibatida Lyudvigning quloqlari eshitmay kar bo'lib qolishi uning uchun dahshatli ko'rgilik bo'ldi.

Barcha qiyinchiliklarga qaramay, Betxoven hayotining oxirigacha musiqani tashlamadi. U o'zidan juda ko'plab nodir musiqa asarlari — sonatalar, pyesalar, simfoniya, oratoriya va «Fidelio» operasini qoldirdi.

Hozirgi kunda ham xalqaro pianinochilar, organchilar va simfonik orkestrlarning ko'rik-tanlovida Lyudvig Van Betxovenning asarlari albatta ijro etiladi.

Lyudvig Van Betxoven musiqaning buyuk qudratli kuch ekanligini bilgan holda: «Musiqqa inson qalbini chaqmoq kabi yoritmog'i lozim!» — deya xitob qilgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Betxoven qachon va qayerda tug'ilgan?*
2. *Betxovenning ilk bolalik yillari qanday o'tgan?*
3. *Betxovenning birinchi konserti qayerda bo'lgan?*
4. *Betxoven oilasining nochor ahvoli ijodiga qanday ta'sir etgan?*
5. *Betxoven qanday janrdagi asarlar yozgan?*
6. *Betxoven «Лунная соната» asarini kimga bag'ishlagan?*

FRIDERIK SHOPEN (1810–1849)



Friderik Shopen jahon musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk polyak kompozitori. U fortepyano ijrochiligida eng yuqori mahoratga erishgan, o'z zamonasining (virtuoz) mohir pianinochisi va polyak mumtoz musiqasining asoschisidir.

Kompozitor Polsha poytaxti Varshava atrofidagi hududlarning birida 1810-yili tavallud topgan. Buyuk iste'dodga ega bo'lgan Friderik musiqa bilan juda erta shug'ullana boshladi va birinchi asarini 7 yoshida bastaladi. 8 yoshidan esa oila va jamoa yig'inlarida pianinochi sifatida konsertlarda qatnashadi.

1830-yili Friderik o'z ijrochilik mahoratini oshirish maqsadida Parijga boradi va taqdir taqozosi bilan umrining oxirigacha yurtiga qaytmaydi. Chunki, 1831-yili Polshada inqilobiy kurashga chek qo'yiladi. Vatan mustaqilligi uchun kurashganlarni qatl qilishadi. Friderik esa, o'z davrida mustaqillik uchun kurashganlar safida bo'lgan edi. Shu bois, uning ijodiy faoliyati yurtidan uzoqda o'tdi.

Bu yerda hayotining oxirigacha yashaydi. Biroq Fransiya Shopenga ikkinchi Vatan bo'la olmaydi. O'z turmush tarzi bilan ham, ijodi bilan ham, polyakligicha qoldi. Turli-tuman mamlakatlardan kelgan taniqli musiqachilar, pianinochilar Shopenning musiqiy asarlari va ijrochilik mahoratidan hayratda qolishadi. Uning ijrosidagi Shopenga xos, tovush go'zalligi, ifodali texnik ijrosi, asarlardagi ko'tarinkilik obrazlari faqat Shopenga xos edi. Bu asarlar XIX asr romantik san'atga xos bo'lgan tuzilishi bilan ijro usuliga uyg'unlashib ketgan edi.

Motsart, L.V. Betxoven, Venalli ijrochilik mahoratlari, musiqiy asarlari bilan maftun qilib, barchani hayratda qoldirgandek, F. Shopen ham Parijni shunday lol qoldirdi. Shopen konsertlarda

ko'pincha o'zi yozgan asarlarni, gohida fortepyanoda, gohida simfonik orkestr jo'rligida ijro etardi. Nemis bastakor va tanqidchilardan biri Robert Shuman Fridrix Shopenning asarlari, ijrochilik mahorati va o'zi haqida: «Xonimlar va janoblar bosh kiyimingizni qo'lga oling, o'ringizdan turing, huzuringizda daho turibdi», degan edi.

U 1849-yili Parijda vafot etadi, lekin uni vasiyatiga ko'ra Polshaning poytaxti Varshavaga olib kelib dafn etishadi.

F.Shopen ijodida fortepyano musiqasi asosiy o'rinni egallaydi. Uning ijodidagi o'ziga xoslik, asarlarining milliyliigi, g'oyaviy obrazlilik va his-tuyg'ularga boyligi nozik ruhiyatida namoyon bo'ladi.

F. Shopen ijodi jahon musiqasiga, xususan, fortepyano musiqasi rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. U, asosan, fortepyano uchun asarlar yaratgan va ular «Oltin meros»ning eng yorqin namunalariga aylangan. Har bir pianinochi uning asarlari ijro etishni faxr deb biladi. Shopen asarlari: 2 ta konsert, fortepyano uchun: 4 ta pyesa, 3 ta sonata, 4 ta ballada, 76 ta polonez, 60 ga yaqin mazurkalar, 17 ta vals, 27 ta etud va boshqalardan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *F. Shopen qachon va qayerda tug'ilgan?*
2. *U necha yoshdan musiqa yozishni boshlagan?*
3. *U kompozitorlikdan tashqari yana qanday kasb egasi bo'lgan?*
4. *Shopen qaysi janrlar bo'yicha boy ijodiy meros qoldirgan?*
5. *U fortepyano uchun qanday va nechta asarlar yozgan?*
6. *U qaysi davlatlarda konsertlar bergan?*

VI BOB. RUS MUSIQA MADANIYATI TARIXI

Rus musiqa madaniyatining eng sermahsul va yorqin davri XIX–XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Unda yashab ijod qilgan musiqa madaniyatining rivojlanishida o‘chmas iz qoldirgan rus kompozitorlarining qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Musiqa madaniyatining rivojlanishi va takomillashib borishi jarayoni rus xalqi va hayoti turmush tarzi musiqa ijodini shakllanishiga asoslangan holda tarkib topgan. Rus musiqa madaniyatida munosib o‘rin olgan noyob, sermahsul asarlarda iste‘dodli rus kompozitorlari o‘zlarining falsafiy nafasat, axloqiy, ma‘naviy dunyoqarashlarini tarixiy vodealarga munosabatlarini bildirib ijod qilganlar. Ular musiqani xalqlar ozodligi va baxti uchun kurashishning samarali vositasi deb hisoblaganlar. Shu bilan birga, G‘arb madaniyatining rivojlanishida rus musiqa madaniyatining ahamiyati katta. XIX asrning ikkinchi yarmida rus kompozitorlari yaratgan ijod namunalari rus musiqasining yuksak madaniyatga ega bo‘lgan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari darajasiga olib chiqdi.

Ma‘naviyat va ma‘rifatning qaysi bir sohasini olmaylik zamonaviylikka intilish rus xalqining uzoq o‘tmishi va tarixiga borib taqaladi. Ayniqsa, XIX asr rus madaniyatining rivojlanishida musiqa salmoqli o‘rin tutadi. 1812–yildagi Vatan urushining Rossiya g‘alabasi bilan tugashi rus podshosi tomonidan qul dehqonlarga ozodlik va huquqlar berilishi muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Rossiya tarixidagi bunday muhim voqea va hodisalar jamoatchilik fikri rivojlanishiga hamda rus san‘atining gullab-yashnashiga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi va uni jahonga tanitdi. Bu davrda rus musiqasi jahonshumul badiiy ahamiyat kasb etdi, hamda Yevropaning yirik milliy kompozitorlik maktablari qatorida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi. Aynan shu davrda A.L. Gurilov, A.V. Varlamov, A.A. Alyabev, A.N. Vertovskiy va boshqalar ajoyib asarlar yaratib musiqa madaniyati rivojlanishiga asos solganlar. Ularning qo‘shiq-lari romanslari yirik musiqiy asarlari hozirgacha sevib kuy-lanadi va ting-lanadi. Ular orasida A.L. Gurilovning «Qo‘ng‘iroqcha», «Ko‘k qanot qaldirg‘och» romanslari, A.Y. Varlamovning «Tongda uni uyg‘otma», «Qizil sarafan»

folklorlari, A.A. Alyabevning «Bulbul», «Men sizni sevardim» romanslari, A.N. Vertovskiyning «Qora shol ro‘mol», «Bechora guyanda» kabi balladalari, operalari fortepyano uchun asarlari, xor, ariyalarida kuylanadigan vatanparvarlik, qahramonlik fazilatlarini madh etilgan rus vocal asarlari musiqa ijodiyotida alohida o‘rin egallagan va ko‘zga tashlangan.

A.N. Vertovskiy musiqa tarixida sahna (teatr) kompozitori romantik operalar muallifi sifatida iz qoldirdi. O‘zining mashhur «Askold qabri» operasida yangi mavzularni va ta’sirchan musiqiy grammatik vositalarni kiritgan edi. Mana shu opera rus milliy musiqa maktabining yaratilishi uchun asos bo‘ldi.

XIX asrning yigirmanchi yillarida rus mumtoz musiqasining asoschisi M.I. Glinka o‘zining ijodiy faoliyatini boshlaydi. U o‘zining ser mahsul ijodi bilan rus musiqasini yangi bosqichga ko‘taradi. Rus musiqa madaniyatida bu davr «Glinka davri» deb ham atalgan. M.I. Glinka rus mumtoz sinfoniyasi opera va romans janrlariga asos soldi. Mixail Glinka o‘zining keng dunyoqarashi, xalqparvarligi va zamonasining ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki bilan boshqa kompozitorlardan ajralib turar edi.

1830-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Rus musiqasi sahnasida mashhur rus kompozitori A.S. Dargomijskiy ijodi yuksaldi. M.I. Glinkani yosh zamondoshi va yaqin izdoshi bo‘lgan A.S. Dargomijskiy ijodida XIX asrning 40–60-yillariga xos tanqidiy realizm oqimi o‘z aksini topdi. Rus shoirlari ijodi bilan hamohang tarzda rus lirik romanslari ham ilgarilandi. XIX asrning boshlarida paydo bo‘lgan romantizm badiiy yo‘nalishi tez suratlarda rivojlanib quloch yoydi. Rossiyada ham romantizm yo‘nalishida tengsizlik adolatsizlikka nisbatan norosizlik kayfiyatlari o‘z ifodasini topgan edi. Insoniyatning shaxs oldidagi va inson ma’naviy kuchining erkinligi haqidagi orzu-umidlari shoir va kompozitorlar asarlarida madh etildi.

Romantizm badiiy uslubiy yo‘nalishi bo‘yicha yosh shoir A.S. Pushkin va uning zamondoshlari ijodida muhim o‘rin egalladi. A.S. Pushkin davrida yashab o‘tgan kompozitorlar ijodida romantizm ko‘proq aks ettirildi. Bu hol ularga musiqa tili va uslubining boyishiga muhim asos bo‘ldi. Romantizm davrida o‘ziga

xos eng sara asarlarda M.I. Glinka va A.A. Alyabev romanslarida A.N.Vertovskiy operalarida, A.Y. Vorlamov lirikasida voqelikni har tomonlama aks ettirishga intilishdi. Rus musiqasining rivojiga A.S. Pushkinning ijodi katta ta'sir ko'rsatdi. Uning tarixiy operasi «Ivan Susanin» M. I. Glinka rus mumtoz operasining keyingi rivojlanish yo'llarini belgilab berdi.

A.S. Dargomijskiy «Suv parisi» nomli operasi ijtimoiy tengsizlik mavzusini, oddiy inson fojeasini haqli uslubda tasvirladi. M.I. Glinkaning simfonik ijodida «Камаринская» va «Ispancha» uverturalarida rus musiqasiga poydevor qo'yildi. Simfoniya rivojlanishining ushbu tamoyillari keyinchalik «Qudratli to'da» kompozitorlarining ijodida munosib davom ettirildi. Bu davr rus madaniyatining adabiyot, tasviriy san'at va musiqa sahnalarida eng yuqori cho'qqilarga intilayotgan va kompozitorlar yangi yo'nalishlari qizg'in ijod qilayotgan davr edi. Shu davr san'ati namoyandalarining A.S Dargomijskiy, M.P. Musorgskiy, A.R. Borodin, N.A. Rimskiy-Korsakov, M.A. Belakuryev ijodini hamdardlik va zolimlarga nisbatan nafrat mavzulari birlashtirgan edi. Ushbu «Qudratli to'da» san'atda tanqidiy realizm nomini olgan edi. Ular mumtoz musiqa rivojlanishiga asos solgan kompozitorlar bo'lib hisoblangan.

M.I. GLINKA (1804–1857)



Mixail Ivanovich Glinka – rus mumtoz musiqasiga asos solgan buyuk kompozitor. Uning rus musiqasi tarixida tutgan o‘rnini A.S. Pushkinning rus adabiyotiga qo‘shgan hissasi bilan qiyoslash mumkin.

M.I.Glinka serqirra iste‘dod sohibidir. U o‘z ijodida rus xalqi hayotining turli tomonlari va qiyofasini yoritib berdi. Glinkani haqli ravishda rus mumtoz operasi va romansining yaratuvchisi, rus mumtoz simfonizmining asoschisi, deb ayta olamiz. Glinka ijodining yuksak tarixiy ahamiyati shu bilan ham belgilanadiki, unga chuqur milliylik xos bo‘lib, ayni paytda, u boshqa xalqlarning ruhiyat olamini ham idrok etish qobiliyatiga ega edi. Xususan, Sharq, Italiya, Ispan mavzulari uning ijodida haqiqiy qiyofada «jonlanadi».

Romantizm avj olgan davrda Glinkaning ijodi ham gullab-yashnadi.

M.I.Glinka 1804-yil 20-may (1-iyun)da Smolensk guberniyasining Novospassk qishlog‘ida dunyoga keldi. U kasbiy musiqa bilan birinchi marta bolaligidayoq tanishdi. Uning amakisiga tegishli krepostnoy dehqonlar orkestri rus qo‘shiqlarini, mumtoz pyesalar va raqslarni ijro etardi. Glinka fortepyano va skripkada chalishni juda erta boshladi.

M.I. Glinka mukammal o‘rta ta‘limni 1818–1822-yillarda Peterburgdagi Pedagogika bilim yurti qoshidagi pansionda oldi. Yosh Glinkaning ta‘limida uning murabbiylaridan Sh. Mayer katta o‘rin tutadi, u bo‘ljak kompozitorga pianizmdan saboq berish bilan birga, dastlabki kompozitorlik tajribasini orttirishga ham yordam berdi.

1825-yil 14-dekabrda ro‘y bergan dekabristlar qonli qo‘zg‘oloni Glinka xotirasida o‘chmas iz qoldirdi, uning qalbida o‘z xalqiga yuksak ishonch va Vatanga xizmat qilish istagi mustahkamlandi.

Shundan keyin Glinka ijodga sho'ng'ib ketadi, bu davrda uning kompozitorlik iste'dodi yaqqol namoyon bo'ladi. Uning birinchi ijodiy tajribasi fortepyano uchun variatsiyalar, uverturalar va kamer musiqasi chizgilari bo'lsa, keyinchalik «Havasimni keltirma», «Bechora go'yanda», «Yonimda kuylama, go'zal» kabi yirik romanslari hamda «Ravon vodiy bo'ylab» deb nomlangan xalq qo'shig'iga variatsiyalar dunyo yuzini ko'rdi. Ayni paytda uning pianinochi va qo'shiqchi sifatidagi ijrochilik mahorati ham o'sib boradi. XIX asrning 20-yillari oxiriga kelib, uning nomi dunyoga tanildi. U atrofidagi ijobiy muhitni chanqoqlik bilan o'ziga singdiradi. Pushkin, Griboyedov, Jukovskiy, Miskevichlar bilan yaqinlashadi, ular ta'sirida kompozitorning estetik qarashlari va ijodiy g'oyalari shakllanadi. U simfoniya va opera adabiyotini chuqur o'rganib, o'z mahoratini muntazam oshiradi. Lekin Glinka bu bilan qoniqa olmasdi, chunki uni G'arb musiqasi hayoti o'ziga ohanrabodek tortardi. U 1830-yilda Italiyaga sayohat qiladi, Milanda yashaydi, Neapol, Rim, Venetsiyani ko'radi. Keyin Avstriya va Germaniyaga yo'l oladi. Italiyaning opera madaniyati va mumtoz cholg'u ijrochiligi bilan qiziqadi, ulardagi ijroning ravonligi, erkinligi va mukammallik mujassamligi uni o'ziga rom qiladi.

Italiya mavzularida yaratilgan fortepyano variatsiyalari uning Italiya san'atiga bo'lgan katta qiziqishidan dalolat beradi. Xorij safarida kompozitor G'arbiy Yevropa kompozitorlari erishgan katta yutuqlar bilan tanishadi. Italiyada G. Berlioz, F. Mendelson, V. Bellini, G. Donitsettilar bilan samimiy munosabatlar o'rnatadi, bell canto san'atini amalda o'zlashtiradi. Betxoven, Kerubini, Veber operalarini, G'arbiy Yevropa klassiklarining simfonik musiqasini tinglaydi. Bularning barchasi uning dunyoqarashini kengaytirib, uni yangi maqsadlar sari yetaklaydi.

O'z dunyoqarashi va bilimlarini kengaytirgan Glinka o'z oldiga rus operasini yaratishni maqsad qilib qo'yadi. U 1834-yilda vataniga qaytgach, milliy operani yaratishga kirishadi va «Ivan Susanin» («Shoh uchun hayot») operasi ustida ish boshlaydi. U katta qahramonlik haqida opera yaratishni orzu qiladi. Bunday asar mavzusini unga Jukovskiy taklif etgan. Kompozitor ruhiy

ko'tarinkilik bilan ijodga kirishsa-da, ammo librettoning yo'qligi tufayli ancha qiynaladi. Matnni yozish saroyga yaqin shoir G.I. Rozenga topshirilgan edi. Glinka musiqiy vositalar orqali xalq fojiasining asosiy mazmunini – o'z hayotini vatan uchun qurbon qilgan dehqonning buyuk jasoratini ko'rsata oldi.

Opera premyerasi 1836-yil 27-noyabrda bo'lib o'tdi. Pushkin, Gogol, Odoyevskiylar asarga yuqori baho berib, uni buyuk tarixiy voqea; deb atadilar.

M.I. Glinka o'zining ilk opera asari bilan rus musiqasi san'atida klassik davrni ochib berdi. Uning ijodida ham yangi davr – ijodiy yuksalish davri boshlandi. Uning san'ati o'z vatandoshlari va chet ellik muxlislar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

M.I. Glinka «Ruslan va Ludmila» nomli yangi opera ustida ish boshlaydi va bir vaqtning o'zida N.K.Kukulnikning «Knyaz Xolmskiy» fojiasiga musiqa bastalaydi, «Peterburg bilan vidolashuv» («Прощание с Петербургом») romanslar turkumining yaratilishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Bu davrda yozilgan romanslardan «Shubha» («Сомнение»), «Tungi ko'rik» («Ночной смотр»), «Yodimdadir ajib onlar» («Я помню чудное мгновение»)ni aytib o'tish mumkin.

«Ruslan va Ludmila» operasi Pushkinning shu nomli poemasi mavzusiga asoslangan. Shoir vafotidan sal ilgari ikkovi bo'lg'usi opera haqida, poema sujetini yangicha talqin etish imkoniyati xususida suhbat olib borgan edilar. Afsuski, shoirning bevaqt o'limi tufayli bu ijodiy hamkorlik amalga oshmay qoldi.

1842-yil 27-noyabrda «Ruslan va Ludmila» operasining premyerasi bo'lib o'tdi. Unda imperator va saroy ahli spektakl tugamasidanoq zalni namoyishkorona tark etishdi, lekin musiqashunos tanqidchilar operaga yuqori baho berdilar.

Shu bois Glinka zodagonlar bilan aloqani butkul uzib, 1844-yili yana xorijga – Fransiya va Ispaniya tomon yo'l oladi.

Parijda M. Glinka asarlari konserti katta muvaffaqiyat bilan o'tadi. Kompozitor Ispaniyada ikki yil yashaydi. Bu yerda u xalq raqslari yozuvlaridan foydalanib, uverturalar yozishga kirishadi. U ispan tilida bermalol so'zlasha olardi. Bu unga ispan ohanglarining mazmun-mohiyatini tushunishda qo'l keldi. Natijada M. Glinka

xalq qo‘shiqchi va gitarachilaridan kuylar yozib oladi, ispan ritmlari va xalq musiqa cholg‘ularini o‘rganadi. Shu tariqa 1845-yilda «Aragon ovi» uverturasi dunyo yuzini ko‘rdi. 1848-yilda Rossiyaga qaytib kelganidan so‘ng esa «Madrid tuni» univerturasini tugallaydi. Shu yildayoq «Kamarincha» simfonik fantaziyasini ham yoza boshlaydi.

M.I. Glinka umrining so‘nggi yillarini Peterburg, Varshava, Parij va Berlinda o‘tkazadi. Kompozitorning Rossiyadagi xonadonida shoirlar, qo‘shiqchilar, yozuvchilar, kompozitorlar, aktyorlar, yosh musiqachilar tez-tez to‘planib turishardi, ular orasida M.A. Belakuryev, musiqashunos tanqidchilar — A.N. Serov va V.V.Stasovlar ham bor edi.

M.I. Glinka 1857-yilda Berlinda vafot etdi. Keyinroq uning xoki Peterburgga olib kelinib, Aleksandrovo-Nevskiy qabristoniga dafn etildi va uning qabri ustiga haykal qo‘yildi. O‘sha yili tanqidchi Stasov Glinkaning ijodiy yo‘li haqida ocherk yozdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Glinka qachon va qayerda tug‘ilgan?*
2. *U qayerlarda tahsil olgan va uning ustozlari kim bo‘lgan?*
3. *Glinkaning rus musiqasi tarixidagi o‘rni?*
4. *U qanday operalar yaratgan?*
5. *Glinka qaysi shoirlar va kompozitorlar bilan ijod qilgan?*
6. *U qaysi shaharlarda o‘z ijodini namoyish etgan?*

M.P.MUSORGSKIY (1839–1881)

Modest Petrovich Musorgskiy 1839-yilning 9 (21)-martida Pskov guberniyasining Karevo qishlog'ida, pomeshchik oilasida dunyoga keldi. Ilk yoshidan rus qo'shiqlari, rivoyatlari, xalq ertaklari hamda rus dehqonlarining turmush tarzi va rus tabiati muhitida, dehqonlarning bolalari bilan qadrdon do'st bo'lib, o'sib ulg'aydi. Qishloq hayoti bolada chuqur taassurot qoldiradi va ushbu taassurot keyinchalik kompozitorning ijodida o'z aksini topadi.



Iqtidorli bolaning musiqiy mashg'ulotlari erta boshlandi. Onasi birinchi ustози sifatida unga fortepyano chalish sirlarini o'rgatdi. U o'sha paytdanoq M.P. Musorgskiy fortepyanoda mashqlar qilardi. 1849-yilda M.P. Musorgskiyning oilasi Peterburgga ko'chib o'tgandan so'ng bo'lajak kompozitorning mashg'ulotlari pianinochi A. Gerke boshchiligida davom etdi, u M.P. Musorgskiyning musiqa yaratishda birinchi namunalarini rag'batlantirdi. Bilimlarga boy bo'lgan va tarbiyalangan M.P. Musorgskiy 13 yoshida fransuz va nemis tillarida erkin gaplashar hamda lotin tilini ham bilardi.

1852-yilda M.P. Musorgskiy gvardiyachi zobitlar maktabiga o'qishga kirdi. 1856-yilda bu maktabni tugatib, ikki yil davomida Preobrajensk polkida leyb-gvardiya zobiti sifatida xizmat qildi. O'qish yillarida u bilimga chanqoqligi bilan ajralib turardi. Ayniqsa falsafa va tarix fanlarini o'rganishga uning ishtiyoqi baland edi. A. Gerkening qo'l ostida shug'ullanib turib, u xayriya konsertlarida ham ishtirok etardi, ko'p vaqtini musiqa tinglashga ajratar edi. Bo'lajak kompozitor rus klassik musiqasining nodir namunalari bilan hali tanish bo'lmasa-da, lekin Motsartning «Don Juan» operasini haqiqiy opera deb tan olardi. Italyan opera truppasi tomonidan ijro etiladigan musiqalardan esa ko'ngli to'lmas edi.

M.P. Musorgskiy otasining barvaqt vafot etishi oilani iqtisodiy tanqislikka olib keldi. Lekin zodagonlar polkida xizmat qilishi tufayli uning jamiyatdagi obro'-e'tibori yo'qolmadi. U tabiatan kelishgan, xushbichim kishi edi. U yoqimli bariton ovozga ega bo'lib, o'sha davrda bo'lgan romanslarni va ariyalarni maroq bilan kuylar va

fortepyanoni mohirona chalardi. Tarovatli ovozi, mohirona soz chalishi xushbichim jussasi, uning kelajagi porloq bo'lishiga ham imkon berdi.

1856-yilda M.P. Musorgskiyning hayotida keskin burilish sodir bo'ldi. U A.S. Dargomijskiy bilan tanishadi va uning uyida birinchi marotaba M.I. Glinkaning go'zal musiqasini eshitib, lol qoldi.

1857-yilda M.P. Musorgskiyning S. Kyui va M.A. Belakuryev bilan uchrashuvi uning o'z hayotini musiqaga bag'ishlashga qaror qilishiga sabab bo'ladi. Uning yangi ijodiy hayotida asosiy o'rinni Belakuryev egallaydi. Belakuryev undan atigi 3 yosh katta bo'lishiga qaramasdan, favqulodda xotiraga ega, serharakat va g'ayratli, har tomonlama o'qimishli inson bo'lib, mohir pianinochi va dirijor sifatida ham mashhur edi. M.P. Musorgskiy M.A. Belakuryev bilan hamkorlikda musiqiy asarlar yarata boshladi. Ular rus va chet el klassiklarining fortepyano uchun qayta ishlangan simfonik va kamer asarlarining qariyb barchasini hamjihatlikda, to'rt qo'l bo'lib chalardilar. M.P. Musorgskiy M. Glinka va A.S. Dargomijskiyning asarlarini yaqindan o'rganib chiqadi.

Harbiy xizmatdan bo'shagandan so'ng uning hayotida yangi davr boshlanadi, butun hayotini musiqa ijodiga bag'ishlaydi.

M.P. Musorgskiy yoshlik chog'laridan o'z qiziqishlarining serqirraligi va qarashlarining xalqparvarligi bilan hammani lol qoldirardi. 1861-yildagi krepostnoylik islohotidan so'ng kompozitor tug'ilib o'sgan vataniga kelib, krepostnoy dehqonlarga huquqlarning berilishi aslida uning hayotiga deyarli ijobiy o'zgarish kiritmaganligini ko'rdi. Krepostnoy dehqonlarni to'lovlardan ozod qilish maqsadida, merosining o'ziga tegishli bo'lgan qismini akasiga in'om qilib, mehnati evaziga yashovchi xizmatchiga, kamtarin musiqachiga aylanadi.

1868–1874-yillar M.P. Musorgskiy ijodiy faoliyatining ikkinchi davri hisoblanadi. U N.V. Gogolning «Uylanish» komediyasi matni asosida operaning birgina pardasini yozish bilan kifoyalandi. Mazkur yilda yoza boshlagan «Boris Godunov» operasi kompozitorning yorqin iste'dod egasi ekanligini namoyon etdi. Opera ikkinchi tahrirdan keyingina sahnada namoyish etildi.

Bu opera ulkan muvaffaqiyat qozonadi. Ammo asarni yaratish jarayonida boshdan kechirgan his-hayajon kechinmalari kompozitorning sog'lig'iga jiddiy putur yetkazib bo'lgan edi. Do'stlarining g'amxo'rliqi, ayniqsa, N.A. Rimskiy-Korsakov bilan yaqin do'stligi, Stasov bilan doimiy muloqotda bo'lishi unga madad bo'lib turadi. Bu yillar kompozitor hayotidagi eng yorqin va yorug' damlar bo'lib, ayni paytda umrining eng qayg'uli davrining boshlanishi ham edi.

«Qudratli to‘da»ning tarqalib ketishini M.P. Musorgskiy sof ideallarga nisbatan xoinlik deb bildi. Shu yillarda uning sevimli ayoli va do‘stlari — rassom V. Gartman va rus qo‘shiqchisi O.A. Petrovlar vafot etadilar. Sodir bo‘lgan bu fojialardan ruhan ezilgan buyuk ijodkorning yolg‘izligi yanada kuchayadi.

Umrining oxirgi yillarida kompozitor o‘zining barcha yorug‘ xotiralarini Gogolning sujeti asosida yaratilgan «Sorochinsktdagi yarmarka» komik operasida izhor etdi. Oxirgi yillarda M.P. Musorgskiy jo‘rnavor sifatida tez-tez chiqishlar qilib, Peterburgda eng mohir sozanda sifatida tan olindi.

Bu paytlarda uning hayotida sodir bo‘lgan barcha yorqin voqealar va taassurotlar 1879-yilda Marinka teatri qo‘shiqchisi D.M. Leonova hamkorligida Rossiyaning janubiy shaharlariga qilgan konsert safarlari bilan bog‘liq edi. Kompozitorning aytishicha, bu safar yangilanish va tiklanish safari bo‘ldi.

Peterburgda M.P. Musorgskiy boshpanasizlikka, yolg‘izlikka duch keladi. 1881-yil fevral oyining boshlarida uning sog‘lig‘i keskin yomonlashadi va u bir oy davomida kasalxonada xasta holda yotadi. Uning do‘stlari N.A. Rimskiy-Korsakov turmush o‘rtog‘i va uning singlisi Aleksandra Nikolayevna, A.P. Borodin, S. Kyui, V. Stasov, I.E. Repinlar xabar olib turishadi. Stasov kompozitorning portretini chizish fikrini rassom N.E. Repinga taklif qiladi. Buyuk rassom to‘rt seans davomida, betob san‘atkorning to‘shagi yonida o‘tirib, uning jismoniy xastaligiga qaramay, ijodiy kuchga to‘la qudratli va buyuk shaxsning siymosini yaratadi. Shunday qilib, Moskvadagi Tretyakov galereyasining noyob asarlaridan biri bo‘lgan o‘sha ajoyib, ta‘sirchan, ifodali, chuqur iste‘dodli betakror portret yaratildi, — deb yozadi V.V. Stasov. Og‘ir xastalikdan so‘ng 1881-yil 16-martda buyuk san‘atkor Modest Petrovich Musorgskiy vafot etadi. «Xovanshina» operasini N.A. Rimskiy-Korsakov yakuniga yetkazadi, «Sorochinsktdagi yarmarka»ni esa S. Kyui yakunlab, muharrirlik qiladi, keyinchalik uni kompozitor V. Shebalin orkestrga moslaydi.

Mavzuni mustabkamlash uchun savollar

1. *M.R. Musorgskiy qachon va qayerda tug‘ilgan?*
2. *Uning bolalik yillari qanday o‘tgan?*
3. *U qanday to‘daning a‘zosi bo‘lgan va boshqa a‘zolar kimlar edi?*
4. *U qanday taniqli opera yaratgan?*

A.S. DARGOMIJSKIY (1813– 1869)

Aleksandr Sergeyeovich Dargomijskiy – M.I. Glinka ijodining muhim tamoyili va kompozitor g'oyalarining ilk davomchisidir. Uning dunyoqarashi va estetik tamoyillarining shakllanishi XIX asrning 30–40-yillariga to'g'ri keladi. Bu davr rus madaniyatining adabiyot, tasviriy san'at va musiqa sohaslarida eng yuqori cho'qqilarga intilayotgan, tez rivojlanayotgan va kompozitorlar yangi yo'nalishlarda qizg'in ijod qilayotgan davr edi. Shu davr san'ati namoyandalarining ijodini «xo'rlanganlar va haqoratlanganlar»ga nisbatan hamdardlik va zolimlarga nisbatan nafrat mavzulari birlashtirgan.



Ushbu oqim san'atda «tanqidiy realizm» nomini olgan. Musiqa sohasida A.S. Dargomijskiy tanqidiy realizmning ilk vakili hisoblanadi. Ijtimoiy, g'oyaviy, badiiy sohalarda yuz berayotgan katta o'zgarishlar uning ijodida ham o'z aksini topdi. Kompozitorning ijodiy faoliyati o'sha davrga xos bo'lgan ilg'or g'oyalar bilan chambarchas bog'liq ekanligi birinchi asarlaridan ko'rinib turadi.

A.S. Dargomijskiy o'z ijodida yoritgan mavzulari bilan A.S. Pushkin, N.V. Gogol, M.Y. Lermontov kabi zamonasining ilg'or adiblariga yaqindir.

A.S. Dargomijskiyga M.I. Glinkaning ijodi beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Glinkaning ijodiy faoliyati tamoyillarini o'ziga singdirib olgan A.S. Dargomijskiy ularni o'ziga xos uslubda qo'llaydi. M.I. Glinka xalqni yaxlit, bir tan deb ko'rsatadi va o'z qahramonlari orqali umummilliy xarakterning alohida belgilarini ifoda etadi. Dargomijskiy esa o'z zamonasi hayotini barcha qarama-qarshiliklari bilan birga haqqoniy tasvirlaydi. U asarlarida (knyaz, dehqon, askar, amaldor) kabi turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarni ko'rsatadi va ularning fe'l-atvorlarini yorqin bo'yoqlarda ochib beradi.

A.S. Dargomijskiy dunyoqarashining shakllanishida va ajoyib

asarlarning dunyoga kelishida A.S. Pushkin ijodi ham alohida o'rin tutgan. Kompozitorning butun ijodiy faoliyati ulug' rus shoiri ijodi bilan uzviy bog'liqdir.

Zamonasining ilg'or san'at vakillari bo'lgan M.A. Belakuryev to'garagining a'zolari A.S. Dargomijskiyni «Musika haqiqati o'qituvchisi» deb ataganlar. Kompozitorning ijodiy tamoyillari rus musika san'atining keyingi rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

A.S. Dargomijskiy 1813-yil 2 (14)-fevralda Tula guberniyasining Troisk qishlog'ida tug'ildi. 1817-yil oxirida uning oilasi Peterburgga ko'chib o'tadi. Kompozitorning keyingi hayoti va ijodiy faoliyati ushbu shahar bilan bevosita bog'liq bo'ldi. U savodini asosan oilasida chiqardi. Kompozitorning ota-onasi o'z farzandlarida hayotga nisbatan mulohazali munosabatni, ziyaklik, maqsad sari intilish va tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqealarga, hodisalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish kabi xususiyatlarni tarbiyalab, ularda san'atga, adabiyotga muhabbat tuyg'ularini uyg'otishga intiladilar.

A.S. Dargomijskiy olti yoshidan musika asoslarini o'rgana boshlaydi. Fortepiano ijrochiligi bo'yicha ilk saboqni unga birinchi ustoz — mashhur pianinochi A.T. Danilevskiy beradi. Keyinchalik A.S. Dargomijskiy krepostnoy skripkachi P.G. Voronsovdan skripkada chalishni va qo'shiq kuylashni o'rganadi. 10 yoshidanoq A.S. Dargomijskiy rondo, romans va variatsiyalar yaratadi. Uning bolalikda yaratgan «Melanxolik vals» va «Kazachok» nomli asarlari alohida e'tiborga molikdir.

Shuningdek, atoqli venalik mashhur pianinochi F. Shoberlexner olib borgan mashg'ulotlar ham fortepyano ijrochiligi sirlarini egallashida A.S. Dargomijskiy uchun oliy maktab vazifasini o'taydi. Uch yil davom etgan mashg'ulotlar jarayonida F. Shoberlexner shogirdi pianino ijrochiligi sirlarini egallash bilan birga, musiqiy tasavvuri va didi ham sezilarli darajada rivojlandi. 1831-yilga kelib, A.S. Dargomijskiy pianino ijrochiligi san'atida a'lo natijalarga erishadi.

Mumtoz an'analarni o'rganishda A.S. Dargomijskiy bilan uning yana bir ustoz — qo'shiqchi B. Seybix shug'ullandi.

Shunday qilib, A.S. Dargomijskiy 1830-yillarning boshiga kelib, umumiy ta'limni to'liq o'zlashtirib oldi. U mahoratli pianinochi, skripkachi va ashulachi ham edi. Keyinchalik barcha taniqli qo'shiqchilar undan ta'lim oladilar va doimo uning maslahatlaridan foydalanadilar.

Bu vaqtga kelib A.S. Dargomijskiy ko'plab skripka, fortepyano uchun asarlar, romans va kvartetlar yaratdi, ularning ba'zi romanslari va fortepyano uchun pyesalari nashr etildi.

XIX asrning 30–40-yillari A.S. Dargomijskiyning ijodiy faoliyatida birinchi bosqich hisoblanadi. 1839-yilda u farang yozuvchisi V. Gyugoning «Parij avliyo ona ibodatxonasi» romani sujeti asosida «Esmeralda» operasini yaratdi. Opera faqat 8 yildan so'ng katta qiyinchiliklar bilan sahnalashtiriladi. Imperator teatri rahbarlari vatan san'atiga shunday bee'tibor edilar.

«Esmeralda» operasidan so'ng A.S. Dargomijskiy ko'plab romanslar, qo'shiqlar, ariya va duetlar, trio va kvartetlarini, keyinchalik opera-baletga aylantirilgan asarlar yaratgan.

A.S. Pushkinning so'zlariga bastalagan «Men sizni sevardim», «Tungi zefir», «O'n olti yosh» va boshqa romanslar guruhini yaratish jarayonida u yuksak badiiy mahoratga erishadi. 1830-yillarning oxirida, u «Bolero» nomli birinchi simfonik pyesasini yaratadi.

A.S. Dargomijskiy 1844-yilda xorij safariga chiqadi. U Leypsig, Vena, Bryussel, Parij kabi shaharlarda bo'ladi. Uning chet elga borishdan asosiy maqsadi dunyo madaniyati va musiqasining markazi bo'lgan Parijni ko'rish edi. Xorijda u ko'plab musiqachilarni va kompozitorlar bilan yaqindan tanishadi, opera, teatr va konsertlarga boradi. Xorijiy musiqa madaniyati haqida bildirgan fikr-mulohazalari uning tiniq tanqidiy aql sohibi ekanligidan, qarashlarining yetukligidan va mustaqilligidan dalolat beradi.

Kompozitor 1865-yilda Peterburgga qaytib, yangi «Suv parisi» operasini sahnalashtiradi. 1860-yillarda yangi voyaga yetgan, demokratik kayfiyatdagi yoshlar operani katta qiziqish bilan qabul qildi. Shu tariqa vatanida ham to'liq e'tirofga sazovor bo'ldi.

Bu yillarda A.S. Dargomijskiy M.A. Belakuryev to'garagining a'zolari bilan yaqin munosabatlar o'rnatdi. M.A. Belakuryev, S. Kyui, A.P. Borodin, N.A. Rimskiy-Korsakov, musiqiy tanqidchi V.V. Stasovlar kompozitor uyining doimiy mehmoni edilar. Ular Rimskiy-Korsakovning asarlarini birgalashib to'rt qo'lda chaladilar, A.S. Dargomijskiyning yangi «Tosh mehmon» operasini ham shunday ijro etishgandi. Kompozitorning bu so'nggi asari tugallanmay qolgan. A.S. Dargomijskiy 1869-yil 5-yanvarda og'ir yurak xastaligi sababli olamdan o'tadi va M.I. Glinka bilan yonma-yon dafn etiladi.

A.S. Dargomijskiyning kelajak avlodga qoldirgan ijodiy merosi katta bo'lmasa-da, u musiqa olamiga yangi mavzular, obrazlar, badiiy tamoyillar olib kirganligi bilan e'tiborga loyiq. Shu omillar sabab, rus musiqa madaniyatining keyingi rivojida uning ijodi katta ahamiyatga ega.

A.S. Dargomijskiy katta g'oyaviy ahamiyatga ega bo'lgan san'atga intilardi. «Musiqah ohangi to'g'ridan to'g'ri so'zni ifodalab berishini istayman. Haqiqatni istayman», – deb yozgan edi kompozitor. U musiqada haqiqat, avvalo, so'z va nutq ohangini aniq va ishonarli tarzda yetkazib berishdan iborat, deb tushunar edi. A.S. Dargomijskiyning ijodiy yetuklik davrida musiqiy tilning barcha unsurlari ushbu talabga bo'ysundirilgan edi. Kompozitor musiqa navolarida inson qalbi kechinmalarini turli ko'rinishlarda ifodalaydi. U qalb tuyg'usini umumiy shaklda tasvirlamasdan, tuyg'ularning paydo bo'lishini va rivojlanishini uzluksiz jarayon sifatida ko'rsatib beradi. A.S. Dargomijskiy o'z qahramonlari misolida serqirra obrazlarni yaratdi. Kompozitor rechitativga, so'zga «intonatsiya berish» uslubiga qarab, inson xarakterini va uning qaysi ijtimoiy doiraga mansubligini aniqlardi. Uning musiqiy portretlari yorqin va ishonarli bo'lib, qahramonlarining ruhiy holatini juda noziklik bilan va mahorat bilan ochib beradi.

Obrazlar xarakterlarini tasvirlashga nisbatan yangicha yondashuv musiqiy ifodalilikning yangi vositalaridan foydalanishga olib keldi. Uning vositalaridan biri – bu yangi nutq ohanglari bilan boyitilgan kuylanuvchan, shaxsiylashtirilgan rechitativdir. A.S. Dargomijskiyning asarlarida xalq musiqasiga, ko'proq shahar qo'shig'iga va maishiy mavzudagi romanslarga yaqinlik sezilib turadi, shuningdek, asl xalq kuylari ham uchraydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Bastakor qachon va qayerda tug'ilgan, uning yoshligi qanday o'tgan?
2. Uning ustozlari kimlar bo'lgan?
3. U qanday janrda ijod qilgan?
4. Uning asarlari nomini aytib bering?
5. Uning ijodida «Qudratli to'da»ning ta'siri qanday bo'lgan?
6. U qaysi shoirlar bilan hamkorlik qilgan?

N.A. RIMSKIY-KORSAKOV (1844–1908)

Nikolay Andreyevich Rimskiy-Korsakov – yirik kompozitor, pedagog, dirijor, musiqiy jamoat arbobidir. Kompozitorning ilg'or dunyoqarashi, rus milliy madaniyati va san'ati bilan uzviy bog'liqlik, chuqur, yetik ma'nodorlik, haqqoniylik, cholg'uchilik sohasidagi mahorat – bularning barchasi rus mumtoz musiqasi vakilining ijodiy qiyofasiga xos chizgilardir.



Vazmin inson, tahliliy tafakkur egasi bo'lgan Rimskiy-Korsakov tabiat va insoniyat olamini juda chuqur his qilardi. Yuksak iste'dod, dunyoni shoirona idrok etish hamda maqsad sari intiluvchanlik kabi insoniy fazilatlarini uning jahon musiqasining san'atining yirik ustasi etib tanitdi.

Nikolay Andreyevich Rimskiy-Korsakov 1844-yilning 6 (18)-martida Tixvin shaharchasida dvoryan oilasida tug'ilgan. Kompozitor bolaligidan yaxshi tarbiya ko'rdi, chet tillari va musiqadan ta'lim oldi. U yoshligidan musiqaga qiziqdi. To'rt yoshga to'lganida uncha murakkab bo'lmagan pyesalarni chala olardi, to'qqiz yoshidan esa mustaqil ijod qila boshlaydi. Yoshligidanoq undagi ijodiy xayolot olamiga ishtiyoq fortepyano ijrochiligida namoyon bo'ldi, u musiqasini chalayotganida asalarilarning g'uvillashini, yulduzlarning charaqlashini ifodalaydigan ohanglarni topishga harakat qilardi.

1859–1860-yillarda N.A. Rimskiy-Korsakov pianinochi F.A. Kanille rahbarligida musiqasini o'qishni boshladi. F.A. Kanille o'quvchisiga nafaqat musiqadan dars berardi, balki uning nozik musiqiy didini rivojlantirishga ham harakat qilardi. Ustoz musiqachi shogirdining noyob iste'dodini tez ilg'aydi. Ular birgalikda mumtoz musiqiy asarlarni sinchiklab tahlil qilishar, turli obrazlarni, har xil tabiat hodisalarini ifoda etishda orkestrning qanchalik imkoniyatga ega ekanligini o'rganib chiqishardi. O'spirinning iste'dodini ko'rgan Kanille unga musiqiy ijod bilan shug'ullanishni tavsiya etadi.

N.A. Rimskiy-Korsakov o'zining ilk asarlari – variatsiyalar va noktyurnlarni yaratadi. Ayni shu yillarda unda musiqiy ehtirolarga

to'la muhabbat uyg'ondi. Kanille N.A. Rimskiy-Korsakovni M.A. Belakuryev bilan tanishtiradi. Belakuryev unga garmoniya, ovoz yo'nalishi, cholg'uchilik asoslarini o'rgatdi va birinchi simfoniyasini yaratishda rahbarlik qiladi. Shuningdek, N.A. Rimskiy-Korsakov 1861-yilda V.V. Stasov, M.P. Musorgskiy, S. Kyui bilan tanishib, M.A. Belakuryevning «Qudratli to'da» to'garagiga a'zo bo'ldi.

Ajoyib pedagog va okeanograf, otasining vafotidan keyin N.A. Rimskiy-Korsakovga yaqin maslahatchi bo'lib qolgan akasi Voin Aleksandrovich uning musiqaga berilib ketganligini yoqtirmaganligi uchun Kanille rahbarligida musiqqa bilan shug'ullanishini man etdi. Rimskiy-Korsakov korpusda o'qishni bitirgach, «Almaz» nomli kliporda dunyo bo'ylab sayohatga jo'nadi (1862–1865). Sayohat tufayli o'n sakkiz yashar N.A. Rimskiy-Korsakov Angliya, Norvegiya, Polsha, Fransiya, Italiya, Ispaniya, AQSH, Braziliya kabi bir qator mamlakatlarda bo'ldi va turli xil xalqlarning hayotini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu davr mobaynida u ko'p kitoblarni o'qidi, L. Betxovenning kvartet va simfoniyalarini, M.I. Glinkaning uvertura va romanslarini berilib o'rgandi, ulardan ko'p taassurot oldi. Dengizdan olgan taassurotlari, keyinchalik, uning butun ijodida o'z aksini topdi. Kompozitorning orkestr uchun yozgan asarlari va operalarida tasvirlangan dengiz manzaralari butun jahon musiqqa san'atida noyobligi bilan ajralib turadi.

Kema safari chog'ida, oila a'zolariga yozgan xatlarida musiqaning inson hayotida tutgan o'rni haqida teran fikrlar uchraydi: «...Inson faqat puldor bo'lish, tinchgina yeb-ichish uchun yashaydimi? Agar she'riyat, ilm-fan yoki san'at uning hayotiga ruh bag'ishlamasa, u inson bo'la oladimi? Odamzotga musiqachi ham amaldor va zobit kabi bir xil foyda keltirmaydimi? Zobit va amaldor xalqning tinch hayot kechirishiga yordamlashsa, musiqachi uning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatadi, ma'naviyati past odam esa insondan ko'ra ko'proq hayvonga yaqindir. Shunday ekan, musiqaning ma'naviy foydasini inkor etib bo'ladimi?»

Dengiz sayohatidan qaytganidan so'ng, N.A. Rimskiy-Korsakov yosh kimyogar, professor, kompozitor A.P. Borodin bilan do'stlashdi. N.A. Rimskiy-Korsakov A.P. Borodin, A.S. Dargomijskiy va M.I. Glinkaning opasi Ludmila Shestakovalar bilan tanishib, birinchi simfoniyasini muhokama qildi. Xuddi shu vaqtlarda P.I. Chaykovskiy bilan ham tanishdi.

N.A. Rimskiy-Korsakov haddan ziyod band bo'lishiga qaramay, 80-yillarda «Ispan kaprichchiosi» va «Shahrizoda» nomli ikkita noyob simfonik durdonani hamda «Mlada» opera-baletini yaratdi. U 1889-yilda Parij butunjahon ko'rgazmasida ikkita orkestrga dirijorlik qildi, keyinchalik Bryusselda konsertlar berdi. U yerda yorqin «Ispan kaprichchiosi»ning ijrosi unga shuhrat keltirdi.

N.A. Rimskiy-Korsakov yaratgan oxirgi asar Pushkinning sujetiga yozilgan «Oltin xo'rozcha» satirik ertak-operasi bo'ldi. Senzura kompozitorning bu asarini sahnalashtirishga ruxsat bermaydi. 1908-yil 8 (21)-iyunda kompozitor yurak xuruji tufayli o'zining oxirgi asarini sahnada ko'ra olmay, vafot etadi.

N.A. Rimskiy-Korsakovning ijodida o'ziga xoslik sezilsa ham, u mumtoz an'analarga suyanadi. U o'zidan juda katta ijodiy meros qoldirgan bo'lib, ular 15 ta opera, 3 ta simfoniya, orkestr uchun 7 ta syuita va bir qator asarlar, 79 ta romans, 3 ta kantata, torli cholg'ular uchun kvartet va septet, fortepyano uchun konsert hamda rus mavzulariga skripka uchun yozilgan fantaziyadan va bir nechta diniy mavzudagi musiqiy asarlardan iborat.

N.A. Rimskiy-Korsakovning musiqasida janrlarning o'zaro ta'siri seziladi, operalarida simfoniya xos xususiyatlar, simfoniya esa yorqin teatrlilik unsurlari singib ketgan. N.A. Rimskiy-Korsakov ijodida go'zallik mavzusi yetakchilik qiladi. Uning asarlarida muhabbat, adolat, xalq donoligiga bo'lgan ishonchga qarshi salbiy holatlar – zolimlik, nodonlik, munofiqlik kabi illatlar ifodalangan.

N.A. Rimskiy-Korsakov orkestrning rang-barang jilosidan foydalanib, tabiat manzarasini san'atkorona, uni xuddi tirik mavjudot kabi tasvirlaydi. Atrof-olamni shoirona idrok etish Rimskiy-Korsakovga yechimi zarur bo'lgan muammolarning hal qilish yo'llarini topishga yordam beradi. U o'rmondagi har bir tovushni, qushlarning sayrashini, to'lqinlarning qirg'oqqa urilishini eshitadi, tabiatdagi bor ranglarning farqini, hatto ulardagi o'zgarishni ham payqay oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Bastakor qachon va qayerda tug'ilgan?*
2. *Uning bolalik chog'lari qanday o'tgan?*
3. *U qanday janrda ijod qilgan?*
4. *U «Shahrizoda» asarini qachon ijod qilgan?*
5. *Uning ijodida «Qudratli to'da»ning ta'siri qanday bo'lgan?*

A.P. BORODIN
(1833–1887)

Aleksandr Porfiryevich Borodin — mashhur kompozitor, taniqli kimyogar-olim, dirijor, jamoat arbobi va musiqiy tanqidchi sifatida rus musiqasi tarixida chuqur iz qoldirgan serqirra iqtidorli shaxs.

U «Knyaz Igor» nomli operasi, qator simfoniylari, kamer-cholg'u va fortepyano uchun asarlari, o'z so'zlariga yozgan romans va qo'shiqlari, musiqa, adabiyot va tanqid, pedagogika va ma'rifat sohasining yirik namoyandalari va musiqachilari haqida yozgan maqolalari, shuningdek, 42 ta ilmiy ish muallifi sifatida bizga ma'lum. Bunday serqirra iste'dod sohibi bo'lish 1960-yillarda rus madaniyatining aksariyat buyuk namoyandalariga xos edi.



Yuqorida keltirilganlar A.P. Borodin yaratgan asarlar va ilmiy ishlarning to'liq ro'yxati emas, albatta. U o'zida bir-biriga zid bo'lgan iste'dodni — olimlikning qudratli ongi, kompozitorlik daholigi va adabiy mukammallik, fikrlashda aniqlik va keng ko'lamlilikni mujassam etgan. Buyuk kompozitor go'zal tashqi qiyofali, teran ichki dunyo sohibi, hayotga tashna va g'ayratga to'la, mehribon, zehni o'tkir, ziyrak inson edi.

Aleksandr Porfiryevich Borodin 1833-yil 31-oktabrda (12-noyabr) Peterburg shahrida tug'ilgan. Musiqiy qobiliyat, maqsadga intiluvchanlik kabi xislatlar unda bolalik davridanoq namoyon bo'la boshladi. U murabbiylari boshchiligida fortepyano va fleytada musiqa chalishni o'rgandi, mustaqil ravishda violonchelni ham o'zlashtirdi. Kompozitorlik iste'dodi juda erta paydo bo'ldi. Yosh kompozitor fortepyano uchun polka, fleyta uchun konsert hamda ikkita skripka va violonchel uchun triolar yaratdi. U o'rtog'i bilan to'rt qo'lda Betxoven, Gayden va Mendel — sonlarning simfoniylarini zo'r ishtiyok bilan ijro etar edi.

A.P. Borodin bolaligidan ikki sohaga — musiqa va kimyo faniga qiziqdi. Ijodiy yetuklik davrida kimyogar-olimlar uning musiqa

bilan chalg'iyotganidan shikoyat qilishsa, musiqachilar ilm-fan unga musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga xalal berayotganidan kuyunishardi.

1850-yilda A.P. Borodin Peterburg Tibbiy-jarrohlik akademiyasiga o'qishga kirdi. Bu yerda uning kimyo faniga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. U ustoz, do'sti va rahbari professor N. Zininning sevimli o'quvchisi edi. Zinin laboratoriyasida Borodin M. Butlerov bilan tanishdi, keyinchalik ularning do'stligi uzoq yillar davom etadi. Tez orada Borodin yirik olim sifatida tanildi.

Ayni paytda A.P. Borodin musiqani ham unutmaydi, ansamblda ishtirok etadi, romanslar va kamer ansambllar yaratadi, havaskor kvartetlarda ijrochilik bilan shug'ullanadi. M.I. Glinkaning «Ivan Susanin» operasini esa yoddan bilar edi. Akademiyada o'qib yurgan vaqtlarida garmoniya va polifoniyani ham o'rgandi.

1855-yil dekabrda unga yuqori malakali tabib imtiyozli diplomi berildi va keyingi yildayoq quruqlikdagi ikkinchi harbiy gospitalga ordinator etib tayinlandi. Shu tariqa kompozitor uchun uchinchi soha – tibbiyot tomon yo'l ochiladi. U gospitalda Modest Petrovich Musorgskiy bilan tanishadi va keyinchalik ular bir umr do'st bo'lib qoladilar.

A.P. Borodin doktorlik dissertatsiyasi uchun tanlagan mavzu tibbiyotdan ko'ra ko'proq kimyoga yaqin edi. U 1858-yilda dissertatsiyasini a'lo darajada yoqlab, tibbiyot fanlari doktori unvonini oladi va shu kundan boshlab tibbiyot bilan shug'ullanishni to'xtatib, kimyo kafedrasida assistent vazifasida ishlay boshlaydi. Istiqbolli yosh olim sifatida Borodinni xorijga uch yillik ilmiy safarga jo'natishadi. 1859-yilda u Yevropa ilmiy markazlaridan biri – Germaniyadagi qadimiy universitet shahri Geydelbergga keladi. U yerda boshqa yosh rus olimlari – bo'lajak mashhur fiziolog I.M. Sechenov, shifokor S.P. Botkin, kimyogar D.I. Mendeleev bilan uchrashadi. Ularni mustahkam do'stlik, musiqaga va ilm-fanga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat tuyg'ulari birlashtiradi. Borodin chet elda ilmiy tadqiqotlar olib boradi, Parij kimyo jamiyatida ma'ruzalar o'qiydi, ilmiy safari davomida nemis, fransuz va italyan tillarida talaygina ilmiy asarlarni nashr ettiradi.

A.P. Borodin Geydelbergda bo'lajak umr yo'ldoshi, iste'dodli rus pianinochisi Yekaterina Sergeevna Protopopova bilan tanishadi. L. Betxoven, F. Shuman va F. Listlarning fortepyano asarlarini juda mukammal bilgan E.S. Protopopova A.P. Borodinni yangi

musiqa dunyosiga olib kiradi va tez orada u F. Shuman va F. Shopen musiqasining ashaddiy muxlisiga aylanadi.

A.P. Borodin 1862-yilda Rossiyaga qaytib kelgach, tibbiy jarrohlik akademiyasi kimyo kafedrasiga professor etib saylanadi va yangi kimyo tadqiqotlari bilan shug'ullana boshlaydi. Ayni shu vaqtlarda u M.A. Belakuryev bilan tanishib, «Qudratli to'da» to'garagiga a'zo bo'ladi.

M.A. Belakuryev bilan tanishuv A.P. Borodin hayotida tub burilish yasadi. M.A. Belakuryev, V.V. Stasov va «Qudratli to'da» to'garagining boshqa a'zolari ta'siri ostida kompozitor ijodiy yetukligining birinchi davri boshlanadi.

Mahoratli musiqachilar bilan yaqin muloqotda bo'lish, ijodkorlik muhiti, yangi yorqin taassurotlar, rus san'atiga xizmat qilishdek yuksak g'oyalari A.P. Borodinni nihoyatda ilhomlantirardi.

A.P. Borodinning turmush o'rtog'i Yekaterina Sergeyevna Protopopova sog'lig'i yomonlashgani tufayli ular Italiyaga ketishga qaror qiladilar. Italiyada Borodinni juda yaxshi qabul qilib, unga samarali ishlash uchun sharoit yaratib berishadi. U italyan tilini tez o'rganadi, fizika bilan shug'ullanadi va shu bilan birga, musiqiy asarlar ham yozadi. Italiyada u to'la baxtli hayot kechiradi, qiziqarli insonlar bilan muloqotlar unga ijodiy zavq bag'ishlaydi.

A.P. Borodin ikkita skripka, ikkita alt va violonchel uchun kvintet va fortepyano uchun to'rt qo'lda chalinadigan tarantella yozdi. Fortepyano uchun yozgan kvintet uning eng sara asarlari orasida o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi.

A.P. Borodin 60-yillarda o'zining birinchi simfoniyasini, «Bahodirlar» fars-operasini, «Uyqudagi knyaz qizi», «Dengiz malikasi», «Qorong'u o'rmon qo'shig'i» romanslarini, «Dengiz» nomli dramatik balladasini, «Mening qo'shiqlarim og'uga to'la», «Qalbaki nota» kabi lirik romanslarni yozdi. 1869-yilda Belakuryev rahbarligida ijro etilgan birinchi simfoniyasi katta muvaffaqiyat qozondi. Shu paytdan boshlab, A.P. Borodin zamondoshlariga nafaqat yirik olim, jamoat arbobi, balki o'zining yorqin uslubiga ega kompozitor sifatida ham tanildi. U o'zining san'atkorlik salohiyatiga ishonch hosil qilib, «Knyaz Igor» operasini va keyinchalik V.V. Stasov tomonidan «Bahodirona» deb nomlangan ikkinchi simfoniyasini yaratishga kirishadi.

A.P. Borodin kompozitorlik ijodiga o'ta jiddiy va talabchan yondoshardi. «Bahodirona» nomli simfoniyasini ikki yil mobaynida

yozdi, partiturani faqat 1876-yilga kelib tugatdi. Opera ustidagi ish 18 yil davom etgan bo'lsa-da, u tugallanmay qoldi. Uning ko'p vaqti ilmiy, pedagogik va jamoat ishlari bilan band edi.

A.P. Borodin hayotining so'nggi o'n yilligida kompozitor sifatida ham mashhur bo'ldi. Endilikda uning ijodkor maqomidagi chet el safarlari boshlanadi. Xorijda kompozitorning asarlari ijro etiladi, u fransuz, nemis va belgiyalik kompozitorlar bilan yaqindan tanishadi. Uning simfoniya va kvartetlari Yevropa hamda Amerikada ham mashhur bo'ldi. 1877-yilda A.P. Borodin venger kompozitori va pianinotchisi Ferens List bilan tanishdi, uning tashabbusi bilan A.P. Borodinning birinchi simfoniyasi Baden-Badenda katta muvaffaqiyat bilan ijro etildi.

Uning III «Noktyurn» deb nom olgan qismini rus lirik qo'shiqchiligining durdonasi deb atash mumkin. Kvartet keyinchalik Peterburgda ham shunday muvaffaqiyat bilan ijro etildi.

A.P. Borodin 1887-yilning 15 (27)-fevralida yurak xurujidan to'satdan vafot etdi. Vaholanki, shu kuni ertalab u uchinchi simfoniya finalini yozayotgan edi. Tugallanmay qolgan simfoniyani A.K. Glazunov esdalikdan tiklab, oxiriga yetkazdi. «Knyaz Igor» operasi ham yakunlanmagan edi. Bu operani A.K. Glazunova va N.A. Rimskiy-Korsakovlar hamkorlikda yakuniga yetkazib, orkestrga solishdi. Opera premyerasi 1890-yilda Peterburg shahrida bo'lib o'tdi, Moskvada esa u 1898-yilda ijro etildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *A.P. Borodin qachon va qayerda tug'ilgan?*
2. *Uning bolalik chog'lari qanday o'tgan?*
3. *U qanday janrda ijod qilgan?*
4. *U «Knyaz Igor» asarini qachon ijod qilgan?*
5. *Uning ijodida «Qudratli to'da»ning ta'siri qanday bo'lgan?*
6. *U qaysi shoirlar bilan hamkorlik qilgan?*

P.I. CHAYKOVSKIY (1840–1893)

XIX asrning yirik kompozitorlari orasida Petr Ilich Chaykovskiy o'zining iste'dodi bilan alohida ajralib turadi. U kompozitor, dirijor, musiqiy tanqidchi, jamoat arbobi bo'lib, M.I. Glinka va A.S. Dargomijskiy an'alarining davomchisi sifatida rus klassik kompozitorlari qatoridan munosib joy olgan.

P.I. Chaykovskiyning estetik tamoyillari XIX asrning 60–70-yillarida rus jamoatchiligi madaniyati va badiiyatining yuksalishi, adabiyot, rassomchilik va musiqa san'atining gullab-yashnagan davrida shakllandi. Dunyoni o'tkir fojiviy tuyg'u bilan his qilish ehtiyojini ertangi hayotga bo'lgan qat'iy ishonch bilan uyg'un holatda idrok etish P.I. Chaykovskiyning muhim sifatlaridan biri edi.

Mohir ruhshunos-san'atkor sifatida u hayotiy haqiqatni, zamondoshlarining murakkab va ziddiyatli olamini ulkan emotsional kuch bilan o'z asarlarida aks ettirdi. O'z davri uchun xos bo'lgan umumlashma qahramonlar obrazini yaratdi. Qalb tug'yonlarini tadqiq qiluvchi favqulodda ulkan iste'dodi, ruhiy jarayonning rivojlanishini, undagi sir-sinoatlar, hissiyotlarning nozik qatlamlarini mohirlik bilan tasvirlashi uni F. Dostoyevskiy, L. Tolstoy, A. Chexov kabi yirik rus ruhshunos adiblari bilan yaqinlashtiradi. U o'zining operalarida, I.S. Turgenev yaratgani kabi, ayollarning bir qator shoirona obrazlarini yaratdi. L. Tolstoy singari muhabbat g'oyasi uni ham o'limga qarshi turadigan yuksak hayotbaxsh kuch sifatida o'ziga jalb qildi. Ijodkorlik dahosi, hayratomuz ichki g'ayrat va zahmatkashlik xislatlari bois P.I. Chaykovskiy yuksak darajaga ko'tarildi.

P.I. Chaykovskiy insonparvar va taraqqiyparvar ijodkor sifatida kishilarning erkinligi va baxtga intilishini musiqada yorqin ifoda etdi va tarixda muhabbat va tabiat go'zalligining otashin kuychisi sifatida o'lmas iz qoldirdi. P.I. Chaykovskiyning ijodida aks etgan asosiy tamoyillar insonga mehr-muhabbat, rahm-shafqat, bag'rikenglik va samimiylikdan iborat edi.



Petr Ilich Chaykovskiy 1840-yilning 25-aprel (7-may)da ziyolilar oilasida tavallud topdi. P.I. Chaykovskiyning bolalik davrlari Votkinsk shahrida, keyinchalik esa Volopayevskda o'tadi. Musiqaga qiziqish unda juda erta boshlangan. Uning quloqlarida doimo musiqa tovushlari yangrab turar edi. Musiqa haqidagi ilk taassurotni u onasidan oladi. Onasi A. Alyabyevning «Bulbul» romansini kuylagani umrbod yodidan chiqmaydi. Oilada qat'iy tartib o'rnatilgan va vazifalar taqsimlangan bo'lib, unga hamma rioya qilar edi. Mashg'ulotlar, sayrlar, ko'ngil ochar tadbirlar uchun ham aniq bir vaqt ajratilgan edi. P.I. Chaykovskiy 4 yoshga to'lganidan so'ng farang va nemis tillarini, 5 yoshida fortepyanoda chalishni o'rgana boshlaydi. Bo'lajak kompozitor fortepyano ijrochiligi murakkabliklarini tezda o'zlashtirib oladi. Musiqa cholg'usi uning barcha ermak — ovunchoqlarining o'rnini bosadi. 10 yoshga to'lgach Peterburgdagi huquqshunoslik bilim yurtiga o'qishga qabul qilinadi. Bilim yurtida xohlovchilar uchun musiqadan saboq berilar edi. Aynan shu yerda P.I. Chaykovskiy musiqa bilan jiddiy shug'ullanadi.

P.I. Chaykovskiy simfonik konsertlarga qatnashib, rus va G'arb kompozitorlarining asarlari bilan tanishadi, M.I. Glinkaning «Ivan Susanin», V.A. Motsartning «Don Juan» operalari unda juda katta taassurot qoldiradi. Keyinroq u M. Glinkaning «Ivan Susanin» partiturasini o'rganib, uni rus operasining yetuk namunasi deb hisoblaydi.

1854-yili onasining vabo kasalligi bilan to'satdan vafot etishi P.I. Chaykovskiy uchun kutilmagan zarba bo'ldi. Otasi bu vaqtda keksayib, kuchsiz bo'lib qolgan edi. Ukalari va singlisining tashvishlarini u o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi.

1859-yilda P.I. Chaykovskiy huquqshunoslik bilim yurtini tugatib, titulyar maslahatchi unvoni bilan Adliya vazirligida xizmat qilsa-da, musiqa uning qismati ekanligini tobora anglay boradi. O'z xotiralarida: «Men musiqa nazariyasi bilan juda ko'p shug'ullangan edim va ertami-kechmi, albatta, kasbimni almashtirishimga ishonch hosil qildim», deb yozgan edi.

21 yoshida u A.G. Rubinshteyn tomonidan tashkil etilgan rus musiqa jamiyati qoshidagi musiqa sinflarida dars ola boshlaydi. Har qanday topshiriqni tez va sinchkovlik bilan bajarish ko'nikmasi unga bu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishga imkon berdi.

P.I. Chaykovskiy 1862-yilda Peterburg konservatoriyasining ikkinchi bosqichiga qabul qilinadi. Unga cholg'uchilik hamda musiqa

yozish darslari bo'yicha taniqli pedagog A.G. Rubinshteyn, garmoniya va kontrapunkt darslaridan Zarembo ustozlik qiladilar. Peterburgdagi konservatoriya hamda rus musiqa jamiyati ochilishida tashabbus ko'rsatgan kompozitor Anton Grigorevich Rubinshteyn erishayotgan muvaffaqiyatlari uchun P.I. Chaykovskiyning o'z stipendiati qilib tayinlaydi, hatto garmoniya darsida o'rniga mashg'ulotlar o'tishini ham ishonib topshiradi. Keyinchalik, P.I. Chaykovskiy o'zining fortepyano uchun oltita pyesasini, ekspromptini va xor uchun «A.G. Rubinshteynga salom» nomli asarini ustoziga bag'ishlaydi va Rubinshteynning «Iblis» operasiga, «Bobil minorasi» oratoriyasiga, bir qator simfonik asarlariga dirijorlik qiladi.

Rossiyada ham Chaykovskiy nomi hurmat bilan tilga olingan. U 1885-yilda Rus musiqa jamiyati Moskva bo'limlaridan birining direktori lavozimiga saylandi. U 1887-yilda jahonning ko'pgina mamlakatlarida shuhrat qozondi va Yevropa shahrlariga borib konsert berdi. Keyingi sayohatlaridan birida Angliya va Germaniyada bo'ldi. Unga Kembrij Universiteti tomonidan «Huquq doktori» faxriy unvoni berildi. 1890-yilda yozilgan «Pikovaya Dama» operasi kompozitor opera ijodining eng yuqori cho'qqisi bo'ldi. Chaykovskiyning eng so'nggi yozgan operasi «Iolanta» dir. Undan tashqari boshqa janrdagi ham asarlar «Shekspirning «Gamlet» tragediyasiga musiqa, «Voevode» nomle simfonik poyema hayotining so'nggi ikki yilida esa «Shelkunchik» baletini yozdi.

10 ta opera, 3 ta balet, 4 ta kantata, 6 ta simfoniya, 4 ta suite simfonik uverturalar, poemalar, 3 ta marsh, 3 ta torli kvartet, fortepyano uchun 100 dan ortiq pyesa, 2 ta sonata va boshqa asarlardan iborat.

Operalari: 1. «Pikovaya dama». 2. «Romeo va Djuletta». 3. «Maland».

Baletlari: 1. «Uyqudagi malika». 2 «Oq qush ko'li». 3. «Shelkunchik».

P.I. Shaykovskiy 1893-yili vafot etgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. P.I. Chaykovskiy qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Uning bolalik chog'lari qanday o'tgan?
3. U qanday janrda ijod qilgan?
4. U nechta opera va nechta balet yozgan?
5. Uning ijodida «Qudratli to'da»ning ta'siri qanday bo'lgan?
6. U qaysi shoirlar bilan hamkorlik qilgan?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – T.: «Sharq» NMAK, 1997.
2. I.A. Karimov. «Yuqsak ma'naviyat – yengilmas kuch». – T.: «Ma'naviyat», 2008.
3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standanti va o'quv dasturi. –T.: «Sharq» NMAK, 1999.
4. A. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: «Fan», 1993.
5. H. Nurmatov, M. Norxo'jayev. 1-sinf uchun «Musiqqa alifbosi» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2007.
6. H. Nurmatov, M. Norxo'jayev. 2-sinf uchun «Musiqqa» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2008.
7. H. Nurmatov, M. Norxo'jayev. 3-sinf uchun «Musiqqa» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2008.
8. O. Ibrohimov va J. Ibrohimov. 4-sinf uchun «Musiqqa» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2008.
9. A. Mansurov, D. Karimova. 5-sinf uchun «Musiqqa» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2001.
10. S. Begmatov, Q. Mamirov va boshqalar. 6-sinf uchun «Musiqqa» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2008.
11. O. Ibrohimov, J. Sadirov. 7-sinf uchun «Musiqqa» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2009.
12. D. Omonullayeva, Sh. Yormatov. 8-sinf uchun «Musiqqa» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1990.
13. T.Y. Solomonova. O'zbek musiqqa tarixi. –T.: «O'qituvchi», 1981.
14. V. Vaxrameyev. «Musiqqa nazariyasi». –T.: «O'qituvchi», 1965.
15. H. Nurmatov, O. Ibrohimov. 6-sinf uchun «Musiqqa» o'quv qo'llanmasi. –T.: «O'qituvchi», 1997.
16. Sh. Ro'ziyev. «Xorshunoslik» darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1987.
17. L. O'rmonova. «Rus musiqasi» darsligi. –M.: «Musiqqa» nashriyoti, 2011.
18. A. Trigulova. «Xorijiy musiqqa adabiyoti», 2009.
19. O. Ibragimov va boshqalar. 7-sinf musiqqa darsligi. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2004.
20. Q. Mamirov. «Musiqqa ta'limi va madaniyati». TDPU nashriyoti, 1998.

21. H. Nurmatov, N. Yoʻldosheva. «Oʻzbek xalq musiqa ijodiyoti». Oʻquv qoʻllanma. –T.: Gʻ.Gʻulom nashriyoti, 2007.
22. M. Imomova. «Pedagogika» fanidan maʼruzalar matni. TDPU nashriyoti, 2000.
23. R. Qodirov. «Boshlangʻich maktabda koʻp ovozli kuylash». Oʻquv qoʻllanma. –T.: «Oʻqituvchi» nashriyoti, 1997.
24. M. Islomova. Xalq qoʻshiqlari vositasida oʻquvchilarning maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. –T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2000.
25. G. Sharipova. «Musiqa va uni oʻqitish metodikasi». Oʻquv qoʻllanma. –T.: «Turon-Iqbol», 2011.
26. G. Sharipova. «Musiqa oʻqitish nazariyasi va metodikasi». –T.: RTM nashriyoti, 2008.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I BOB. MUSIQA NAZARIYASI

1.1. Tovush va tovushqator	5
1.2. Registr, oktava, diapazon	7
1.3. Nota yozuvi, kalit, 1-oktava tovushlarining joylashishi	8
1.4. Tovushlar cho'zimi	11
1.5. Kuchli va kuchsiz hissalar: metr, ritm, zarb	13
1.6. O'lchov, takt va takt chizig'i	14
1.7. Tovush cho'zimlarini uzaytiradigan belgilar	17
1.8. Pauzalar	18
1.9. Alteratsiya belgilari: ton va yarim ton	20
1.10. Ladlar. Major va minor lادلari	22
1.11. Dinamik belgilar. Templar	25
1.12. Intervallar	27

II BOB. MUSIQA O'QITISH METODIKASI

2.1. Musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari	30
2.2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning musiqa ta'limidagi maqsad va vazifalari	31
2.3. Musiqa darslarining umumdidaktik prinsiplari	35
2.4. Musiqa madaniyati darslarining xususiyati va strukturasi	37
2.5. Musiqa o'qitish metodlari va ularning musiqa madaniyati darslaridagi ahamiyati	44
2.6. Vokal-xor malakalari va ularning musiqa darsidagi ahamiyati	48
2.7. Vokal ovoz turlari. Musiqa darslarida o'quvchilar ovozlari tarbiyalash va takomillashtirish yo'llari	52
2.8. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darslarini rejalashtirish	58
2.9. Taqvim — mavzuli rejalarning tuzilishi	61
2.10. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari	86
2.11. Boshlang'ich sinflarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish	89
2.12. Boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash	122
2.13. Boshlang'ich sinflarda musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish	
2.14. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish	131
2.15. Sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya	134

III BOB. O'ZBEK XALQ MUSIQA MADANIYATI TARIXI

3.1. O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari	146
3.2. Og'zaki an'anadagi ustozona professional (kasbiy) musiqa	156
3.3. O'zbek xalq milliy cholg'u sozlari	162
3.4. Yunus Rajabiy	166

3.5. «Shahmaqom»	167
3.6. Xorazm maqomlari	171
3.7. Fargʻona – Toshkent maqomlari	172
IV BOB. Oʻzbekiston kompozitorlarining hayoti va ijodi	174
V BOB. Xorij musiqa madaniyati tarixi	207
VI BOB. Rus musiqa madaniyati tarixi	220
Adabiyotlar roʻyxati	244